

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

Oydin ABDULLAYEVA

BASTAKORLIK SAN‘ATI

5150100 – Bastakorlik san‘ati

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi bakalavriati
1-kurs talabalari uchun darslik*

“Musiqqa” nashriyoti
Toshkent
2018

85.313

A 15

Abdullayeva Oydin

Bastakorlik san'ati. O'zbekiston davlat konservatoriyasi bakalavriati 1-kurs talabalari uchun darslik/O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi – T. “Musiqqa”, 2018. – 136 b.

KBK 85.313
UO'K 78.071.1

*Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 28 iyundagi 434-sonli buyrug'iga
asosan nashrga tavsiya etilgan*

Mas'ul muharrir:

Avaz MANSUROV – O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, kompozitor

Taqrizchilar:

Rustam ABDULLAYEV – O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor

Habibulla RAHIMOV – O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, kompozitor

Gulshanoy TURSUNOVA – san'atshunoslik fanlari nomzodi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti

Ushbu darslik O'zbekiston davlat konservatoriyasida 5150100 – “Bastakorlik san'ati” bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 1-kursda tahsil oluvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, shu yo'nalishning o'quv dasturi asosida tuzilgan. 1-kurs bastakor-talabalari oddiy shakllarda musiqa asarlari yozish sirlarini egallaydilar.

Darslik, oddiy shakllarda musiqiy ifoda vositalarining aks etishi bilan bog'liq musiqiy-nazariy hamda ijodiy masalalar bilan qiziquvchilar keng doirasi uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Данный учебник предназначен для студентов 1-курса направления 5150100 - “Композиторское искусство” и создан на основе учебного плана данного направления. Студенты-композиторы 1-курса осваивают навыки, связанные с созданием музыкальных сочинений в простых формах.

Учебник, может быть полезным для широкого круга интересующихся музыкально-теоретическими, а также творческими вопросами, связанными с отражением музыкально-выразительных средств в простых формах.

This textbook intended for students of 1-course of direction 5150100 - "Composer's art" and is based on the curriculum of the given direction. Students composers 1-course master skills related creation of musical works in simple forms.

The textbook can be useful for a wide range of interests musical-theoretical and artistic issues related to the reflection of the musical-expressive means in simple forms.

ISBN 978-9943-5153-8-3

© “Musiqqa” nashriyoti, 2018

© Abdullayeva O.O'., 2018

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda ta‘lim tizimini rivojlantirish, yoshlarga jahon andozalari darajasida ta‘lim berish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy texnologiyalarni chuqur egallashiga ko‘mak berish hamda ilm-fan sohasidagi izlanishlarini qo‘llab-quvatlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Yurtimiz Istiqlolga erishganidan so‘ng, eng avvalo, ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, yosh avlodni milliy ma‘naviyatimizning nodir namunalari asosida yetuk mutaxassislar sifatida tarbiyalash pirovard maqsad qilib olindi. 1997 yilda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan, professional tayyorgarlikka ega, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir yangi avlod kadrlarini tayyorlashga qaratildi. Bu borada ta‘lim va tarbiya sohasida uzviylikni ta‘minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar ilgari surildi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2008 yil 7 yanvardagi “Bolalar musiqa va san‘at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009-2014 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni yosh avlodning musiqiy tarbiyasini eng quyi pog‘onalardan boshlash va uning sifat darajasini yuqoriga ko‘tarishga qaratildi. Ushbu farmonning bajarilishi respublikamizda 300 dan ziyod bolalar musiqa va san‘at maktablarining barpo etilishi, ularning oxirgi rusumdagi musiqiy cholg‘ular hamda yangi avlod adabiyotlari bilan ta‘minlanishiga asos bo‘ldi.

I.Karimovning shaxsan bildirgan tashabbusi bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi uchun yangi bino barpo etilishi, uning huzurida Iqtidorli bolalar akademik litseyi, pedagog kadrlar uchun Malaka oshirish fakulteti, Ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot markazi, Musiqiy cholg‘ular muzeyining tashkil etilishi musiqa san‘atining rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqqani hozirda mamnuniyat bilan e‘tirof etilmoqda.

O‘zbek musiqa san‘atining rivojlanishi va taraqqiy etishi yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qaror asosida 1998, 2000, 2002, 2005-yillarda yurtimizda Xalqaro simfonik musiqa festivali bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjuman yurtimizda nafaqat ijodkorlik, balki ijrochilik salohiyatining ham yuqori darajada ekanligini butun dunyoga namoyish etish bilan muvaffaqiyat qozondi. 2003, 2008, 2013-yillarda bo‘lib o‘tgan “Davr sadolari” musiqa festivallarida o‘zbek professional bastakorlik san‘atining barcha sohalarda erishgan yutuqlarini sarhisob qilib, endigi vazifalar va yangi istiqbol rejalarini tuzishga qaratildi.

2015 yilda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining buyrug‘i bilan yurtimizda “Yosh bastakorlar Respublika Tanlovi” ta‘sis etildi. Yosh avlod ijodkorlarining ushbu tanlovga bo‘lgan katta qiziqishi bunday tadbirning ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Yurtimizda ilk bora hukumat darajasida tashkil

etilgan, o‘ta zarur ushbu ijodiy tanlov respublikamizning ijodkor yoshlarini yangi g‘oyalar birligi ostida birlashtirdi. 2016 yilda ushbu tanlov ikkinchi bora o‘tkazildi va o‘zining navbatdagi muvaffaqiyatiga erishdi.

Yurtimizda bastakorlik ijodiyoti namoyandalarining ijodiy qiziqishlarini targ‘ib qilish hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan shug‘ullanadigan tashkilot - O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasidir (dastlabki nomi - “O‘zbekiston kompozitorlar soyuzi”). Ushbu tashkilot 1938 yilda tashkil topgan bo‘lib, Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan bastakorlar va musiqashunoslarni g‘oyaviy va ijodiy birlashtirib keladi. Uyushmaning asosiy vazifalaridan biri – o‘zbek professional musiqasining taraqqiyoti yo‘lida xizmat qilish, yangi avlod ijodkorlarining tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish va o‘zbek musiqasining kelajagini ta’minlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishdir. Shu maqsadda O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi muntazam ravishda yosh bastakorlarning ijodini targ‘ib qilishga qaratilgan tanlov, kontsert, musiqiy anjumanlarni o‘tkazadi, ijodiy yutuqlarga erishgan yoshlarni munosib taqdirlaydi. Bu bilan yangi avlod ijodkorlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi.

Ijodkorlarni tarbiyalash hamma vaqt muhim masala bo‘lib kelgan. “San’atkorlar orasida sog‘lom ijodiy muhit tashkil qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san’ati namunalaridan keng bahramand bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, musiqiy ta’limni yanada rivojlantirish masalalari o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi”.¹

Buyuklarimizdan biri shunday degan ekan: “Qalb tafakkurdan ko‘ra ohangda ko‘proq ko‘rinadi”. Bu juda to‘g‘ri tavsif.

Aflotun hakim aytadi: “Farzandlaringizning ilm va odobini o‘zingizning ilm va odobingiz bilan o‘lchamang. Ularni kelgusi zamon uchun tayyorlang. Chunki ular sizning zamonangizga tegishli emas, ular kelgusi zamon odamlaridir”.

Shu bois yosh bastakorni tarbiyalash masalasi juda murakkab va nozik jarayondir. Bunda har bir ijodkorga individual yondashib ish ko‘rish maqsadga muvofiq. Bastakorni yetuk mutaxassis qilib voyaga yetkazish – yakka tarzda tarbiyalash orqali bajariladi. Bastakorlik san’atiga xos bo‘lgan ushbu xususiyatni inobatga olgan holda, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida “5150100 – Bastakorlik san’ati” ta’lim yo‘nalishi Davlat ta’lim standarti, o‘quv reja va o‘quv dasturlari asosida ta’lim-tarbiya ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Bugun mamlakatimizda yoshlarni yuksak ma’naviyatli, intellektual jihatdan yuqori salohiyatga ega, jismonan sog‘lom etib o‘stirish, milliy urf-odat va an’analarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Chunki yurtimizning ertangi kuni, istiqboli, yuksalishi va ravnaq topishi hozirgi ulg‘ayib borayotgan avlodga bevosita bog‘liqdir. Shunday ekan, ularga to‘g‘ri tarbiya berish, bilimli, ma’naviyatli inson qilib kamol toptirish eng asosiy

¹ Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2008, 143-bet.

masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Bu borada yaratilayotgan yangi o'quv adabiyotlari kabi ushbu darslik ham o'z o'rniga ega bo'ladi deb o'ylaymiz.

Ushbu darslikni nashrga tayyorlash va chop etishda har tomonlama ko'mak bergan O'zbekiston Bastakorlar uyushmasiga, O'zbekiston davlat konservatoriyasiga, shuningdek, ustozim professor Mansurov Avaz Maksudovichga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

O'zbekistonimizni ulug'lash, sha'n-u sharafini himoya qilish, shu ulug' maqsad yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan vatandoshlarimizga bag'ishlangan yangi-yangi asarlar yaratish va keng xalq orasida targ'ibot qilish asosiy maqsadimizdir. Bunday asarlar xalqimizning o'lmas ma'naviy mulkiga aylanib, ularga uzoq yillar davomida hamroh bo'lib qolsa, maqsadga to'la erishgan bo'lamiz.

1 – SEMESTR

1-DARS: KIRISH

Yosh kompozitor tarbiyasida musiqiy-nazariy fanlarning o‘rni. Musiqiy asar yaratishni maqsad qilgan yosh kompozitor, dastlab oddiy shakllarda ijodiy izlanishlar qilishdan boshlaydi. Bu borada ijobiy natijalarga erishish uchun iqtidor, iste’dodning o‘si kamlik qilib, mukammal bilimlar, turdosh fanlar bo‘yicha nazariy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi. M.: musiqiy-nazariy fanlar turkumi – solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqa asarlari tahlili kabilarni bilish zarur. Ushbu turkum fanlar musiqa ilmining asosi bo‘lib, yosh kompozitorning shakllanishida muhim vosita hisoblanadi.

XIX asr musiqiy o‘qitish tizimida yosh kompozitor avvaliga uch yil mobaynida musiqiy-nazariy fanlar tayyorgarligini o‘tab, so‘nggi ikki yil mobaynida erkin ijodga kirishishi mumkin bo‘lgan. B.Asafyev, M.Gnesin singari ko‘zga ko‘ringan san’at arboblarning guvohlik berishicha, ijod sohasi bilan bog‘liq bo‘lmagan bir necha yillik o‘qish jarayoni yoshlarni ijodkorlik intilishiga yaqinlashtirmasdan balki, ma’lum darajada ijoddan uzoqlashtirgan.²

XX asrda kompozitor tarbiyasi oliy ta’lim muassasasining 1-kursidan boshlab amalga oshirila boshladi. A.Xachaturyan, D.Kabalevskiy, G.Sviridov, A.Kara-Karayev singari jahon musiqa madaniyatida iz qoldirgan ijodkorlar aynan shu tizimda tarbiya topgan. Ushbu tizimning asosiy vazifasi esa, o‘quv rejasida belgilangan – solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqa asarlari tahlilini egallash bilan bir qatorda, o‘qishning birinchi yilidanoq siz talabalarda ijodkorlik xususiyatini tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Musiqiy-nazariy fanlar bo‘yicha olingan texnologik bilimlarni umumlashtirgan holda, ushbu ko‘nikmalar, ijodiy fikrni rivojlantiruvchi muayyan ijodiy obraz va g‘oyaga tadbiq etish - asosiy maqsadni tashkil etadi.

Quyida musiqiy-nazariy fanlar turkumining har qaysisini ko‘rib chiqamiz...

Musiqa san’atining har bir inson ijtimoiy hayotidagi o‘rni beqiyos ekanligi hech kimga sir emas. Zero, har bir xalqning musiqiy folklori, shuningdek, radio va televidenie orqali kundalik hayotda quloqqa taralib turadigan kuy yo‘llari musiqiy eshitish qobiliyatining, aniqrog‘i, ichki eshitish qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida, kasbi-kori musiqa san’ati bilan bog‘liq bo‘lmagan odamlarning ham kundalik hayotda allaqanday melodik kuylarni xirgoyi qilib yurganlarini uchratish qiyin emas. Xuddi shunday hol san’at ahlida ham tez-tez uchraydi. Afsuski, so‘nggi yillarda kompozitorlik sohasi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar orasida “qulog‘imda yangraydi-ku, ammo uni notaga tushura olmayman”

² О.Евлахов. Проблемы воспитания композитора. Ленинград, 1963.

deganlari ham uchrab qoladi. Bunday vajning eng asosiy sababi, talabaning **solfedjio** fanini yaxshi egallamaganligidir.

Solfedjio fanining vazifasi – ta’limning quyi bosqichlarida tahsil olayotgan o’quvchida eshitish va kuylash qobiliyati hamda nota savodxonligini oshirishdan iborat. Har bir ta’lim muassasasida mavjud bo’lgan o’quv dasturi va o’quv rejasiga asosan, o’quvchilar musiqa nazariyasi fanidan orttirgan bilimlarini solfedjio mashg’ulotlarida tinglab-kuylashi, melodik, garmonik va ritmik diktantlarni yoza olishi kerak. Solfedjio fani maktablarda uzluksiz ravishda o’tiladi. Zero, solfedjio fanining musiqa nazariyasi, garmoniya va polifoniya fanlariga hamohang olib borilishi – mazkur fanning maktablarda bosqichdan-bosqichga takomillashgan holda o’qitilishini bildiradi. Binobarin, maktabning boshlang’ich sinflarida solfedjio bir, shuningdek, ikki ovozli ravishda o’rgatilgan bo’lsa, keyingi bosqichlarda u ko’p ovozli holda o’rgatiladi. Shu bilan o’quvchidagi ijod sohasiga tegishli bo’lgan malaka va ko’nikmalar asta-sekin rivojlanib boradi.

Kompozitorlik ijodiyoti ko’p ovozli musiqiy matoga asoslanadi. Unda **garmoniya** fanining ro’li katta. Garmoniya fani san’at kollejlari va litseylarida o’rgatiladi. Zero, o’quvchi musiqani nafaqat bilim balki, hunar sifatida egallash chog’ida, ya’ni, unda musiqaning tafakkur darajasida shakllana boshlaganlik davrida o’tiladi. Negaki, bu davrga kelib, yoshlar muayyan cholg’u ijrochiligi hamda nota yozuvini egallagan bo’ladilar. Garmoniya fani bo’lajak kompozitorga **garmonik eshitish qobiliyatini** hamda **garmonik tafakkurni** beradigan fandır. Ushbu fan bo’lajak kompozitor uchun ijodning bir necha jabhalarida zarurdir. Bular:

- xalq musiqa merosini qayta ishlash. Bu sohada so’z yuritgan vaqtda, garmoniyaning nafaqat vertikal, balki, gorizonta matoga asoslanishini nazarda tutish muhim. Zero, garmoniyada lad masalasi birlamchi hisoblanadi. Shunday ekan, maktablarda o’rgatiladigan klassik garmoniya bo’lajak kompozitor uchun kifoya bo’la olmaydi. Binobarin, xalq musiqa merosiga tegishli biror-bir namunaning frigi, doriy yoki boshqa xalq ladiga asoslanganligini aniqlash va garmoniyaning ham, o’z o’rnida, ushbu ladga bo’ysundirilishi kerakligini tushunish maqsadga muvofiq;

- o’z qalamiga tegishli original kuyni to’g’ri garmoniyalash. Maktab chog’larida ijodiy izlanishlar boshlagan shogirdlar orasida o’z kuyini to’g’ri garmoniyalay olmagan yoshlar ko’p uchraydi. Bu esa, garmoniya xususidagi bilimlarning, shuningdek, tinglash tajribasining kamligidan dalolat beradi. Ijoddagi bunday nuqson ham fanni batafsil o’rganish orqali bartaraf etiladi;

- asarning garmonik rivoji. Ijodiy izlanayotgan shogird melodiya – kuy yo’lini yaratish bosqichini o’taganidan so’ng, asarning keyingi rivoji xususida muayyan qiyinchiliklarga duch keladi va ustozining maslahatisiz ishni davom ettira olmaydi. Musiqiy matoning garmonik rivojlanishi haqidagi bilimlar esa asarning yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Polifoniya fani xuddi garmoniya fani singari kompozitorning shakllanishiga ulkan ta’sir ko’rsatadigan fandır. Polifonik texnika, ovozosti va inventsion polifoniya, jumladan, imitatsiya, kanon, fuga, chakona va passakaliya singari

polifonik shakllar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish - kompozitor uchun o'ta muhim hisoblanadi. Har bir kompozitor o'zining ijodiy yetuklik darajasiga erishganida, tabiiyki, o'zining ijodiy individualligi talablariga xos bo'lgan polifonik usullarni ishlatadi. Masalan, D.Shostakovichning polifonik tafakkuri S.Prokofyevnikidan, T.Qurbonovning polifonik uslubi M.Tojiyevnikidan farq qiladi. Bunday ijodiy o'ziga xoslik esa ko'p yillik mehnat samarasi hisoblanadi.

Musiqiy asarning yaratilish chog'ida yosh kompozitorlar hamisha musiqa tarixi va tinglash tajribasiga tayanadilar. Shunday vaqtda, ijodiy jarayon uzluksiz davom etadi. Ammo tajriba samara bermay, ustozning maslahatisiz ishi yurishmay qolgan vaqtda, "ijodkorni polifoniya qutqaradi", - degan edi marhum o'zbek kompozitori To'liq Qurbonov.³

Haqiqatan ham, polifoniya o'zining tub maqsadida musiqiy materialning rivojlanishi va taraqqiy etishini taqozo etadi. Hattoki, kichik bir musiqiy obrazni ifodalovchi oddiy musiqiy iborani polifonik usullar bilan rivojlantirish chog'ida, uning ulkan va serqirra obrazli dunyoga aylanishiga erishish mumkin. Bunga esa, I.S.Bax, L.Betxoven, D.Shostakovich, I.Stravinskiy, P.Xindemit, B.Bartok singari ijodkorlarning qalamiga mansub jahon musiqa madaniyatining durdonalari misol bo'la oladi.

Yosh ijodkor tarbiyasidagi eng muhim masalalardan yana biri – musiqiy g'oyani ifodalash uchun vosita bo'lmish - musiqiy nutqning tuzilishidagi mantiqiylikka erishishdir. Bunday ko'nikma esa **musiqiy asarlar tahlili** fanida orttiriladi. Ushbu fan **musiqa shakli** haqidagi ta'limotga asoslanadi. Shakl, musiqiy asarning umumiy tashkillanishi sifatida, tematik matoning ishlatilishi va rivojlanishiga tegishli bo'lgan qonuniyatni aks ettiradi. Bunda materialning muayyan vaqt ichida takrolanishi va quloqqa tanilishi tinglovchiga mavjud qonuniyatni his etish imkonini beradi.

Musiqiy nutqni so'z ustasi nutqining tuzilishi bilan taqqoslaganda, mavzuviylikning shakl hosil qiluvchi roli yanada ravshanlashadi. Negaki, nutq chog'ida fikrning asosiy bayonini ifodalovchi qismlar fikrning keyingi chuqurlashuvi va rivojlanuvini ifodalaydigan qismlardan farq qiladi. Shunga ko'ra, musiqiy nutq xoh u ekspozitsion bayon, xoh rivojlanuvchi yoki yakunlovchi bayon turida bo'lsin, albatta shu xarakterda yangramog'i lozim.

Har qanday musiqiy mavzu va badiiy-g'oyaviy obraz o'zining tuzilmaviy xususiyatlari va o'zining shakliga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, yosh kompozitor davriya, oddiy va murakkab shakllar, variastiya, sonata, rondo, turkum shakllar, sonata-simfonik turkum va boshqalar haqida to'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, yosh kompozitor konservatoriyaning yuqori kurslarida murakkab ijodiy masalalar bilan duch keladi. Bular: shakl, ohang jarayoni hamda qabul qilish ob'ekti sifatida, asarning kompozitsion g'oyasi (dinamika, faktura, proporsiya va kulminastiya), dasturli musiqaning xususiyatlari va b.

³ Kompozitor T.Qurbonov bilan bo'lgan ijodiy mashg'ulotdan yozib olingan (Toshkent, 1997 yil).

Umuman, bekamu-ko‘st bo‘lgan shakl tinglovchining e‘tiborini o‘ziga tortib, taqdim etilayotgan yangi asarning mazmuni bilan to‘liq yaxlitlikni tashkil etishi kerak.

Dasturli asar ustida ishlash chog‘ida, talaba asar mazmunini yoritish masalasini musiqiy shakl talablari bilan hamohang etishi zarur. Bunda obrazning tasviri umumiy g‘oyaning aniqligiga putur etkazmasligi lozim.

Yosh kompozitorlar navbatdagi musiqiy asarni ijod etishga kirishish oldidan har qanday yetuk ijodkorga xos bo‘lgan – cho‘chish, tahluka, dipressiya holatiga tushish hollari kuzatiladi. Bunday vaqtlarda, asarning shaklini oldindan ko‘ra bilish, uning umumiy kompozition rejasini tasavvur etib, uni bajarishga kirishish - vaziyatni yengillashtiradi. Bu holatda **Musiqiy asarlar tahlili** fanidan olingan bilim va ko‘nikmalar qo‘l keladi.

Musiqiy-nazariy fanlar yosh kompozitorga kelajakdagi ijodiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan kasbiy asosni beradi. Kompozitor o‘zining butun umri davomida o‘qib, bilimlarini tinmay yuksaltirishi, hayoti davomida yuzaga keladigan ulkan ijodiy masalalarni yechish uchun tinimsiz ravishda o‘zining mahoratini mukammallashtirishi va charxlashi kerak. Ta‘lim muassasalarida o‘zlashtirilgan o‘gitlar – hayot maktabining boshlang‘ich davri sifatida katta ahamiyatga ega. Shu bois, ustoz o‘z shogirdlariga mustaqil ishlash ko‘nikmasini berishi va qo‘lga kiritilgan bilim va malakalarni hayotga tadbiiq eta olishiga ko‘maklashishi lozim.

Yosh kompozitor tarbiyasida musiqiy-tarixiy fanlarning o‘rni. O‘qib, unib-o‘sib kelayotgan yosh kompozitorning kasbiy tarbiyasida muhim hisoblangan muayyan fanlar turkumi va ushbu fanlarning tizimli ravishda o‘tilishi, ayniqsa, musiqiy-tarixiy fanlar majmui bo‘lajak kompozitorga jahon musiqasining tajribasi, erishilgan natijalar haqida bilim va tasavvurni bera oladigan zaruriy manbaa hisoblanadi. Jahon musiqa tarixini puxta bilish esa, kompozitor uchun boy bilim va ko‘nikmani beribgina qolmay, uning individual ijodiy qalami, ijodiy qiyofasining qay tarzda namoyon bo‘lishida hal qiluvchi vazifani bajaradi. Shu bois, yosh ijodkor jahon musiqasining turli davr va uslublariga ko‘ra qanday rivojlangani, qanday qiyofada bo‘lganini bilishi o‘ta muhimdir.

Jahon musiqa san‘atining tarixi quyidagi davrlarni qamrab oladi: Barokko, Klassitsizm, Romantizm, Impressionizm, Ekspressionizm, Avangard va b. Kompozitorlar ijodida musiqa tarixining har bir davriga oid uslubiy-texnologik izlanishlarning ko‘pgina yutuqlari mavjudligini aniq ko‘rish mumkin. Oldimizga qo‘yilgan vazifalardan biri bo‘lgan – estetik yo‘nalishlarni kompozitorlarning shakliy-texnologik uslublari bilan chambarchas bog‘langanligining guvohimiz va ularni tahlil qilamiz...

Barokko davri (1600 – 1750 yillar) musiqasida yangi uslub va texnologiyalarning ro‘yobga kelishi kuzatiladi. Yevropada katolik cherkovining siyosiy nazorati nisbatan pasaygani sababli kasbiy musiqaning rivojlanishiga sharoit paydo bo‘ldi. Renessans davrida katta ahamiyat kasb etgan vokal musiqaning o‘rnini endilikda cholg‘u musiqa egallay boshladi. Cholg‘u asboblarning muayyan tarzda birlashuvining mumkinligi – ilk orkestr jamoalarining

ro'yobga kelishiga sabab bo'ldi. Barokko davrida vujudga kelgan cholg'u musiqaning muhim turlaridan biri – konsertdir. Bu davrda kontsert janrida sermahsul ijod etgan kompozitorlar – Korelli va Vivaldi. Ushbu ijodkorlar Barokko davrida yakkanavoz o'z mahoratini namoyish etishi mumkin bo'lgan - kontsert janrida ko'plab asarlar yozib, ushbu janrning qaror topishini ta'minladilar.

Barokko davrining ilk yillarida Italiyada Kavaleri, Monteverdi kabi kompozitorlar tomonidan operalar yaratilib, tez orada e'tirofga sazovor bo'ldi va bu janrda ijod etish an'ana tusiga kirdi. Qadimgi yunon va rim afsona- rivoyatlari ushbu operalarga syujet qilib olinar edi. Opera dramatik badiiy shakl sifatida namoyon bo'lib, musiqada hissiy olamni ochib berish mumkin ekanligi va shu orqali tomoshabinga ta'sir o'tkazish imkoniyatining mavjudligi shu davrda yaratilgan operalarning asosiy maqsadiga aylandi. Ramo, Gendel, Pyorsel singari kompozitorlarning operalari Frantsiya va Angliya davlatlari bo'ylab keng tarqaldi. Shuningdek, Angliyada sahnaviy harakatning yo'qligi bilan operadan farq qiluvchi Oratoriya janri ham rivojlandi. Gendelning "Messiya" nomli oratoriyasi shu jumlasidandir.

Germaniyada esa, opera u qadar mashhurlikka yuz tutmadi. Shu bois, nemis kompozitorlari cherkov uchun musiqa yozishda davom etishdi.

I.S.Bax Barokko davrida yashab ijod etgan kompozitordir. Uning musiqaga bo'lgan yondashuvi musiqiy asar yaratishning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochib berdi.

Bu davrdagi asosiy musiqiy cholg'u – klavesin edi. Klavesin fortepianodan avval ijrochilik tajribasida keng qo'llanilgan musiqiy cholg'udir.

Kontsert, sonata, opera janrlari Barokko davrida vujudga kelgan klassik musiqaning muhim shakl va janrlaridir. Barokko davrida inventsiya, prelyudiya singari polifonik shakllar ham rivojlandi. Fuga shakli esa o'zining taraqqiyot nuqtasiga erishdi. Vokal musiqa janriga oid bo'lgan - messa, oratoriya singari shakllar ham rivojlandi. Kontsert janrining Concerto grosso turi vujudga keldi.

Barokko davri musiqasida insonning ichki dunyosi birinchi o'ringa chiqdi. Bu davrda musiqada tematizmga bo'lgan yondashuv insonni tubdan yoritish va uning shaxsini ochib berishni maqsad qiladi. Insonning chuqur falsafiy iztiroblari, uning ichki tafakkuri hamda ma'naviy holati o'sha davr kompozitorlari uchun alohida qiziqish doirasini tashkil etadi va musiqiy matoning asosini ifodalaydi.

Klassitsizm davri (1750 – 1820 yillar)da ilk ommaviy kontsertlar ro'yobga keldi. Buning natijasida Evropaning markaziy shaharlarida musiqiy jamiyatlar va orkestr jamoalari tashkil etildi. Orkestrlarda tub o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, klavesin va organ cholg'ulariga bo'lgan ehtiyoj kamaydi. Fleyta, klarnet, truba singari damli cholg'ular, aksincha, orkestrdan mustahkam joy egallab, o'ziga xos jarang va yangroqilikni yaratib berdi.

Orkestrning yangicha tarkibda shakllanishi musiqaning muhim sohasi bo'lgan simfoniyaning kelib chiqishiga olib keldi. Standart bo'yicha simfoniya uch xil temp – tez sur'atda aks etadigan bosh qism, sokin rivojlanadigan o'rta qism va tez rivojlanadigan yakun orqali o'z ifodasini topadi. Simfonik ko'rinishni birinchilardan

ishlatgan kompozitor Karl Filipp Emmanuil Bax bo‘ldi.

Orkestrning yangicha tarkibi bilan bir qatorda, ikkita skripka, alt va violoncheldan tashkil topgan torli kvartet tarkibi ham vujudga keldi. Shunga ko‘ra, torli kvartet alohida sohaga aylandi. Uning uchun yozilgan musiqalar standart bo‘yicha to‘rt xil sur‘atda bo‘lib, simfoniyaning eslatadi.

Shu davrning o‘zida fortepiano cholg‘usi yaratildi. Klavesin yoki klavikordning o‘rnini fortepiano egalladi. Bu esa, ijro uslubi, ijro xarakteriga ham katta ta‘sir ko‘rsatib, musiqiy-estetik sohaning rivojlanishiga olib keldi.

Bu davrda fortepiano uchun yaratilgan sonatalar muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Simfoniya singari, sonata janri ham cholg‘u musiqaning turli xillarini bir turkumga birlashtirish usuli sifatida xizmat qildi.

Klassitsizm davrining eng yorqin namoyondalari – avstriyalik kompozitorlar Yozeff Gaydn va Volfgang Amadey Motsart edi. Gaydn xor, opera, orkestr va cholg‘u musiqasi bobida sermahsul ijod etdi. Uning beqiyos xizmati u ijod etgan simfoniylarida namoyon bo‘ladi. Negaki, Gaydn 100 dan ortiq simfoniya yaratgan. Motsart esa, barcha davrlar ichra daho kompozitor hisoblanadi. U o‘zining qisqa hayoti mobaynida bitmas-tuganmas musiqiy meros qoldirdi. Jumladan, 41 ta simfoniya. Motsartning eng katta yutug‘i – uning operalaridir. U opera janrining islohotchisi sifatida namoyon bo‘ldi. Musiqiy dramaturgiyaning mutlaq yangi turini yaratgan ekan, bunda musiqa, sahnaviy harakat bilan to‘laqonli yaxlitlikka erishadi. Motsartning operalarida bir yoqlama salbiy yoki ijobiy qahramonlar yo‘q, aksincha, ular ko‘pchilik bo‘lib, hamisha harakatda va izlanishdadir. “Don Juan”, “Figaroning uylanishi”, “Sehrli fleyta” operalari shular jumlasidandir.

XVIII asrning oxirida klassitsizm davrining yana bir yulduzi maydonga keladi. Bu – Lyudvig van Betxoven. U Gaydn va Motsartdan meros qilib olgan tajribasiga ko‘ra, o‘zining kompozitorlik faoliyatini klassitsizm uslubida boshlab, keyinchalik ushbu uslubni yorish bilan birga, romantizm davrining tonggini aks ettiruvchi yangi uslubni belgilab berdi.

Klassitsizm davrida kompozitorlar musiqaga nafosat va orastalik olib kirdilar. Bunday yorqin va sof musiqa tinchlik va osoyishtalikni aks ettirib, o‘zida chuqur dramatik o‘zak, ta‘sirchan hissiyot va beqiyos energiya manbaini namoyon etadi.

Romantizm davri (1810 – 1910 yillar) musiqasi kuch, harakat va ehtiros bilan farqlanadi. Bu davrda klassik shakllar alohida ifodaviylik kasb etdi. Musiqa bevosita san‘atga, adabiyot va teatrga yaqinlashdi.

Lyudvig van Betxoven o‘z ijodining so‘nggi pallasida klassik davrning qat‘iy formulalaridan voz kechib, mutlaq yangi yo‘nalishga yo‘l ochib berdi. Jumladan, uning “Pastoralnaya” simfoniyasi qishloq manzarasini ifoda etadi.

Simfoniyanavis kompozitorlar Betxovenning musiqaga olib kirgan yangiligiga ko‘ra, unga ikki yo‘nalish bilan javob berdilar. Birinchi yo‘nalishda, klassik simfoniya tuzilmasi saqlab qolindi (Shubert, Brams, Dvorjak, Chaykovskiy), ikkinchi yo‘nalishda esa, muayyan syujetga yo‘naltirilgan dasturiy simfoniylar yaratildi (Berliozning “Fantastik simfoniyasi”, Listning “Faust simfoniyasi” va b.).

Simfoniya singari, simfonik poema va uvertyura ham orkestr musiqasining mustaqil sohasiga aylanib, tasviriy san'at va she'riyat asarlarini ifodalashga qaratilgan syujet liniyasi bilan boyitiladi va vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otishga xizmat qiladi (Listning "Les preludes", Sibeliusning "Finlyandiya", Chaykovskiyning "Romeo va Djuletta" uvertyura-fantaziyasi, Musorgskiyning "Noch na Lisoy gore" va b.).

Romantizm davrida yakkaxon-virtuozlar maydonga keldi. Pianinochilar F.List va F.Shopen hamda skripkachi N.Paganini ushbu davrda yashab ijod etgan mahoratli sozanda-ijodkorlarning eng taniqlilaridir. Kasbiy jihatdan voyaga etgan sozandaning ijodkorga aylanishini mana shu san'atkorlar misolida ko'rish mumkin.

Romantizm davrida Germaniyada romans janri rivojlanib, ijro dasturining muhim qismiga aylandi. Romans, musiqa va she'riyatning yaxlit ko'rinishi sifatida Shubert va Brams ijodida keng o'rin egalladi.

Romantizm davrida yirik operanavis kompozitor Djuzeppe Verdi maydonga keldi. U italyan operasini mutlaq yangi ko'rinishda, ijtimoy, siyosiy va vatanparvarlik mavzulari bilan boyitgan holda dunyoga namoyish etdi. Shu bilan birga, Verdi musiqaga bo'lgan oddiygina yondashuvini saqlab qoldi. Bu esa tinglovchiga bo'lgan ta'sirni yana kuchaytirdi.

Bu davrda Germaniyada Rixard Vagner opera islohotchisi sifatida nemis operasining qiyofasini butunlay o'zgartirdi. Vagnergacha bo'lgan davrda operadagi musiqa va harakat alohida qismlar yoki qisqa musiqiy nomerlarga bo'linar edi. Bunday sharoitda har bir musiqiy nomerdan so'ng tinglovchilar qarsak chalishi, san'atkorlar esa ta'zim bajo etishi mumkin edi. Vagnerning operalari esa uzoq va beto'xtov yangraydigan musiqa kabidir. Asar qahramonlarining xarakterini leytmotiv nomli kichik kuylar ifoda etadi. Bunda so'zning o'zaro qofiyalanishi emas, balki so'zning musiqa bilan mos kelishi katta ahamiyat kasb etadi.

Vagnerning g'oyalari ko'plab ijodkorlarning musiqiy asarlari, jumladan, Brukner va Malerning yirik shakldagi asarlari, R.Shtrausning operalariga ta'sir ko'rsatdi. Italiyada ijod etgan Verdi va Puchchini ham Vagnerning ta'siri ostida muayyan o'zgarishlarni boshdan kechirdilar.

Impressionizm davri ijodkorlari nozik tabiat, shu bilan birga, ifoda vositalariga ko'ra aniq, hissiy vazmin, tafovutsiz, qat'iy uslubga asoslangan san'at asarlarini yaratganlar. Bunda musiqiy janrlarning talqini kuchli o'zgarishga yuz tutdi. Simfonik hamda fortepiano musiqa sohasida, birinchi navbatda, dasturiy miniatyuralar, turkumli syuitalar yaratilib, unda janrlar rang-barangligi va manzaraviy xususiyat o'z ifodasini topdi.

Musiqiy mavzular garmonik va tembr jihatidan boyidi. Impressionizm davri musiqasi tovushning bo'yog'i va yangrashi bilan xarakterlanadi. Bu davrda musiqaga fransuz musiqiy folklori, rus musiqasi, grigorian xorali, Sharq mamlakatlari musiqasiga xos ilk Tug'ilish davrining cherkov polifoniyasi kabi ko'plab tashqi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bunday ta'sir esa, tabiiy va sun'iy ladlar, modal garmoniya elementlari, "noodatiy" parallel akkordlarning ishlatilishida kuzatildi.

Impressionizm davridagi cholg'ulashtirish masalasiga kelsak, unda klassik orkestrning hajmi kichiklashganini, cholg'ular tarkibining shaffofligi va tembr jihatdan tafovutkor ekanligini, cholg'ularning muayyan guruhlarga bo'linishini, musiqiy matoning batafsil ishlanishi, sof tembrlarning ham yakkaxon cholg'u sifatida, ham yaxlit turdosh guruh sifatida faol ishlatilishini kuzatish mumkin. Kamer musiqa sohasida E.Sati va K.Debyussi tomonidan ko'p ishlatilgan cholg'ular birligi arfa va fleytadan iborat. Bunday cholg'u birligi, o'z o'rnida, impressionizmning o'ziga xos ramzi bo'lib qoldi.

Frantsiyada yashab ijod etgan eng taniqli musiqiy impressionistlar – Klod Debyussi, Erik Sati, Moris Ravel. Bu yo'nalish tez orada dunyo bo'ylab keng tarqaldi va butun jahonda o'zining izdoshlariga ega bo'ldi. Rossiyada I.Stravinskiy (ijodining ilk davrida), A.Skryabin, N.Cherepnin va boshqalar impressionizmning yorqin namoyandalari hisoblanadi.

Ekspressionizm davri musiqasi dunyoning fojiviy ko'rinishini o'zida ifoda etadi. Bunda yuksak ma'naviy intilishlar jahon urushlarining qaqshatqich zarbasi bilan ro'baro' keldi. Bunday ta'sir yirik zamonaviy kompozitorlar, xususan K.Penderetskiy ijodida yaqqol seziladi.

Musiqada ekspressionizm XX asrning birinchi o'n yilligida shakllandi. Uning bir qator elementlari G.Malerning so'nggi simfoniyalarida ("Pesn o zemle" (1908), Simfoniya №9 (1909), Simfoniya №10) va R.Shtrausning operalarida ("Salomeya" (1905), "Elektra" (1908)) namoyon bo'ldi. Biroq, bu yo'nalish Arnold Shyonberg rahbarlik qilgan yangi Vena maktabiga tegishli, deb hisoblanadi. Bular, A.Shyonberg (rahbar), A.Berg va A.Vebernlaridir. O'z ijodini kechki romantizm davriga yaqin bo'lgan asarlarni yaratishdan boshlagan A.Shyonberg romantik idealni rad etish orqali xavf-xatar hissi, atrof-muhitga nisbatan qo'rqinch, umidsizlik va ishonchsizlik ruhi bilan yo'g'rilgan badiiy-g'oyaviy obrazni ifoda etishga kirishdi. Muqimlikdan voz kechib, hayot dunyosiga berilgan, inson ruhiyatining tubida joylashgan g'oyaviy obrazni aks ettirar ekan, ekspressionizm davri musiqasi aniq va yorqin ifodalanuvchi obrazlar va tugallangan shakllardan yiroq hisoblanadi. Ushbu oqimga tegishli kompozitorlar musiqiy ifoda vositalarining alohida doirasini ishlab chiqdilar; keng qamrovda kuylanadigan melodika va aniq tonal turg'unlikdan voz kehdilar; **atonallik** printsipti esa ruhiy holatning noturg'unligi va noaniq tushunarsiz xavotirni ifoda etadi. Bu davrda yaratilgan aksariyat asarlar oddiy va lo'nda bo'lib, muayyan bir obraz yoki ruhiy azob-uqubatga e'tiborni qaratadi. Masalan, A.Vebernning "Orkestr uchun 5 ta pyesa" (1910) turkumidagi ayrim qismlar hajm jihatidan kichik bo'lib, bir daqiqa atrofida davom etadi. Yangi Vena maktabi kompozitorlarining umumiy tafakkur tamoyillari va obraz dunyosining yangi turiga tegishli talabga javob beruvchi yaxlit tuzilmaviy shakllantiruvchi xususiyatning zarurati XX asrning 20-yillarida Shyonberg tomondan **dodekafoniya** deb nomlangan kompozitsion original tizimning ishlab chiqilishiga olib keldi.

Dodekafoniya texnikasida yozilgan asarlar turli xil takrorlanish, ya'ni **seriyaga** asoslangan bo'lib, ushbu maktab namoyandalarining fikricha, barokko va ilk klassitsizm musiqasining shakllantiruvchi tamoyillarga xos rivojni aks ettiradi.

Ekspressionizm davriga xos ilk namunalardan biri A.Shyonbergning 1909 yilda yozilgan “Ojidanie” (“Kutish”) nomli monodramasidir. Unda kuchli xavotir hissi paymonaning to‘lishi va portlash orqali o‘z yechimini topadi. A.Shyonbergning 1912-yilda yaratilgan “Lunniy Pero” nomli melodramasida sirli va dahshatli “tungi kayfiyat” dunyosi ifodalangan.

A.Shyonberg singari Ekspressionizm davri namoyandarining ijodida ham ijtimoiy-tanqidiy lavhalar o‘ziga xos ravishda aks etgan. Ayniqsa, A.Berg ijodida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning 1921 yilda yaratgan “Votssek” nomli operasi ijtimoiy qaramga muhtoj bo‘lganlarga nisbatan chuqur hamdardlik va “boylar”ning zo‘ravonligiga nisbatan nafrat hissi bilan sug‘orilgan.

Natsist terrorining dahshatini ifoda etuvchi “Oda Napoleonu” (1942), “Ustevshiy iz Varshavi” (1947) asarlari A.Shyonbergning ijodiy qarashlarini namoyish etuvchi asarlardir. Biroq bu asarlarda biron bir g‘oyaning qaror topishi kuzatilmaydi, balki, nafrat va g‘azab tuyg‘usi umidsizlik va mahkumlik holati bilan birikadi. A.Shyonbergning Ikkinchi jahon urushidan keyin yozgan asarlari ekspressionizm oqimining so‘nggi yorqin asarlariga aylandi. A.Vebern ijodida ekspressionizm o‘zgacha uslubiy shaklga aylanib, abstrakt-aqliy tuzilmaviy xususiyat kasb etdi. Shunga ko‘ra, Vebern ikkinchi jahon urushidan keyingi musiqiy avangardizmning asoschisi sifatida tan olingan.

Avangardizm XX asrning turli kompozitorlik uslublarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, uning namoyandalari musiqa san’atining an’anaviy uslub va shakllarini inkor etgan. Yangi ifoda vositalari yordamida avangard oqimi namoyandalari uslub va badiiy obraz jihatidan noodatiy asarlar yaratdilar. “Avangard” atamasi (frantsuzcha “avant-garde” – oldinda yuruvchi guruh) XX asrning 20-yillarida paydo bo‘lib, san’atshunoslikda mustahkam o‘rnashdi. Musiqiy avangardizmga seriyaviy musiqa, aleatorika, puantilizm, sonorika va elektron musiqa kiradi. Xorijiy avangardizmning asosiy namoyandalari – g‘oyaviy-estetik yo‘nalish bo‘yicha ijodi xilma-xil bo‘lgan K.Shtokxauzen, Ya.Ksenakis, P.Bulez, Dj.Keydj, D.Ligeti, X.V.Xenste, L.Berio, M.Kagel singari kompozitorlardir.

Ma’lumki, zamonaviy musiqa san’atining texnologik muammolari doirasini birinchilardan bo‘lib St.Kogoutek o‘zining “Texnika kompozitsii v muzike XX veka” nomli kitobida qamrab olgan. Ushbu muallifning g‘oyasi keyinchalik E.Denisovning «Современная музыка и проблемы эволюции композиторской техники», V.Xolopovaning «Формы музыкальных произведений» singari tadqiqotlarida davom ettirildi va rivojlantirildi.

Zamonaviy san’atshunoslik nuqtai nazaridan XX asr kompozitorlik texnikasini innovatsion deb atash rasm bo‘lgan. Seriyaviy musiqa va puantilizm avangardning birinchi bosqichi (1920-1930 yy.)da yuzaga kelgan bo‘lib, **Yangi texnika** deb yuritiladi. Bunda kengaytirilgan tonal va modal sistemalar natijasida dodekafoniya yuzaga keldi. Avangardning ikkinchi bosqichi (1960-1970 yy.)da vujudga kelgan sonorika, aleatorika, polistilistika, minimalizm esa **O‘ta Yangi texnika** deb ataladi.

Ikkala oqimga tegishli bo‘lgan texnikalar ham XX asr kompozitorlik ijodiyotining xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Dodekafoniyaning kashf etilishi

A.Shyonberg, puantilizm A.Vebernga borib taqalsa, seriyaviy texnika P.Bulezi, K.Shtokxauzenlarning ijodida vujudga keldi. XX asrning 70-yillarida A.Shnitke polistilistika nazariyasini ilgari surdi. K.Penderetskiy, V.Lyutoslavskiy, T.Berd singari polyak kompozitorlarining bir guruhi sonorika, S.Rayx, T.Rayli, F.Glass kabi Amerika kompozitorlari esa minimalizm texnikasining vujudga kelishiga sabab bo'ldilar.

Shuni aytish kerakki, avangardizm hech qachon yaxlit oqim sifatida mavjud bo'lmagan. Agar uning ayrim ko'rinishlari tom ma'nodagi ijodiy erkinlik orqali aks etgan bo'lsa, yetakchi avangard kompozitorlarning aksariyat asarlari XX asr musiqiy solnomasining ajralmas qismi bo'lib qoldi.

* * *

Yuqorida ko'rinib turganidek, yosh kompozitor uchun jahon musiqasini keng qamrovda bilish katta ahamiyat kasb etadi. Musiqiy-tarixiy fanlarni bilishning zarurati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- har bir janr yoki musiqiy shaklning qaysi davrda vujudga kelgani va rivojlanganini bilish muhimdir. Zero, muayyan musiqiy asar ustida ish olib borayotgan davrda uning qanday rivojlanish jarayonlaridan o'tib kelganini bilish, ushbu asarning taraqqiyot nuqtasini belgilash imkoniyatini beradi;

- musiqiy cholg'ularning evolyustiyasi, uning ishlatilishi, orkestrga kirib kelishi, musiqiy jamoadagi ahamiyati, binobarin muayyan bir davrda ahamiyati pasaygan cholg'ular (klavesin, organ)ning muomalaga qaytib kelishi ijodiy jarayonda yangi imkoniyatlar doirasini ochib beradi;

- biron bir janrda asar yoza olish uchun ushbu janr va uning xarakteri haqida aniq tasavvurga ega bo'lish zarur. Zero, vals, polka, tarantella, skertso singari xarakterli janrlarda ijod etish uchun aniq tajriba kerak bo'ladi;

- kompozitor uchun muhim bo'lgan narsa – kompozitorlik texnikasini tushunish, texnika turlarining farqiga borish va biron bir texnikani yaxshi o'zlashtirish. Bunga esa tajriba orqali erishish mumkin.

Kompozitorlik san'atiga tegishli bo'lgan har bir ijodkor o'zidan avval yashagan shaxsning ijodiy qarashlarini davom ettiradi. XIX asrning oxiridagi Germaniya musiqiy hayotini olsak, I.S.Bax o'zidan avval ijod etgan I.Paxelbel, D.Bukstexude singari to'ng'ich avlod polifonistlarining erishgan yutuqlarini umumlashtirdi hamda o'z ijodi bilan barokko davrining erkin polifonik uslubiga yakun yasadi. I.S.Baxdan so'ng uning o'g'illari yangi gomofon-garmonik uslub sohasida izlandilar. Ularning erishgan yutuqlarini esa, barokko davri muvaffaqiyatlari bilan qo'shib olgan holda Vena klassiklari yangi cho'qqiga olib chiqdilar.

Fransiya musiqa madaniyatida ham holat o'zgacha bo'ldi. Ilg'or ijodkor bo'lgan G.Berliozdan keyin an'ana doirasidan chiqib keta olmagan S.Frank va K.Sen-Sans maydonga keldi. Ulardan so'ng esa musiqiy hayotga K.Debyussi va M.Ravel singari novatorlar kirib keldi.

Rossiya ham bundan xoli bo‘lmadi. “Moguchaya kuchka” (“Qudratli to‘da”) va P.Chaykovskiy ijod etgan davrda Peterburg va Moskva ijodiy maktablarning yutuqlarini birlashtira olgan bir qator kompozitorlar vujudga keldi. Bular A.Glazunov, S.Taneyev, A.Lyadov, A.Arenskiy, S.Raxmaninovlardir. Keyinchalik esa yangi izlanishlarni boshlagan va yangi tarixiy istiqbol yo‘lini ochgan I.Stravinskiy, D.Shostakovich va S.Prokofyevlar maydonga keldi.

O‘zbek kompozitorlik maktabi ham bundan mustasno emas. Xususan, D.Shostakovich o‘zining simfonik tafakkuri vositasida o‘zbek simfonik musiqasi va uning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Zero, o‘zbek kompozitorlari M.Tojiyev va T.Qurbonovlar uning ijodiy izlanishlarini milliy nuqtai nazar bilan sug‘organ holda davom ettirishga harakat qildilar.

Tarix shuni ko‘rsatadiki, daho novator bo‘lish ham, daho izdosh bo‘lish ham nufuzli hisoblanadi. Ya’ni R.Vagner yoki I.Brams, A.Shyonberg yoki S.Raxmaninovlar o‘z ijodi bilan jahon musiqasidan mustahkam joy egalladilar. Aksincha, izdoshning izidan ketib, yangi taraqqiyot nuqtalariga ta’sir ko‘rsatmay o‘tish esa salbiy holatdir. I.S.Bax, V.Motsart, A.Skryabin, A.Glazunovlarning ijodini davom ettiraman, degan kompozitorlar noma’lumlikka yuz tutganlar.

Har bir estetik yo‘nalish tabiiy ravishda ro‘yobga keladi. Uning paydo bo‘lishi bir yoki bir necha shaxslarning fikriga bog‘liq bo‘lmaydi. Uning paydo bo‘lishi aniq vaqt, geografik, tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitga bog‘liq. Har bir estetik yo‘nalish o‘zidan avval mavjud bo‘lgan texnikani rad etmagan holda o‘zining texnikasini keltirib chiqaradi (bunda tarixiy bog‘liqlik namoyon bo‘ladi). Ijodi tan olingan har bir kompozitor (V.Motsart, L.Betxoven, F.Shubert, D.Shostakovich, I.Stravinskiy va b.) kamida bir necha estetik yo‘nalishning texnikasini yaxshi bilib, uni ishlata olgan. P.Pikasso (tasviriy san’atda) va I.Stravinskiy (musiqada) esa o‘zining ijodiy hayoti davomida estetik qarashlarini bir necha marta o‘zgartirganlar.

Texnikalarning barchasi foydali. Ularni qancha ko‘p o‘zlashtirgani sayin, ijodkor o‘sib boraveradi. Estetik sohada ham cheklovlar bo‘lishi mumkin emas.

Ijodiy dasturni shakllantirish

O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 5150100 – Bastakorlik san’ati bakalavriat ta’lim yo‘nalishida ta’lim dasturlarini amalga oshirish tizimga solingan. Ushbu fan bo‘yicha amaliy (yakka) mashg‘ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Xususan, ta’lim olishning 1-kursida amaliy (yakka) mashg‘ulotlar har bir mavzu yuzasidan ijodiy mashqlarni bajarish, oddiy shakllarni amaliy jihatdan o‘zlashtirish, oddiy shakllarda musiqiy asarlar yozish, yaratilgan asarning ijrosini tayyorlash kabi o‘quv ishlarini o‘z ichiga oladi. Amaliy (yakka) mashg‘ulotlar muayyan asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko‘rish, ijod sohasida jahon tajribasi bilan yaqindan tanishish, ijodiy jarayonga kirishish, ijod sirlarini anglash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Yaratilgan musiqiy asarning original ijro talqinini yaratish masalasi ham muhim vazifa sifatida qo‘yiladi.

1-kurs bakalavriat talabasining ijodiy ulg'ayishini kontsert-ijrochilik amaliyotlarining samarali tashkil etilganligidan kuzatish mumkin. Talabalar butun o'qish jarayonida ixtisoslik sinfida olgan ijodiy bilim va ko'nikmalari asosida yaratgan ijodiy asarlarini sinov-imtihonlarda, tanlovlarda, kontsertlarda hamda Respublika va Xalqaro tanlov-festivallarda namoyish etib, ijodiy malakani oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1-kursning 1-semestrida talaba o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlar o'quv dasturida quyidagicha belgilab qo'yilgan:

- musiqiy kompozitsiya kursining predmeti – musiqa yaratish;
- kompozitsiya, qarama-qarshiliklar, yangilik, mutanosiblik;
- usullarga solish, garmoniyalashtirish yaxlitligi. “Oltin kesishma”;
- ijodiy g'oyani ro'yobga chiqarishda kompozitsiya vositalari;
- oddiy shakllarda ijodiy ish;
- fortepiano uchun prelyudiyalar yaratish;
- fortepiano jo'rligidagi torli cholg'ular uchun kichik kuylar yaratish.

1-kursning 2-semestrida talaba o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlar o'quv dasturida quyidagicha belgilab qo'yilgan:

- she'riy matn bilan ishlash;
- qo'shiq, ovoz va fortepiano uchun;
- romans, ovoz va fortepiano uchun;
- xor uchun asar.

O'quv rejasida belgilab qo'yilgan talabga ko'ra, 1-kurs, ya'ni 1- va 2-semestrlar mobaynida o'rganish lozim bo'lgan – ijodiy maqshlar, oddiy shakllarda pyesalar yaratish, cholg'u kuylari, yakka cholg'u uchun solo, vokal-cholg'u asar, xalq cholg'ulari uchun asar kabilarni ustozingiz bilan imkoniyatlaringizni hisobga olib, maslahat bilan rejalashtirib olasiz.

Darslikda yoritilgan musiqiy janrlar fanning tasdiqlangan va joriyga kiritilgan o'quv dasturi bo'yicha tanlangan. Qolaversa, O'zbekiston davlat konservatoriyasining “Bastakorlik va cholg'ulashtirish” kafedrasidan yillar davomida shakllantirilgan, kursma-kurs belgilangan xususiy talablar majmuasi ham mavjud. 1-kurs talabalari boshqa ustozlar sinfida oddiy shakllarda musiqiy asar ijod qilishni o'rganishlari mumkin. Ular murakkablik darajasi bo'yicha albatta oliy ta'lim talablariga va har bir talabaning imkoniyatlariga to'g'ri kelishi lozim. Darslikda notasi berilgan asarlar faqat namunaviy dastur sifatida taqdim etilgan. “Bastakorlik san'ati” ixtisosligining 1-kursi ta'lim jarayonlari mobaynida ijodiy mahoratni yangi bosqichda o'zlashtirish uchun dastavval ijodiy dasturni shakllantirish zarur, bu o'quv yili boshida amalga oshiriladi. Misol tariqasida, ushbu darslikka asos qilib, bir talabaning iqtidorini inobatga olgan holda “Talabaning shaxsiy rejasini”ni tuzamiz. Ijodiy bilim va ko'nikmalari o'rtacha bo'lgan talaba uchun namuna sifatida 1-o'quv yiliga quyidagi ijodiy dasturini tavsiya etamiz:

1-SEMESTR IJODIY DASTURI NAMUNASI*:

- 1) melodik, garmonik va ritmik mashqlar;
- 2) polifonik mashqlar (B.Bartok “Mikrokosmos” 1 va 2-daftar);
- 3) fortepiano uchun “2 ta Preljudyia” yaratish;
- 4) violonchel (yakka cholg‘u) uchun solo yaratish.

2-SEMESTR IJODIY DASTURI NAMUNASI*:

- 1) fleyta va fortepiano uchun pyesa yaratish;
- 2) ovoz va fortepiano uchun romans yaratish (she’riy matn asosida);
- 3) qashqar rubobi va fortepiano uchun pyesa yaratish.

**) Izoh: 1-kursga o‘qishga kirgan o‘ta iqtidorli talabalar ustozlari bilan kelishgan holda, rejadan tashqari, musiqa san‘atining yirikroq janr va shakllarida, xususan, sonata shakliga tegishli asarlar ustida ham ijodiy izlanishlar olib borishlari mumkin.*

Savollar:

- 1) Jahon musiqa andozalari deganda nimani tushunasiz?
- 2) Kompozitorlik ijodiyotiga oid janrlarni keltiring.
- 3) Simfonik orkestrga kiruvchi cholg‘ular necha guruhga bo‘linadi?
- 4) Simfoniyanavis ijodkorlarning nomlarini ayting.
- 5) O‘zbekistonda bolalar musiqasi rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlarning nomlarini ayting.
- 6) O‘zbek sahnaviy musiqasining rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlarning nomlarini ayting.
- 7) Bastakor va kompozitor tushunchalari o‘rtasidagi faqrni aytib bering.

Topshiriq:

- 1) A.H.Jabborovning “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” T. 2004 ma’lumotnomasini o‘qing.
- 2) Poytaxtda joylashgan A.Navoiy nomidagi DAKT repertuaridagi O‘zbekiston kompozitorlarining qalamiga mansub opera va baletlarni tomosha qiling.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. B.Bartok. “Mikrokosmos”. 1 va 2-daftarlar.
2. P.Chaykovskiy. “Detskiy albom”.
3. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yillar nashrlari.

Tayanch iboralar: *ijodiy jarayon, janr, ifoda vositasi, shakl.*

2-8 DARSLAR: Melodik va garmonik mashqlar

Kompozitorlik faoliyatiga kirishish jarayonining ilk bosqichida ijodiy mashqlarning cheklangan usuliga murojaat etib, keyinchalik bosqichma-bosqich ravishda erkin ijodiy shakllar (talaba mustaqil ravishda o'z ijodiy g'oyasini ilgari surishi)ga o'tish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, ijodiy faoliyatda muayyan tajribaga ega bo'lmay turib, ichki qat'iyatsizlik va o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik hissini yengish mushkul. Alohida musiqiy asarlarni yaratishga kirishishdan avval kompozitorlik texnikasining elementlarini o'zlashtirishga oid maxsus ijodiy mashqlarni bajarish maqsadga muvofiq.

Melodik tafakkurni shakllantirish uchun quyidagi maxsus vazifalarni bajarish mumkin:

1) Muayyan ladda berilgan va yakunlanmagan kuyni oxirigacha bastalash.

Misol uchun frigiyladida tuzilgan tugallanmagan kuyni keltiramiz:

Kuy davriya shaklida tuzilgan bo'lib, ikki jumladan iborat bo'lishi kerak.



Yuqorida berilgan tugallanmagan bu kuy davomini yozishning bir necha variantlarini keltiramiz.

Variant №1

Birinchi jumla berilgan ovoz diapazonining ichida rivojlanadi va kuy to'liqinsimon ravishda harakatlanadi:



Variant №2

Ikkinchi jumla forshlagli tovush bilan boyigan va kuyning rivojlanishida o'ziga xos bo'yoq beradi:



Variant №3

Ikkinchi jumlada harakat faollashganini ko'rish mumkin:



Variant №4

Ikkinchi jumlada ovoz hajmi yuqoriga tomon o‘sgan va kuy eng yuqori pardaga yetgandan keyin pog‘onama-pog‘ona pastga tomon harakatlanish orqali o‘z nihoyasiga yetadi:



2) Savol-javob ko‘rinishidagi kuyi improvizastiya qilish.

Savol-javob turiga oid kuylar davriya shaklidagi tuzilmaga ega bo‘lib, birinchi jumlasini noturg‘un xarakterga ega bo‘ladi. Ya‘ni, birinchi jumla tonikadan tashqarida ifodalanadigan garmonik asosda tuzilishi mumkin, ikkinchi jumla esa kuy harakatini garmonik turg‘unlikka olib keladi:



Savol-javob turiga oid kuylar melodik diapazonning o‘shini ta‘minlaydi, ya‘ni birinchi jumlada kuyning harakati yuqoriga yo‘naltirilgan bo‘ladi, ikkinchi jumlada esa, kuy harakati pastga tomon qaratilgan bo‘ladi va tonikaga olib keladi.



$\text{♩} = 100$ Anorxon. O'XM

mf

1) Ostinatoli ritmik asosda sekvension ibora va melodialarni improvizatsiya qilish.

Variant №1

Variant №2

Variant №3

Variant №4

3) Muayyan garmonik ketma-ketlik va ritmik tasvir asosida melodialarni improvizatsiya qilish.

Variant №4

5) Nola-qochirimlar bilan kuy yaratish.

Variant №1

Variant №2

Variant №3

Variant №4

Maxsus topshiriqlar sifatida **ritmik tasavvurni** rivojlantirishga oid quyidagi vazifalar taklif etiladi:

1) Sinkopa, punktir ritm, triol, poliritmiya, o'zgaruvchan metrni ishlatgan holda aralash ritm va ritmik figuratsiyalarda melodialarni improvizatsiya qilish.

$\text{♩} = 90$ Bibigul. O'XM

$\text{♩} = 112$ Aylanaman. O'XM

Moderato Olmacha anor. O'XM

$\text{♩} = 116$ Nigor. O'XM

$\text{♩} = 116$ Cho'li kurt. O'XM

2) Turli ritmik improvizatsiyalarni amalga oshirish (bir yoki bir turdagi boshqa shovqinli cholg'uda).

Variant №1


Variant №2



Variant №3




Variant №4




3) She'riy matn asosida ritmik ko'rinishlarni yaratish.

Variant №1




Variant №2



Variant №3



Variant №4



Garmonik tafakkurni rivojlantirishga oid ijodiy vazifalar:

- 1) fortepiano prelyudiyasining improvizatsiyasi uchun garmonik asos yaratish (I.S.Baxning "XTK" I-tomdan Do major Prelyudiyasiga o'xshash tarzda);
- 2) prelyudiya uchun notersiyaviy akkordlarga asoslangan garmonik asos yaratish:

3) gammani erkin garmoniyalash;

4) garmonik ketma-ketlik asosida etyudlar yaratish:

5) bir jumlasini bastalangan davriyaning ikkinchi jumlasini yaratish:

Allegro moderato

G'Qodirov. Paxtaoy

6) Vokalizlar (unli bo'g'inlar asosida)ga garmonik jo'rlik yaratish:

Polifonik yozuv ko‘nikmasini rivojlantirishga oid vazifalar:

- 1) ovozosti imitatsion polifoniya asosida o‘zbek xalq kuylarini qayta ishlash;
- 2) cheksiz kanon yaratish (o‘qituvchi tomonidan berilgan misol asosida);
- 3) berilgan kuyga qo‘shimcha (noparallel) ovozlar yaratish:

4) polifonik rivojlangan ovozlar mavjud bo‘lgan ikki ovozli kichik pyesalar yaratish.

Fakturaviy tasavvurni rivojlantirishga oid ijodiy vazifalar:

- 1) turli fakturaviy ko‘rinishlarni ishlatgan holda cholg‘u va vokal mashqlar yozish;
- 2) qo‘shiqqa mo‘ljallab turli xil cholg‘u jo‘rligi yozish;
- 3) etyudning turli xil fakturaviy ifodasini yozish;
- 4) figuratsiya (garmonik, melodik, aralash va b.)ning turli xillarini ishlatgan holda cholg‘u variastiyalari yozish.

Izoh: Yuqorida keltirilgan barcha topshiriqlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni o‘zaro erkin ravishda qo‘shish va murakkablashtirish mumkin. Ushbu jarayonni alohida ibora, jumla va davriyadan tortib, to yirik vokal-xor, cholg‘u asarlar masshtabida olib borish imkoniyati mavjud.

Savollar:

- 1) Musiqaning asosiy elementlari nimalardan iborat?
- 2) Savol-javob ko‘rinishidagi kuyga misollar keltiring.
- 3) Kuyning ritmik asosi deganda nimani tushunasiz?
- 4) Kuyning garmonik asosi deganda nimani tushunasiz?
- 5) Improvizatsiya nima?

Bir ovozli kuy yaratish bo‘yicha ijodiy topshiriqlar.

- 1) Davriya shaklida bir necha kuy yozing.
- 2) Savol-javob turida 3 ta kuy yozing;
- 3) Sekvensiyalar qatnashuvida 3 ta kuy yozing;
- 4) Tuzilmadagi takroriylikka asoslangan 3 tk kuy yozing;
- 5) Etyudsimon turga tegishli xarakterda 3 ta kuy yozing;
- 6) Sinkopalar qatnashgan 3 ta kuy yozing.

Kuyning turli variantlarini bastalashga asoslangan ijodiy mashq.

Quyida keltirilgan kuyning variantlari asosida quyidagicha topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

- 1) Kuyning variantlarini qiyosiy tahlil qiling;
- 2) O‘zingiz bastalagan kuyni bir necha variantlarda bajaring. Kuy namunalarini uzaytirish tavsiya etilmaydi.





Tayanch iboralar: *melodik tafakkur, garmonik tafakkur, polifonik yozuv, faktura.*

9-15 DARSLAR: Fortepiano uchun “2 ta Preljudiya” yaratish

Musiqiy asar yaratish – murakkab, ko‘p qirrali ijodiy jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda nafaqat, musiqiy-nazariy, musiqiy-tarixiy fanlardan olingan bilim va tajriba, balki badiiy-estetik obraz haqidagi tushunchalarni ham anglash juda muhim. Musiqiy asarlar o‘zining obrazli semantik dunyosiga ko‘ra quyidagicha turlarga bo‘linishi mumkin:

- abstrakt obrazli musiqa;
- dasturiy musiqa:
 - 1) badiiy asar yoki tarixiy voqea asosida;
 - 2) ijodkorning original semantik dasturi asosida.
- manzarali-tasviriy musiqa va b.

Ijodkor tomonidan o‘qilgan badiiy kitob, boshdan kechirilgan voqea, tinglangan asar (surat, spektakl) va boshqa ko‘plab inson hayolotini ishga soluvchi unsurlar yangi asarning yaratilishiga turtki beradi. Shunga ko‘ra, ijodkor yaratilajak asarning mazmuni va mohiyati ustida fikrlaydi, uning dramaturgik shaklini tuzadi. Obrazlar bilan bog‘liq musiqiy ohang palitrasini izlaydi. Binobarin, har bir musiqiy asar biror bir badiiy-estetik maqsadning yechimi uchun xizmat qilishi shart. Ya’ni, musiqiy asar o‘zining mazmuni va mantig‘iga ega bo‘lishi zarur.

* * *

Fortepiano musiqasi o‘zining estetik dunyosiga ega bo‘lgan musiqa ijrochiligining ilg‘or sohalaridan biridir. Klavesin va klavikord kabi musiqiy cholg‘ulardan keyin kashf etilgan fortepiano⁴ barcha davr va yo‘nalishlarga tegishli bo‘lgan ijodkorlarning e’tiborini tortgan. Fortepiano uchun ijod etgan kompozitorlar - D.Skarlatti, L.Betxoven, F.List, S.Raxmaninov, F.Shubert, F.Mendelson, E.Grig, F.Shopen, P.Chaykovskiy, A.Skryabin, S.Prokofev, D.Shostakovich va b. Fortepiano uchun maxsus musiqa yaratish bilan bir qatorda, orkestr uchun yaratilgan durdona asarlarini ham fortepiano uchun moslashtirganlar.

⁴Fortepiano cholg‘usi italyan ustasi Bartolomeo Kristofori (1655-1732) tomonidan kashf etilgan.

Fortepiano uchun “Prelyudiya” yozishga kirishishdan oldin nomlari yuqorida ko‘rsatilgan kompozitorlarning mana shu janrda yozgan asarlarini ko‘rib, o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagi ijod namunalari sizlar uchun foydali bo‘ladi:

- S.Raxmaninov. Prelyudiya do-diez minor op.3 №2
- S.Raxmaninov. Prelyudiya fa-diez minor op.23 №1
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Si-bemol major op.23 №2
- S.Raxmaninov. Prelyudiya re minor op.23 №3
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Re major op.23 №4
- S.Raxmaninov. Prelyudiya sol minor op.23 №5
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Mi-bemol major op.23 №6
- S.Raxmaninov. Prelyudiya do minor op.23 №7
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Lya-bemol major op.23 №8
- S.Raxmaninov. Prelyudiya mi-bemol minor op.23 №9
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Sol-bemol major op.23 №10
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Do major op.32 №1
- S.Raxmaninov. Prelyudiya si-bemol minor op.32 №2
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Mi major op.32 №3
- S.Raxmaninov. Prelyudiya mi minor op.32 №4
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Sol major op.32 №5
- S.Raxmaninov. Prelyudiya fa minor op.32 №6
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Fa major op.32 №7
- S.Raxmaninov. Prelyudiya lya minor op.32 №8
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Lya major op.32 №9
- S.Raxmaninov. Prelyudiya si minor op.32 №10
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Si major op.32 №11
- S.Raxmaninov. Prelyudiya sol-diez minor op.32 №12
- S.Raxmaninov. Prelyudiya Re-bemol major op.32 №13
- F.Shopen. 24 prelyudiya
- A.Skryabin. 24 prelyudiya. or.11

“Fortepiano uchun 2 ta prelyudiya” turkum asar sifatida yoziladi. Odatda, turkumdagi qismlarning har biri mustaqil asar bo‘lib, g‘oyaviy jihatdan birlashadi. Qismlar, o‘z navbatida, har xil xarakterni aks ettirishi kerak. Shunga ko‘ra, 2 ta prelyudiyadan birinchisi sekin sur‘atda bo‘lib, turkumga kirish vazifasini bajarsa, ikkinchi qism tez sur‘atda ifodalanib, turkumga yakun yasaydi.

§ 1. Melodiya (kuy) yozish

Kompozitorlik tafakkurining shakllanishi har qanday tematik matoning asosi hisoblangan kuy ohanggiga borib taqaladi. Musiqaning melodik qirrasini o‘zining ifodaviyligi bilan insoniyatning ma’naviy dunyosini aks ettirib, o‘ziga xos milliy xususiyatlarni ham namoyon etadi.

Sizlar o‘z asarlaringizda kuyning tugallanganligi, kuy tuzilmasining aniq va mantiqiylik hamda ohang yaxlitligiga amal qilishingiz maqsadga muvofiqdir.

Kuyning rivojlanishida ohang harakati ketma-ketligi katta ahamiyatga ega. Harakatning yo‘nalishini belgilash (yuqoriga va pastga yurishlar kuy chizig‘ida to‘lqinsimon harakatni yuzaga keltiradi), harakatni sakrash yoki ravon harakat orqali amalga oshirish, avjga ko‘tarilish va qaytish kabilar kuyning ifodaviyligini ta‘minlaydi.

Kuy tugallangan ifodaviy g‘oya hamda tugallangan ohang obraziga ega bo‘lishi uchun u obrazli g‘oyaviy xotima yasaydigan ibora bilan yakunlanishi kerak. Odatda, kuy tayanch va notayanch ohanglarni umumlashtiradigan davomli tonika bilan yakunlanadi. Ohang hajmi nuqtai nazaridan kuy muayyan tor interval doirasida qolishi yoki bir-ikki oktava oralig‘ida o‘shishi mumkin. Bunday hajmkorlik musiqiy ifoda vositasi bo‘lmish - cholg‘u yoki ovozning imkoniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, buyuk kompozitorlar kuy yaratishga katta e‘tibor qaratganlar. Ular birinchi navbatda xalq ijodiyotini qadrlaganlar. Ayniqsa, vokal asarlarida yuksak hissiy ifodaviylik, kuydagi tuzilmaviy rang-baranglikka erishganlar.

Samimiylilik va haqqoniylik – tugal melodik fikrga xos xususiyatlar bo‘lib, insoniyatning ichki kechinmalarini ifoda etadi. Vokal asarlarning kuyi esa adabiy matnning mazmunini aks ettirishi shart.

Kuy nutq singari tinimsiz davom etmaydi, balki qismlarga bo‘linadi. Kuyning qismlari **tuzilma** deb ataladi. Jumlaning tugash joyi **sezura** bilan belgilanadi. Tuzilmalar musiqiy fikrning tugallanish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Tugallangan musiqiy fikrni ifodalaydigan tuzilma **davriya** deb ataladi.

Davriyaning eng oddiy turi sakkiz taktdan iborat. Davriya ikki qismga ega bo‘lib, ushbu qismlar **jumla** deb ataladi. Jumlaning tugallanish joyi **kadensiya** deb yuritiladi. Davriya o‘zining tugallanish vaqtida ilk tonallikni saqlab qolsa, yakka tonal davriya, tugallanish davrida boshqa tonallik bilan yakunlansa, modulyatsiyalovchi davriya deb ataladi.

Kuy birligi o‘zining ichki tuzilishiga ko‘ra, turli xilga mansub bo‘lishi mumkin. Kuy o‘zining diapazoni, ichki tuzilishi, kuy harakatiga ko‘ra shakllanadi.

* * *

“2 ta prelyudiya” turkumining birinchi qismi uchun kuy yaratishda uning xarakteriga e‘tibor qaratish kerak. Yuqorida belgilab o‘tilganidek, Prelyudiya №1 sokin, lirik-falsafiy xarakterda bo‘ladi. Buning uchun frigiyladini tanlab olib, ushbu ladda kuyning bir necha variantlarini yozamiz:

Variant №1



Variant №2



Variant №3



Variant №4



Frigiy ladida keltirilgan kuyning variantlaridan har biri o‘ziga xos. Variant №1 mi frigiy ladida yozilgan bo‘lib, boshlang‘ich pardaning asta-sekin pog‘onama-pog‘ona ravishda diapazonning yuqoriga tomon kengayishiga asoslanadi. Kuyning ikkinchi yarmida kuy harakati xuddi shu taqlit boshlang‘ich pog‘onaga kelib to‘xtaydi.

Variant №2 ham mi frigiy ladida yozilgan bo‘lib, kuy birdaniga kvinta intervaliga sakrash bilan kuy diapazonining keyinchilik yanada o‘shishiga asoslanadi. Bunday kvarta, kvinta intervaliga sakrashlar kuyda ko‘p uchraydi.

Variant №3 re frigiy ladida yozilgan. Kuyning diapazoni uning birinchi yarmida yuqoriga tomon o‘sadi. Kuyning ikkinchi yarmi esa pastki diapazonda rivojlanib tugaydi.

Variant №4 to‘rtinchi hissada aks etuvchi takt oldidan boshlanadi. Bu esa kuyning xarakteriga xos erkinlik beradi. Re frigiy ladida yozilgan ushbu kuy tarkibida ladning o‘zgarish jarayonini ko‘rish mumkin. Ushbu o‘zgarish re-bemol tovushining paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Bu esa, garmonik rivojlanishga zamin yaratadi. Kuy nomukammal kadensiya, ya‘ni tonikaning kvintaga tushishi bilan yakunlanayotgani ham uning keyinchalik rivojlanishi mumkinligiga poydevor bo‘ladi.

Topshiriq:

Yuqorida keltirilgan to‘rtta variantni har tomonlama tahlil qiling. Variant №4 tematik va garmonik nuqtai nazardan rivojlanishga moyil ekanini hisobga olib, uning asosida turkumning birinchi prelyudiyasini bastalashga kirishing.

§ 2. Faktura. Garmoniya. Ritm

“Faktura” tushunchasi musiqiy bayon, musiqiy tuzilish, musiqiy mato tarkibidagi ovozlarning o‘zaro munosabat turlarini anglatadi. Fakturaning bir necha turlari bor.

Polifonik faktura – musiqiy matodagi ovozlar gorizonttal ravishda mustaqil rivojlanadi:



Gomofon-garmonik faktura – bir kuy mustaqil bo‘lib, qolgan ovozlar garmonik jo‘rlik vazifasini bajaradi:

Frédéric Chopin: Nocturne, Op. 62 No. 2



Geterofonik faktura – kuyning bir necha xonanda tomonidan improvizatsiya qilish vaqtida ovoz (ohang)larning turlicha o‘zgarib ketishi:



Musiqada faktura turlari nihoyatda rang-barangdir. Yuqorida keltirilgan faktura turlari o‘zaro munosabatga kirishib, aralashib ketish hollari ham uchraydi.

Fakturani tanlash asarning mazmuni va janrigagina bog‘liq bo‘lmasdan, balki muayyan cholg‘u yoki vokal ovozning texnik imkoniyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi. To‘g‘ri tanlangan faktura musiqiy matoning tafakkuriga tom ma’noda ifodaviylik baxsh etadi.

* * *

Garmoniya - musiqiy ifoda vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Siz garmoniyaning barcha resurs va imkoniyatlari doirasini yaxshi egallashingiz kerak. Garmoniyaning imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- garmoniya – shakl hosil qiluvchi tarkibiy qism;
- garmoniya – muayyan rang-tasvir ta’siriga ega bo‘lgan kolorit omili.

Musiqa tarixiga oid davr va uslublarni oladigan bo‘lsak, har davrda o‘ziga xos garmonik qarashlar mavjud bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. Klassik davrning garmoniyasi, romantizm davri garmoniyasi, XX asr zamonaviy garmoniyasi kabi tushunchalar bizga yaxshi tanish. Shu bilan bir qatorda, o‘rta asrlarda hali temperatsiyalangan musiqiy soz vujudga kelmagan davrda tonallik tushunchasi mavjud bo‘lmagan. Shunga ko‘ra, xalq musiqi adlari amaliyotdan joy egallagan. Xalq musiqi adlari asosida esa **modal garmoniya**⁵ yotadi. Modal garmoniya hozirgi kunda ifoda vositasi sifatida o‘zining dolzarbligini saqlab qoldi. Ayniqsa, biron-bir xalqning milliy individualligini ko‘rsatish uchun modal garmoniyadan foydalaniladi. Modal garmoniya o‘zbek musiqasi uchun ham muhim ifoda vositasi hisoblanadi.

Prelyudiya №1 uchun tanlab olingan kuy uchun akkordli, ya’ni gomofon-garmonik faktura tanlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunga ko‘ra, unga modal garmonik ohangdoshlardan tuzilgan jo‘rlik yozishga harakat qilamiz:



Garmonik jo‘rlik ritmik ostinato ko‘rinishida aks etib, re frigiyladining xarakterini yoritib beradi. Garmonik mato akkordlar ko‘rinishida emas, balki **modal** garmoniyaga xos ohangdoshlar sifatida aks etadi. Ushbu ohangdoshlar kuyning harakatiga mos ravishda uning mazmun-mohiyatini ochishga tomon rivojlanib boradi. Kuyning yettinchi taktida uchraydigan re-bemol tovushi jo‘r ohangdoshlarda ham o‘z ifodasini topadi.

* * *

⁵ Modal garmoniya haqida o‘qing: И.Мальмберг, А.Хасанов. Модальность в курсе преподавания гармонии и её претворение на основе узбекской монодии. Т., 2007.

Ritm – musiqaning muayyan vaqtda shakllanishidir. Tovushlar va pauzalar ketma-ketligi musiqiy asarning ritmik tuzilishini ifoda etadi. Biron-bir musiqiy asarning ritmi juda rang-barang bo‘lib, hech qachon bir xil kattalikdagi cho‘zimlardan tuzilmaydi. Odatda, turli kattalikdagi cho‘zimlar o‘rtasida vaqt jihatidan o‘zaro munosabatlar paydo bo‘ladi.

Cho‘zimlar va pauzalar o‘zaro birlashib, musiqiy asarning ritmik tasvirini hosil qiladi. Cho‘zimlarning sxematik guruhleri o‘ziga xos ritmoformulalarni shakllantirib, musiqa tarixida muhim hisoblangan turli janr va uslublarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Italyan sistilianasi, ispan bolerosi, polyak polonezi kabi janrlarning ritmoformulalari ijodkorlar va tinglovchilarning keng jamoalari tomonidan tan olingan va umumjahon madaniy qadriyatiga aylangan.

Musiqiy matoni bayon etishda ritmik iboralar rang-barangligiga erishishni maqsad qilib olish katta ahamiyatga ega. Bunda oddiydan tortib, tuzilish jihatidan yanada murakkab bo‘lgan ritmik tuzilmalarni ishlatish maqsadga muvofiq. Quyida musiqiy-tematik matoning ritmik shakllanishiga doir misollarni ko‘rish mumkin:

Molto tranquillo B. Bartok.

Moderato scherzando S. Prokof'ev. Romeo va Juletta

Poco allegretto I. Brams. Simfoniya №3, III qism

Ijodda ritmik tasavvurni oshirish uchun aynan ritmik tasvirning rang-barangligiga xizmat qiluvchi kichik hajmda bir qator asarlarni yozish samara beradi.

§ 3. Oddiy ikki qisimli shaklning ekspozitsion qismini yozish

“Prelyudiya №1” ni oddiy ikki qisimli reprizali shaklda yozishni rejalashtiramiz. Ikkita davriyadan tashkil topgan shakl **oddiy ikki qisimli shakl**

deyiladi. Davriyaning jumllaridan biri ikkinchi qismda takrorlanadigan bo'lsa, tuzilma oddiy ikki qisimli reprizali shaklga aylanadi. Shakl quyidagicha sxemaga ega bo'ladi:

Oddiy ikki qisimli reprizali shakl			
I-qism		II-qism	
davriya		davriya	
1-jumla	2-jumla	o'rtaliq	2-jumla repriza

Shaklda ekspozitsion yoki rivojlov qismining vazifasi ko'p hollarda kuy, garmoniya va fakturaga xos xususiyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday xususiyatlar musiqiy matoning bayon turini tashkil etadi.

Musiqiy matoning ekspozitsion bayon turiga xos xususiyatlar – xarakterning turg'unligi, vositalarni tejab ishlatish, tematik yaxlitlik, tonal yaxlitlikdan iborat bo'ladi.

Yuqorida garmoniya xususida fikrlashib, kuy uchun garmonik jo'rluk yozgan edik:

Andante

Oddiy ikki qisimli shaklning birinchi qismi ekspozitsion ravishda bayon etiladigan ikki jumla davriya bo'ladi. Davriyaning ikkala jumlasini bir-biriga o'xshash bo'lishi asosiy xususiyat hisoblanadi. Jumalarning kuy qatlamida bir oz o'zgarish bo'lgan taqdirda, ritmning yaxlitligi ularni birlashtirib turadi. Shunga ko'ra, ikkala jumlaning melodik qatlami barqaror bo'ladi. Binobarin, davriyada musiqiy fikrning haddan ziyod teranlashuvi davriyaning chegarasidan chiqib ketishni taqozo etadi.

Garmonik jihatdan oddiy shaklning birinchi davriyasi yakka tonal bo'lish bilan birga, modulyastiyalovchi bo'lishi ham mumkin. Klassik garmoniyaga asoslangan davriyalar uzoq tonalliklarga modulyastiya qilmaydi. Ammo modal garmoniyaga asoslangan musiqiy matoda turli garmonik munosabatlar yuz berishi mumkin.

Jumalarning hajmi asarning umumiy tuzilishiga bog'liq. Bunda ikkala davriyaning ham bir xil hajmga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega. Zero, musiqiy fikrning mukammalligida qismlar orasidagi proporsiya muhim rol o'ynaydi.

Davriyaning ikkinchi jumlasini yozishga harakat qilamiz:

Melodik-garmonik matoda quyidagilar namoyon bo‘ladi:

- kuy avjga tomon harakatlanadi, natijada diapazon nona intervaligacha o‘sadi;

- garmonik ohangdoshlar beshinchi taktda si-bemol major, oltinchi taktda lya-bemol major ladiga o‘tganini ko‘rish mumkin. Bunday o‘zgarishlar asarning lad nuqtai nazaridan rivojlanishiga rang-baranglik olib kiradi;

- kadenstiya turg‘un emas, balki dominantaga kelib to‘xtagan. Bunday holat asarning rivojlanishiga uzluksiz harakat berishi mumkin.

Kuyning birinchi va ikkinchi jumlasini qo‘shib tahlil qilganda, davriya yuzaga kelganini ko‘rish qiyin emas. Oddiy shakllarning birinchi qismi esa, odatda, davriya shaklida ifodalanadi. Demak, oddiy ikki qisimli reprizali shaklda yozilayotgan “Prelyudiya”ning birinchi qismini yaratib bo‘ldik.

§ 4. Oddiy ikki qisimli shaklning o‘rta qismini yozish


Oddiy shaklning o‘rta qismi tematik jihatdan musiqiy matoga o‘ziga xos tafovut (kontrast) olib kiradi. Bunday tafovut matoga nisbatan yangi melodik-ritmik matoni olib kirish orqali sodir bo‘ladi.

Garmonik jihatdan o‘rta qism noturg‘un xarakterga ega. Noturg‘unlik, odatda, tonallikning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Bunday hollarda o‘rtaliq butunlay yondosh tonallikda yoki bir-biri bilan almashinuvchi bir necha yondosh tonalliklarda o‘tadi.

O‘rta qismning asosiy tonallikda namoyon bo‘ladigan o‘rtaliq kadensiya bilan yakunlanishi esa odatiy hol. Binobarin, ushbu dominantaga reprizaga kirish vazifasini bajaradi.

Tuzilish jihatidan o‘rta qism davriyaning yarmiga teng bo‘ladi. Unda birinchi qismga tegishli bo‘lgan elementlarning rivojlanishi kuzatiladi.

Endi ikkinchi qismni yozishga o‘tamiz:



Prelyudiyaning ikkinchi qismida kuy yo‘li quyi registrga o‘tgan. Musiqiy tembrlar nuqtai nazaridan fikrlaganda, uni huddiki violonchel ijrosida yangrayotgan kuy, deb tasavvur qilish mumkin. Umuman olganda, har bir kuy yo‘lini uning qaysi registrda yangrashidan qat’iy nazar biron-bir musiqiy cholg‘uning partiyasi sifatida qabul qilishni o‘rganish kelajakda cholg‘ulashtirish sohasida katta samara beradi.

Quyi registrda ifodalanayotgan kuy harakati garmoniya bilan birga mi-bemol minor, re-bemol minor, do minor kabi ladlar bo‘ylab yurib rivojlanadi va re minor ladining dominantasiga keladi. Bunday uzoq tonalliklar bilan bo‘lgan garmonik munosabatda badiiy obrazga xos teranlik va falsafiylik sifatlarining aks etishini ko‘rish mumkin. Ijod sohasida insonga xos chuqur fikrlash, mushohada qilish xarakterini garmonik munosabatlarda ham aks ettirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, ushbu matoda uch ovozlik holati paydo bo‘lgan. Quyi registrda rivojlanayotgan kuy, o‘rta registrda ifodalanayotgan garmonik ohangdoshlar bilan birgalikda, yuqori ovozda butun cho‘zimlarda aks etgan qatlamni ham ko‘rish mumkin. Bu qatlamni garmonik qatlamga mansub desa ham bo‘ladi. Ammo, ijro vaqtida uning tembrini biron-bir damli cholg‘u sifatida tasavvur qilsak, asarning yangrashiga yanada rang-baranglik olib kirgan bo‘lamiz.

§ 5. Oddiy ikki qismli shaklning repriza qismini yozish

Ikkinchi davriyaning ikkinchi qismi umumiy shaklga yakun yasab, birinchi davriyadagi jumalardan birining aniq yoki o‘zgargan takrorini aks ettiradi va u **repriza** deb ataladi. O‘rta qism orqali shaklga kirgan tafovutdan so‘ng repriza shaklni mavzuviy jihatdan umumlashtiradi va yakunlaydi.

Mavzu nuqtai nazaridan reprizada birinchi davriyadagi qismlarning biri bilan melodik-ritmik o‘xshashlik kuzatiladi. Odatda, birinchi davriyadagi jumalardan biri aynan yoki bir oz variastiyalangan holda takrorlanadi. Ko‘p hollarda ikkinchi jumla takrorlanadi.

Gohida birinchi davriyaning musiqiy matosi shu qadar qayta ishlanadiki, uning takrorlanishi nisbiy xarakterga ega bo‘ladi.

Garmonik nuqtai nazardan birinchi davriyadagi jumlalardan biri reprizada asosiy tonallikka bo‘ysunishi kerak bo‘ladi.

Tuzilish nuqtai nazaridan repriza birinchi davriyadagi jumlalardan biriga mos keladi. Aksariyat hollarda esa, ko‘plab shakllarning yakuniy qismlari singari bir oz kengayishi kuzatiladi. O‘zining mantiqiy vazniga asosan ichki ko‘lami o‘sadi va yakunlanish jarayoni cho‘ziladi.

Endigi navbat oddiy ikki qismli shaklning reprizasiga:

Repriza “Prelyudiya”ning birinchi qismidan joy egallagan davriyaning ikkinchi jumlasini takrorlaydi. Unda kuy yo‘lida unchalik katta ahamiyatga ega bo‘lmagan kichik o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Va eng muhimi, ushbu repriza “Prelyudiya”ni yakunlashga qaratilgan vazifani ado etadi. Shunga ko‘ra, kuy ladning asosiy tovushiga kelib to‘xtaydi va turg‘un kadenstiyani hosil qiladi. Garmonik qatlam ham shunga bo‘ysunadi.

Reprizaning musiqiy matosi, asosan, ikki qatlamlikni tashkil etadi. Biroq asarning oxirida mato uch ovozga bo‘linadi. Ya‘ni, unda bas ovozi paydo bo‘ladi. Bu esa, asarning musiqiy-estetik jihatdan to‘g‘ri yakunlanishi uchun xizmat qiladi.

Asar shaklan o‘z nihosiga yetganidan so‘ng uni ko‘p marta chalib ko‘rish kerak. Negaki, ijro vaqtida e‘tibordan chetda qolgan muhim jihatlar ko‘zga tashlanadi. Bunday kamchiliklar musiqaning barcha elementlari (kuy, garmoniya, ritm)ga tegishli bo‘lishi mumkin. Shu vaqtning o‘zida kamchiliklarni bartaraf etish lozim. Bir ko‘rishda risoladagidek ko‘ringan tugal asarni bir-ikki kundan keyin yana sinchiklab chalib, tekshirib ko‘rish tavsiya etiladi.

Endigi navbatda asarni musiqiy tahrir qilishga o‘tamiz.

Asarning badiiy barkamolligiga erishish uchun unga shtrixlar, dinamika, shartli belgilar va atamalarni e‘tibor bilan qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Shunga ko‘ra, Prelyudiya №1⁶ quyidagi holatga keladi:

⁶Ushbu Prelyudiya O‘zbekiston davlat konservatoriyasi talabasi Kamola Akbarova tomonidan ustози - bastakor O.Abdullayeva rahbarligida bastalangan.

Prelyudiya №1

Kamola Akbarova

Andante

The musical score is written for piano in a key signature of two flats (B-flat and E-flat) and a common time signature (C). It consists of seven systems of two staves each. The first system includes the markings *p* and *cantabile*. The second system includes the marking *sempre*. The fifth system includes the marking *mp*. The sixth system includes the marking *mp*. The seventh system includes the marking *p*. The score features a variety of rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. There are several slurs and phrasing marks throughout. A triplet of eighth notes is marked with a '3' in the sixth system. The piece concludes with a final cadence in the seventh system.

Melodiya (Prelyudiya №2)

Turkumdagi “Prelyudiya №2”ni yozishga kirishamiz. Asar tez va shiddatli yangraydigan xarakterda bo‘lishi kerak. Buning uchun siz bir necha mavzu yozib ko‘rishingiz shart:


Variant №1

Allegro



Variant №2

Allegro



Variant №3

Allegro




Variant №4

Allegro



1-3 variantlarda keltirilgan kuylar sho‘x va harakatchan bo‘lib, o‘zbekona milliy koloritda yozilgan. Bu kuylar diatonik laddlarda o‘z ifodasini topgan. “Variant №4”da berilgan kuy esa o‘ziga xos ladda yozilgan. Ikkita turli tetraxorddan tashkil topgan lad quyidagicha aks etadi:



Turkumga kiradigan birinchi prelyudiyaning mavzuida ham alterastiya o‘zgarishlariga uchraydigan tovushlarni ko‘rish mumkin edi. Shunga ko‘ra, birinchi prelyudiyaning o‘rta qismi uzoq tonalliklar bo‘ylab rivojlangan edi. Ikkinchi prelyudiyaning musiqiy tilini birinchi prelyudiyaga xos ravishda tanlash maqsadga muvofiqdir. Shu bois, turkumning ikkinchi qismi uchun “variant №4”ni tanlaymiz.

Faktura. Garmoniya. Ritm

“Preludiya №1” asarini yaratishda yuqorida musiqaning asosiy elementlari bo‘lgan - faktura, garmoniya va ritm xususida batafsil ma’lumot berilgan edi. Shunga ko‘ra, “Preludiya №2” uchun tanlab olingan kuyning “variant №4” ga xos faktura, garmoniya va ritm tanlash kerak bo‘ladi. Bunday izlanish borasidagi mulohazalarni pedagog rahbarligida amamlga oshirish maqsadga muvofiq.

Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish

Preludiya №2 ning kuyiga jo‘rlik tuzishga kirishamiz:

Allegro

The image shows a musical score for Preludiya №2, marked 'Allegro'. It consists of three systems of music, each with a treble and bass staff. The first system has three measures. The second system has three measures. The third system has two measures. The music is written in a key with one flat (B-flat) and a 6/8 time signature. The bass line is characterized by a steady eighth-note accompaniment.

Preludiyaning tez sur‘atda ifodalanishini hisobga olgan holda garmonik ohangdoshlar kuchli hissalarida namoyon bo‘layapti. Ohangdoshlarning sekunda, kvarta intervallaridan tuzilishi - kuy ladining modal xususiyatini aks ettiradi.

Kuy uchun yozilgan jo‘rlik ijro uchun qulay bo‘lishi kerak. Binobarin, fortepiano uchun asar yozishda **pianizm** qonuniyatlarini nazarda tutish shart.

Kuyning ikkinchi jumlasini yozamiz. Uni jo‘rlik bilan birgalikda yozish mumkin. Bunda rang-barang ohangdoshlarni ishlatish orqali kuyni yanada rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ladi:

(Allegro)

Kuyning ikkinchi jumlasida fakturaviy rivojlanishlarning paydo bo‘lganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, ladning bir necha bor o‘zgarishi ham kuzatiladi. Davriyaning uchinchi jumlasini yozishga harakat qilamiz:

(Allegro)

Uchinchi jumla ham faktura jihatidan qiziqarli hisoblanadi. O‘ng qo‘lda ifodalanayotgan 1-2 taktlardagi kuyning 3-4 taktlarda chap qo‘lga o‘tishi, 5-6 taktlarda o‘ng qo‘lga, 7-8 taktlarda esa yana chap qo‘lga o‘tishi mavzuning turli registrlarda rivojlanishi va shu taqlit stereofonik holatda musiqiy mato bo‘ylab kezib yurishi fakturani yanada rang-baranglashtirgan.

Ikkinchi prelyudiya oddiy **ikki qismli reprizali shakl**da bo‘lishi nazarda tutilmoqda. Oddiy shaklning birinchi qismi **uch jumlati davriya** sifatida yozildi.

Oddiy shaklning o‘rta qismini yozish

Endigi navbat asarning o‘rtaliq qismiga:

(Allegro)



Bu yerda musiqiy matoning fa minor, si-bemol minor, lya minor, sol minor ladlariga o‘tganini ko‘rish mumkin. Fakturada ham kuy yo‘lining o‘ng qo‘ldan chap qo‘lga o‘tishi va yana qaytish hollari kuzatiladi.

Dramaturgik jihatdan musiqiy mato ko‘tarinki ruh kasb etgan. Ya’ni, diapazon yuqoriga tomon o‘sgan. Pianizm nuqtai nazaridan mato fortepianoni keng qamrab olgan bo‘lib, ijrochi o‘zining mahoratini to‘liq namoyish etishiga imkoniyat paydo bo‘ladi.

Garmonik jihatdan ohangdoshlar kvarta-kvinta shaklida ifoda etiladi. Vertikal va gorizontol holat modallik printsipiga asoslangan.

Oddiy shaklning repriza qismini yozish

Preljudiyaning reprizasini yozamiz:



Reprizaning asardagi vazifasi o‘ziga xos. Odatda, ijodiy yo‘lning boshida turgan talaba reprizaga oddiyroq qarab, uni faqat qaytarish sifatida asarning oxirgi qismiga joylashtiradi. Ijodiy tajribasi yuqori darajada bo‘lgan talabalar esa, reprizani asarning dramaturgiyasiga ko‘ra o‘zgacha baholaydilar. Xususan, “Preljudiya № 2”da repriza asarga xotima (koda) sifatida yangraydi. Shuning uchun ushbu repriza yuqori registrda o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, uni asarning avji sifatida qabul qilish ham mumkin.

“Prelyudiya № 2”ni yozish shaklan o‘z nihoyasiga yetganidan so‘ng, uni musiqiy tahrir qilish ishlari boshlanadi. Unga shartli belgilar, dinamika va shtrixlar qo‘yish zarur bo‘ladi. Musiqiy tahrir natijasida “Prelyudiya № 2” quyidagi ko‘rinishga keladi:

Prelyudiya №2

Kamola Akbarova

Allegro

The musical score for "Prelyudiya №2" is presented in seven systems, each consisting of a treble and bass staff. The tempo is marked "Allegro". The first system begins with a mezzo-piano (*mp*) dynamic. The second system features a mezzo-forte (*mf*) dynamic. The third system is marked forte (*f*). The fourth system returns to mezzo-forte (*mf*). The fifth system is marked forte (*f*). The sixth system is marked mezzo-forte (*mf*). The seventh system is also marked mezzo-forte (*mf*). The score includes various musical notations such as notes, rests, and dynamic markings.

First system of musical notation, consisting of a treble and bass clef staff. The treble staff contains chords and eighth notes, while the bass staff contains a steady eighth-note accompaniment.

Second system of musical notation. The treble staff features chords and eighth notes. The bass staff includes a dynamic marking of *mf* (mezzo-forte) and continues with eighth-note accompaniment.

Third system of musical notation. The treble staff has chords and eighth notes. The bass staff features a dynamic marking of *f* (forte) and continues with eighth-note accompaniment.

Fourth system of musical notation. The treble staff contains eighth-note runs and chords. The bass staff continues with eighth-note accompaniment.

Fifth system of musical notation. The treble staff features eighth-note runs and chords. The bass staff continues with eighth-note accompaniment.

Sixth system of musical notation. The treble staff contains eighth-note runs and chords. The bass staff continues with eighth-note accompaniment.

Seventh system of musical notation. The treble staff has chords and eighth notes. The bass staff includes a dynamic marking of *mf* (mezzo-forte) and continues with eighth-note accompaniment.

Eighth system of musical notation. The treble staff features chords and eighth notes. The bass staff includes a dynamic marking of *ff* (fortissimo) and continues with eighth-note accompaniment.



Izoh: Turkumli asarlar yaratayotganda qismlarning yangrash vaqti (daqiqqa va soniyalar) asarlarning sur'ati va taktlar soni turlicha bo'lishidan kelib chiqib, imkon qadar teng bo'lishi yaratuvchilikning mantiqiy omillaridan biri ekanligini hech qachon unutmaslik kerak.

Savollar:

- 1) Davriya nima?
- 2) Oddiy ikki qismli shaklni tushuntiring.
- 3) Oddiy uch qismli shaklni tushuntiring.
- 4) Asarni musiqiy tahrir qilish deganda nimani tushunasiz?

Ijodiy topshiriq:

Turli xarakterda fortepiano uchun "2 ta Prellyudiya" yarating.

Tahlil uchun topshiriq:

D.Shostakovich. "24 prelyudiya" turkumidan №2, 5.

Tayanch iboralar: *obraz, ohang hajmi, tuzilma, modal garmoniya, pianizm.*

16-DARS: Asarning ijrosini tayyorlash

Musiqiy asarni yaratish jarayonida bastakor aksariyat hollarda, asarning tuzilishi, shakl, musiqiy ifoda vositalarining qo'llanilishi bilan badiiy g'oyaning tugal ifoda topishiga e'tibor qaratadi. Biroq, talaba u yoki bu musiqiy cholg'uni yetarli egallamagani, yoxud chala olmagan tufayli musiqiy matoning ijro uchun noqulay bo'lishi mumkinligi haqida o'ylamaydi. Natijada, asar tayyor bo'lgandan so'ng u haqiqiy cholg'u ijrochisi tomonidan tanqidiy ravishda qarshi olinadi.

Har bir cholg'u ijrochisi o'zining ko'p yillik ijrochilik tajribasiga suyanagan holda, asar musiqiy matosidagi applikator, shtrixlar, pozitsiyalar xususida bastakorga o'z maslahatlarini beradi, albatta. Shu bois, yoshidan qat'iy nazar, har bir bastakor agar u tanlangan cholg'u bo'yicha yetarli ijro tajribasiga ega bo'lmasa, haqiqiy mutaxassis ijrochi bilan yaqin ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishi lozim.

Musiqiy asarning tayyor bo'lgan qismlarini ijrochiga oldindan ko'rsatib, chaldirib ko'rib, uning maslahatlariga quloq tutib asar yozish katta samara beradi. Shunday hamkorlik natijasida, ushbu asarning ijrochilik umri uzoq bo'ladi va ijrochilar doirasi yillar sayin kengayib boraveradi.

* * *

Yangi asarning ilk ijrosi ustida ishlash jarayonida bastakor ijrochilarga nisbatan o'ta madaniyatli va xushmuomala bo'lishi talab etiladi. U yoki bu holatda asar yangrashini istagan bastakor o'z fikrini aniq va ravon tilda, fortepianoda chalib ko'rsatish yoki xirgoyi qilib kuylash orqali tushuntirishi mumkin. Tushuntirish chog'ida jahon hamda o'zbek kompozitorlarining asarlari ijrosidan namunalar, o'xshatmalar keltirish maqsadga muvofiq bo'lib, bunday usul bastakor va ijrochi o'rtasida to'g'ri munosabatni yo'lga qo'yish, keyinchalik esa, ishonch hissining qaror topishiga yordam beradi.

Asarni sinfda bir necha bor ijro etib o'rgangandan so'ng, uni zal yoki asar namoyishi o'tadigan auditoriyada ham bir-ikki bor chalib ko'rish foydalidir. Chunki, kontsert yoki tinglov vaqtida ijrochi o'zini yaxshi his etadi va asarning sifatli ijrosi ta'minlanadi. Shu bilan birga, tanlangan zaldagi fortepiano cholg'usi bilan yaqindan tanishish, uni to'g'ri his etish ham ijrochi uchun muhimdir.

Topshiriq:

D.Shostakovichning op.34 "24 prelyudiya" turkumidan № 3 va № 6 ni tahlil qiling.

17-18 DARSLAR: 1-semestr oraliq nazorati uchun ijodiy dasturni sahnada tayyorlash va topshirish

O'quv yilining 9-haftasi mobaynida Oraliq nazorat (ON) dasturiga kiritilgan fortepiano uchun "2 ta Prelyudiya" turkumini tugal variantda, jonli ijroda sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Asaringizning ijro darajasi unga berilgan bahoga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ijrochi bilan bo'lgan tayyorgarlik jarayoniga nisbatan katta mas'uliyat bildirishingiz muhim. Mazkur asarni o'zingiz ijro etishingiz mumkin. Bu holda, siz ijodiy mahorat bilan bir qatorda, ijrochilik tajribangizni ham namoyish etib, komissiyaning yuqori darajadagi e'tiboriga sazovor bo'lasiz. Binobarin, bastakor o'z asarini mohirona ijro eta bilishi katta ahmiyatga ega.

Yaratgan asaringiz ijobiy baholangandagina siz semestrning Yakuniy nazorati (YaN) dasturlarini xotirjamlik bilan o'rganishga kirishasiz. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtoqlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

19-22 DARSLAR: Violonchel (yakka cholg‘u) uchun solo yaratish. Melodiya. Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish

“Solo” so‘zi italyan tilida “yakka” ma’nosini bildirib, butun musiqiy asarni yakka cholg‘u (yoki yakka ovoz)da ijro etishni bildiradi. Yakka cholg‘u uchun yaratilgan musiqiy asar ham “solo” deb atalishi mumkin. Barokko⁷ va klassitsizm⁸ davrida yakka skripka, yakka fleyta kabi cholg‘ularga kichik asarlardan tortib, to yirik shaklda asarlar yozish an’anasi mavjud bo‘lgan. Shunga ko‘ra, o‘sha davrda yakka cholg‘ular uchun yaratilgan ko‘plab sonatalarni ko‘rish mumkin.

Odatda, yakka cholg‘u uchun asar yozishda cholg‘uning barcha ifodaviy imkoniyatlaridan foydalaniladi. Jo‘rlik sifatida hamroh bo‘luvchi cholg‘uning yo‘qligi sababli yakka cholg‘u partiyasining o‘zida ham melodik, ham garmonik matoning bekamu ko‘st aks etishi muhim talablardan hisoblanadi.

Violonchel – torli-kamonli cholg‘u bo‘lib, XVI asrdan buyon musiqa san’atida muhim o‘rin egallab keladi. Violonchelning ifodaviy imkoniyatlari keng, o‘ziga xos ijro texnikasiga ega. Violonchel o‘zining xarakteriga ko‘ra, inson ovozigacha yaqin turadi. Shu bois, ushbu cholg‘uga atab yaratilgan asarlar inson qalbini ifodalovchi his-tuyg‘u, o‘ychanlik, teranlik, falsafiy mushohada kabi qirralarni aks ettiradi. Violonchelning ovoz hajmi katta oktavadagi “do” tovushidan uchinchi oktavadagi “mi” tovushigacha bo‘lgan oraliqda harakatlanib, aksariyat hollarda inson ovozigacha yaqin turadigan registrlarni o‘z ichiga oladi.

Violonchel cholg‘usida turli xil interval, uchtovushlik va to‘rt tovushlik akkordlarni ijro etish mumkin. Akkordlarning ijrochi uchun qulay bo‘lishi esa katta ahamiyatga ega. Binobarin, torli cholg‘u ijrochilari uchun chap qo‘l barmoqlarini to‘g‘ri ishlatish muhim hisoblanadi. Shunga ko‘ra, torli cholg‘u uchun asar yaratayotgan bastakor ham applikator borasida muayyan bilimlarga ega bo‘lishi shart. Ularni siz “Cholg‘ushunoslik” fanini o‘tganingizda o‘rgangansiz, albatta.

Violonchel cholg‘usida bir necha xil temblarni ifodalash va tovush taratish imkoniyati borligini yana bir bor eslaylik:

- **pizzicato** – barmoq bilan chertish. Pizzicatoning ikki turi mavjud:

A) **pizz.** - o‘ng qo‘l barmog‘i bilan amalga oshiriladi;

B) “+” (plyus) belgisi notaning ustida qo‘yiladi va pizzicato chap qo‘l barmog‘i bilan amalga oshiriladi.

- **col legno** – kamoning taxta qismi bilan chalinadi.

- **flajolet** – ijro usuli. Uning ikki turi mavjud: tabiiy va sun’iy.

- **ordinare** – odatiy yo‘sinda chalish.

- **arco** – kamon bilan chalish.

- **con sordino** - surdina taqib chalish;

- **senza sordino** – surdina ishlatmay chalish.

* * *

Yakka cholg‘u uchun asar yozishning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Bu sohada musiqiy ifoda vositalari tomonidan bajariladigan barcha vazifalar ushbu

⁷Barokko davri haqida o‘qing.

⁸Klassitsizm davri haqida o‘qing.

cholgʻuning zimmasida boʻladi. Shuning uchun, shakl hosil qiluvchi tarkibiy qismlar, kuy, garmoniya, ritm kabi ifoda vositalari, turli obrazlarni aks ettiruvchi partiyalar hamda ularning rivojlanish prinsiplari musiqiy matodan oʻrin egallaydi.

Yakka cholgʻuning imkoniyatlari keng. Shu bois ham, asarga ikkita turli xarakterga ega boʻlgan obrazni kiritamiz. Birinchi obraz – dramatik shiddatli, olgʻa intiluvchi obraz:

Rubato

Koʻrib turganingizdek, bu obraz turli xil ifodaviy elementlarni oʻz ichiga olgan: akkordlar, oʻlchovning oʻzgarishi, xilma-xil choʻzimlarning mavjud boʻlishi ushbu obrazning kuch-qudratini belgilaydi.

Ikkinchi obraz – lirik xarakterda boʻlib, yigʻi holatini eslatadi:

(Rubato)

Ikkinchi obraz oʻzining xarakteriga koʻra bir ovozli koʻrinishda aks etib, mavzu bor yoʻgʻi uchta tovushda qurilgan. Undagi forshlaglar oʻzbek xalq musiqasiga xos boʻlgan melizmlarni ifoda etadi va ijrochidan ham alohida eʼtibor talab qiladi.

Asarning ekspozitsion qismi oʻziga xos ravishda ikki mavzuli boʻlib shakllanayapti. Endigi navbatda musiqiy matoni rivojlantiramiz:

(Rubato)

Ko‘rib turganingizdek, birinchi obraz o‘zining avvalgi salmog‘ini saqlab qoldi. Ikkinchi obraz esa, diapazon jihatidan bir oz yuqoriga tomon o‘ydi. Obrazlarning keyingi rivoji ham quyidagicha:



Birinchi obraz o‘zining kuch-qudratini namoyish etishda davom etib, murosasiz xarakterni ifodalayapti. Ikkinchi obraz, ushbu jarayonga murosali yechim olib kiryapti.

Dramaturgiya nuqtai nazaridan ikki turli obrazning bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi xali oldinda muayyan kurashlarning bor ekanligidan darak beradi. Shu bois, ekspozitsiyadan keyin keladigan epizodning musiqiy matoga kirib kelishi oldidan uch taktli bog‘lovchi qism bor. Ushbu bog‘lovchi qism ekspozitsiya va undan keyin keladigan epizodni bir-biridan ajratib turadi:



Epizod – asarning lirik markazini tashkil etadi. U ekspozitsiyadagi ikkinchi obrazning mustaqil rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu epizod o‘zbek milliy musiqiy merosi hisoblangan “Shashmaqom” turkumining saraxborlari xarakterida bo‘lib, vazmin va kuychan ifodalanadi. Musiqiy matoning rivojlanish jarayonida ladning bir necha marta o‘zgarishi kuzatiladi. Kuy yo‘liga jo‘r bo‘luvchi **pizzicato** yakka cholg‘uga hamroh bo‘ladigan yana bir cholg‘u tasvirini beradi. Pitssikaton chalish ijrochiga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Negaki, pitssikato violonchelning ochiq torlarida amalga oshiriladi.

Epizod o‘zining rivojlanishi jarayonida lirik-dramatik xarakterga kirib, ikkinchi obrazni ehtirosli, jo‘shqin ohanglarda namoyon etadi. Ya’ni, unda birinchi obrazga xos quyuq akkordlar paydo bo‘ladi. Rivojlanish jarayoniga kirib kelgan akkordlar musiqiy matoning garmonik rivoji uchun xizmat qiladi.

Epizodning yakunlanishi chog‘ida akkordlar asta-sekinlik bilan yo‘qolib, musiqiy mato o‘zining avvalgi lirik xarakteriga qaytadi, shundan so‘ng ekspozitsion qismdan keyin paydo bo‘lgan bog‘lovchi qism yana bir bor namoyon bo‘ladi:

Savollar:

- 1) “Solo” so‘zi nimani anglatadi?
- 2) Violonchel qanday cholg‘ular guruhiga mansub?
- 3) Barokko tushunchasi nimani anglatadi?
- 4) Klatsisizm tushunchasi nimani anglatadi?
- 5) Violonchel cholg‘usining ijro imkoniyatlari nimalardan iborat?
- 6) Violonchel cholg‘usi uchun jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan mashhur asarlar qaysi? Ularning mashhurligiga sabab nima?

Ijodiy topshiriqlar:

- 1) Yakka violonchel ijrosi uchun musiqiy asarga 3 ta mavzu yozing.
- 2) Asarning ekspozitsion qismini yozing.

Tayanch iboralar: *solo, kamon, surdina, melizm.*

23-30 DARSLAR: Oddiy shaklning o‘rta qismini yozish

Asarning o‘rta qismini yozishga kirishamiz.

O‘rta qism Allegro sur‘atida ketadi. Birinchi obraz ekspozitsion qismda Rubato sur‘atida erkin ravishda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, endilikda uning shiddati yanada oshib ketadi.

U uchta bo‘limdan iborat bo‘ladi. O‘rta qismning ilk bo‘limi birinchi obrazning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu dramatik obraz o‘zining butun bo‘y-bastini namoyon etib, shiddatkor xarakter doirasida rivojlanadi:

Allegro

ff

fff

Keyingi bo‘lim – ikki qatlamli musiqiy matoni gavdalantiradi. Birinchi qatlam – katta oktavadagi o‘n oltitalik cho‘zimlar bilan ifodalanadigan figuratsiya bo‘lsa, ikkinchi qatlam – kichik oktavada aks etadigan melodik matodir. Ushbu jarayon asarning ekspozitsion qismini yodga soladi.

Ushbu bo‘lim garmonik hamda melodik jihatdan intensiv ravishda rivojlanadi. Rivojlanish jarayonida ovoz hajmining yuqoriga tomon o‘shishini kuzatamiz. Musiqiy matoda nafaqat asosiy dramatik obrazga xos bo‘lgan qirralar, balki ikkinchi lirik obrazga xos elementlar ham o‘rin egallaydi. Buni forshlag vositasida aks etadigan musiqiy iboralarning namoyon bo‘lishida ko‘rish mumkin:

(Allegro)

p

mp

p

mp

p

mp


p

mp

Musical score for five staves in bass clef, 6/8 time signature. The score features various dynamics including *p*, *mp*, and *mf*, and includes slurs and accents.

Uchinchi bo‘lim esa, bevosita avjga tomon etaklaydigan va avjni hosil qiladigan bo‘lim hisoblanadi. Unda musiqiy mato melodik-garmonik jihatdan rivojlanadi. Musiqiy matoda yashirin polifonik yo‘lni ko‘rish mumkin. Bu yo‘l intervallardagi quyi tovushning garmonik o‘zgarishi bilan belgilanadi. 6/8 o‘lchov sharoitida duollarning paydo bo‘lishi ham dramatik jarayonning xarakterini kuchaytiradi. Musiqiy matoning avjga tomon harakatlanishida sekvension yurishlarning paydo bo‘lishi avj nuqtasini yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, yuqori pog‘onalarga erishishda glissando ijro imkoniyatining ishlatilishi ham musiqiy matoga o‘ziga xos bo‘yoq beradi:

Musical score for four staves in bass clef, 6/8 time signature, marked **(Allegro)**. The score includes dynamics *mf* and *f*, and features slurs, accents, and double bar lines.



Savollar:

- 1) Torli cholg'ular uchun yozilgan akkordlarning qulay bo'lishida nimalar muhim hisoblanadi?
- 2) Applikatura nima?
- 3) Figuratsiya nima?
- 4) Forshlag nima? Uning turlari qanday?
- 5) Musiqiy ibora deganda nimani tushunasiz?
- 6) Duol nima?
- 7) Sekventsion yurish deganda nimani tushunasiz?
- 8) Glissando nima?

Ijodiy topshiriq:

Asarning o'rta qismini yozing.

Tayanch iboralar: *garmonik o'zgarish, polifonik yo'l, avj, sekventsion yurish.*

31-32-DARSLAR: Oddiy shaklning reprizasini yozish

Asarning repriza qismini yozishga kirishamiz.

Reprizaning musiqiy dramaturgiyadagi vazifasi – kuchli dramatik mojarodan so'ng asarga xotima yasashdan iboratdir. Xotima odatda, qisqa bo'ladi.

Rubato sur'atida ifodalangan reprizada dramatik obraz avvalgidek qudratli emas, balki ushbu qudratning aks-sadosi sifatida **pitssikato** orqali yangraydi. Har doimgidek unga hamroh bo'lgan lirik obraz o'ziga xos yig'i xarakterida namoyon bo'ladi. Repriza davomida dramatik obraz yana bir bor o'zini ko'rsatadi-yu, asarni yakunlashni lirik obrazga topshiradi. Asarning so'nggi ohanggi flajolet vositasida o'z ifodasini topadi:

Rubato

pizz.
p
arco
p
f
p
pp
ppp

Yakka violonchel uchun solo o‘zining shakli va xarakteriga ko‘ra **fantaziya** janriga mos bo‘ldi. Shu bois, asarni “Fantaziya” deb nomlaymiz.

“Fantaziya”ni yozish shaklan o‘z nihoyasiga yetganidan so‘ng, musiqiy tahrir qilish ishlari boshlanadi. Unga shartli belgilar, dinamika va shtrixlar qo‘yish zarur bo‘ladi.

Torli-kamonli cholg‘ular uchun yaratilgan asarlarni tahrir qilish ishlari bir muncha chuqur kechadi. Bu cholg‘ularning ijrosi aynan kamon vositasida amalga oshirilishi bois, musiqiy matoga kamoning harakatlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan shtrix (legato, staccato, markato, detashe va b.)larni qo‘yish zarur. Bunda, kamoning pastga yoki tepaga tomon yo‘nalishida katta farq bor ekanligini bilish muhim hisoblanadi. Shunga ko‘ra, musiqiy matoga shtrixlarni qo‘yishda taktlarning kuchli va kuchsiz hissalarini aniq his etish katta ahamiyat kasb etadi. Kamoning majburiy holatda pastga yo‘naltirilishida notaning ustiga “p” belgisi, tepaga yo‘nalishda esa “v”belgisi qo‘yilishi shart.

Musiqiy tahrir natijasida “Fantaziya” quyidagi ko‘rinishga keldi:

Fantaziya

yakka violonchel uchun

Oydin Abdullayeva

Rubato

ff

7

12

fff *p* *f*

19

ff *p*

25

f *ff*

31

p *pp*

36 Lento *tr*

42

48

53 *mf* *pp*

58 *p* Allegro *ff*

64

69

74 *fff*

82 *p*

87 *mp* *p* *mp*

93 *p* *mp* *p*

99 *mp* *p* *mp*

105 *p*

109 *mf* *mp* *mf*

115 *mp* *mf*

121

127 *p*

133 *mf*

138 2 2

146 2 2 2 2 *f*

155

Detailed description: This is a page of musical notation for a bass clef instrument. It contains 14 staves of music, numbered 74 through 155. The key signature has one flat (B-flat). The dynamics range from *fff* (fortississimo) to *f* (forte). The notation includes various rhythmic patterns, slurs, and accents. There are also some performance markings like hairpins and breath marks.

161

166

175

185

191

ff

ff

fff

p

pizz. Rubato

arco

p

f

p

pp

ppp

Savollar:

- 1) Violonchelning ijro imkoniyatlarini aytib bering.
- 2) Applikatura nima?
- 3) Torli-kamonli cholg'ular uchun asar yozishda nimaga e'tibor qaratish kerak?

Ijodiy topshiriq:

Yakka skripka uchun pyesa yozing.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Римский-Корсаков Н. Общий курс инструментовки. I, II ч.
2. Чулаки. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.
3. Способин И. Музыкальная форма. М., 1980.

Tayanch iboralar: *lirik obraz, dramatik obraz, repriza.*

33-34- DARSLAR: Asarning ijrosini tayyorlash

Musiqiy asarni yaratish jarayonida bastakor aksariyat hollarda, asarning tuzilishi, shakl, musiqiy ifoda vositalarining qo'llanilishi bilan badiiy g'oyaning tugal ifoda topishiga e'tibor qaratadi. Biroq, talaba u yoki bu musiqiy cholg'uni yetarli egallamagani, yoxud chala olmagan tufayli musiqiy matoning ijro uchun noqulay bo'lishi mumkinligi haqida o'ylamaydi. Natijada, asar tayyor bo'lgandan so'ng u haqiqiy cholg'u ijrochisi tomonidan tanqidiy ravishda qarshi olinadi.

Har bir cholgʻu ijrochisi oʻzining koʻp yillik ijrochilik tajribasiga suyanan holda, asar musiqiy matosidagi applikator, shtrixlar, pozitsiyalar xususida bastakorga oʻz maslahatlarini beradi, albatta. Shu bois, yoshidan qatʼiy nazar, har bir bastakor agar u tanlangan cholgʻu boʻyicha yetarli ijro tajribasiga ega boʻlmasa, haqiqiy mutaxassis ijrochi bilan yaqin ijodiy hamkorlikni yoʻlga qoʻyishi lozim. Musiqiy asarning tayyor boʻlgan qismlarini ijrochiga oldindan koʻrsatib, chaldirib koʻrib, uning maslahatlariga quloq tutib asar yozish katta samara beradi. Shunday hamkorlik natijasida, ushbu asarning ijrochilik umri uzoq boʻladi va ijrochilar doirasi yillar sayin kengayib boraveradi.

* * *

Yangi asarning ilk ijrosi ustida ishlash jarayonida bastakor ijrochilarga nisbatan oʻta madaniyatli va xushmuomala boʻlishi talab etiladi. U yoki bu holatda asar yangrashini istagan bastakor oʻz fikrini aniq va ravon tilda, fortepianoda chalib koʻrsatish yoki xirgoyi qilib kuylash orqali tushuntirishi mumkin. Tushuntirish chogʻida jahon hamda oʻzbek kompozitorlarining asarlari ijrosidan namunalar, oʻxshatmalar keltirish maqsadga muvofiq boʻlib, bunday usul bastakor va ijrochi oʻrtasida toʻgʻri munosabatni yoʻlga qoʻyish, keyinchalik esa, ishonch hissining qaror topishiga yordam beradi.

Torli-kamonli cholgʻu ijrochilari bilan ishlashda ularning fikri va tajribasiga tayanish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, applikator, akkordlarning qilay joylashuvi, kamoning harakati borasida ijrochi bilan suhbat oʻtkazish lozim. Asarning musiqiy tahriri faqatgina ijrochi bilan boʻlgan jarayondan keyin oʻz nihoyasiga yetadi.

Topshiriq:

N.Paganinining yakka skripka uchun “Kapolis” asarini tahlil qiling.

35-36- DARSLAR: 1-semestr Yakuniy nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish

Oʻquv yilining 18-haftasi mobaynida Yakuniy nazorat (YaN) dasturiga kiritilgan yakka violonchel uchun “Fantaziya” asarini belgilangan muddatlarda sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Asar har doimgidek tugal variantda jonli ijroda yangrashi lozim. Asarning ijro sifati unga berilgan bahoga katta taʼsir koʻrsatishini unutmang. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtoqlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

Oʻquv rejadagi semestr fanlarini ham topshirib, keyingi semestrda oʻqishingizni davom ettirishingiz mumkinligi hech qachon esingizdan chiqmasin!

**1-semestrda o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun
TESTLAR**

№	Test topshirig‘i	“A”	“B”	“C”	“D”
1	“Bastakorlik san’ati” fani nimani o‘rganadi?	Turli janrlarda zamonaviy musiqa yaratishni o‘rgatadi	Cholg‘ular yasashni o‘rgatadi	Musiqa nazariyasiga taalluqli fandır	Musiqa tarixi asoslarini o‘rgatadi
2	“Opera” atamasi qaysi asrda paydo bo‘lgan?	XVII asr	XV asr	XII asr	VII asr
3	Xor ijrosida fal‘tsetdan qachon foydalaniladi?	Yuqori notalarni kuylashni o‘rganayotganda, <i>pp</i> dinamikasida, ton berishda	Pastki notalarni kuylashni o‘rganayotganda	<i>ff</i> dinamikasida kuylaganda	O‘rta parda notalarni kuylashni o‘rganishda, ton berishda
4	Nafas olishning qaysi turi faqat xorda ishlatiladi?	Zanjir (nafas uzilmasligini ta‘minlovchi “zanjir” nafasi)	Uzilishli nafas olish	Og‘izdan nafas olish	Burundan nafas olish
5	Opera asarlarida xor jamoasini sahnada ishlatish tamoyillari	Ommaviy sahnalar, parda orti, xor rechitativlari, xor replikalari	Yakka rechitativlar	Faqat xor bo‘lib kuylash	Xor sahna ortida kuylaydi
6	“Legato” termini ital‘yan tilidan qanday tarjima qilinadi?	Bog‘langan, uzviy	Uzilgan	Bog‘lanmagan	Ulamay
7	Aleatorika tushunchasi nimani anglatadi?	“Tasodif” degan ma‘noni	Aniqlik	Hal etilganlik	Ishonchlilik
8	Qachon O‘zbekistonda birinchi fortepiano ansambli tashkil etilgan?	XX asrning 40-yillarida	XX asrning 20-yillarida	XX asrning 60-yillarida	Meloddan avvalgi 90-yillarda
9	Ornamentikaning qanday turlarini bilasiz?	Forshlag, grupetto, mordent, trel‘	Legato	Forte	Piano
10	Bastakor ijodining mahsuli?	Turli janrlarda yaratilgan musiqiy asarlar	She‘rlar	Obraz	Rasmlar

11	Zamonaviy partitura nima?	simfonik orkestr cholg'ularining partiyalarini notalar va boshqa shartli belgilar yordamida aks ettiruvchi kitob	musiqiy asar	she'riy asarning yozuvi	fortepiano uchun yozilgan asar
12	Fortepiano kvintetida qaysi cholg'ular qatnashadi?	2 ta skripka, alt, violonchel, fortepiano	2 ta violonchel, fleyta, tuba, litavra	2 ta valtorna, truba, trombon, tuba	2 ta skripka, alt, violonchel, kontrabas
13	Torli kvartetda qaysi cholg'ular qatnashadi?	ikkita skripka, alt, violonchel	fleyta, goboy, alt, violonchel	skripka, fleyta, goboy, alt	valtorna, truba, trombon, tuba
14	Fortepiano triosida qaysi cholg'ular qatnashadi?	skripka, violonchel, fortepiano	fleyta, truba, kontrabas	Alt, truba, litavra	fagot, trombon, baraban
15	"Flajolet" nima?	torli cholg'ularga xos ijro usuli	yog'och damli cholg'ularga xos ijro usuli	mis damli cholg'ularga xos ijro usuli	urma zarbli cholg'ularga xos ijro usuli
16	Surdina nima uchun kerak?	Ovozni pasaytirish uchun	Ovozni balandlatish uchun	Tembrni yaxshilash uchun	Hamma javoblar to'g'ri?
17	Torli cholg'ulardan qaysi biri transpozitsiya qilinadi?	kontrabas	Al't	skripka	Violonchel'
18	Vibratsiyaning maqsadi nima?	Tovushning yangrashiga sifat berish	Cholg'uning tembrini o'zgartirish	Tembrni yaxshilash	Hamma javoblar to'g'ri
19	Skripkaning qanday torlari bor?	Mi, lya, re, sol	Lya, re, sol, do	Sol, re, lya, mi	Do, sol, re, lya
20	Al'tning qanday torlari bor?	Lya, re, sol, do	Mi, lya, re, sol	Sol, re, lya, mi	Do, sol, re, lya
21	Violonchelning qanday torlari bor?	Lya, re, sol, do	Mi, lya, re, sol	Sol, re, lya, mi	Do, sol, re, lya
22	Kontrabasning qanday torlari bor?	Sol, re, lya, mi	Do, sol, re, lya	Lya, re, sol, do	Mi, lya, re, sol
23	Ayollar ovozini belgilang.	alt	diskant	bariton	tenor
24	Erkaklar ovozini belgilang.	bas	alt	Metsso soprano	diskant
25	Ayollar ovozini belgilang.	Mezzo-soprano	tenor	bariton	bas
26	Ayollar ovozini belgilang.	kontralto	Bas-profundo	bariton	bas

27	Erkaklar ovozini belgilang.	tenor	soprano	Mezzo-soprano	diskant
28	Ayollar ovozini belgilang.	soprano	tenor	bariton	bas
29	Bolalar ovozini belgilang.	diskant	soprano	tenor	Metsso soprano
30	Erkaklar ovozini belgilang.	bariton	soprano	kontralto	diskant
31	Bolalar xorining ovozlari qaysi?	Soprano va al't	Soprano va tenor	Soprano va bariton	Soprano va bas
32	“A’capella” nima?	Jo’rsiz xor uchun asar	Fortepiano uchun sonata	Orkestr uchun suite	Opera
33	Partitura bo’yicha aralash xor ovozlari...	Soprano, al't, tenor va bas	Soprano, tenor, al't va bas	Al't, soprano, tenor va bas	Bas, soprano, al't va, tenor
34	Xoral - bu...	Jo’rsiz xor uchun so’zsiz kuylanadigan kichik janrdagi asar	Torli cholg’ular uchun asar	Damli cholg’ular uchun asar	Zarbli cholg’ular uchun asar
35	Xor va orkestr uchun yirik shakldagi janrlarni aniqlang.	Oratoriya, cantata, poema	Balet, ballada, qo’shiq	Opera, romans, qo’shiq	Sonata, duet, trio
36	Xor simfoniyasi – bu...	Jo’rsiz xor yoki ayrim xarakterli cholg’ular ishtirokidagi yirik asar	Qo’shiq	Romans	Ariya
37	“Divisi” atamasi nimani anglatadi?	bo’linib chalish	qisqartirib chalish	transport qilib chalish	takrorlash
38	Akkolada nima?	nota yo’llarini bog’laydigan qavs	dinamik belgi	melizm turi	ijro usuli
39	Vibratsiya nima?	tovushni titratish	tovushni sakratib chalish	tovushlarni ulab chalish	cholg’u asbobi
40	Transpozitsiya qilinadigan cholg’ular qaysilar?	klarnet, truba, valtorna, kontrabas	fortepiano, skripka, goboy	alt, tuba, klarnet, arfa	violonchel, skripka, tuba
41	Partiturada cholg’u guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?	yog’och damli cholg’ular, mis damli cholg’ular, urma zarbli cholg’ular, torli cholg’ular	mis damli cholg’ular, yog’och damli cholg’ular, urma zarbli cholg’ular, torli cholg’ular	yog’och damli cholg’ular, mis damli cholg’ular, torli cholg’ular, urma zarbli cholg’ular	urma zarbli cholg’ular, yog’och damli cholg’ular, mis damli cholg’ular, torli cholg’ular
42	“Arco” atamasi nimani anglatadi?	kamon bilan chalish	puf lab chalish	urib chalish	tirnab chalish

43	“Pizzicato” atamasi nimani anglatadi?	tirnab chalish	urib chalish	puflab chalish	kamon bilan chalish
44	Zamonaviy musiqada tonalligi bo‘lmagan asarlar qanday musiqa hisoblanadi?	Atonal musiqa	Gibrit musiqa	Jaz musiqa	Klassik musiqa
45	Dodekofoniya, ya’ni 12 tonli musiqa yoki seriya, deb nomlanadigan kompozitsiya uslubining klassik namunasini yaratgan kompozitor kim?	Arnol’d Shyonberg	Dmitriy Shostakovich	Feliks Yanov-Yanovskiy	Ulug‘bek Musayev
46	Dastlab zamonaviy musiqa yaratishni boshlagan kompozitorlar o‘zlarini qanday nomlashgan?	Avangardchilar	Impressionistlar	Romantiklar	Neoklassiklar
47	Pol’sha avangard musiqasining yorqin vakili kim?	Kshishtof Penderetskiy	Al’fred Shnitke	Edison Denisov	Sof’ya Gubaydulina
48	“O‘zgalar so‘zi”, ya’ni tsitata, kollaj yoki namud kabi kompozitsiya yozuv uslubini o‘z asarlarida mohirona ishlatgan kompozitorni aniqlang.	Al’fred Shnitke	Mustafu Bafoyev	Iogann Bax	Edvard Grig
49	Zamonaviy musiqa yo‘nalishi paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan kompozitsiya texnikasini aniqlang.	Dodekofoniya	Polifiniya	Simfoniya	Trilogiya
50	Opera nima?	Janrlar sintezi aks etgan yirik musiqiy-sahnaviy asar	Kamer-cholg‘u musiqa janri	Vokal-cholg‘u asar	Sahna harakatiga asoslangan musiqiy asar
51	Operaning kirish qismi nima deb ataladi?	Uvertyura	Simfoniya	Kantata	Oratoriya
52	Operaning qismlari nima deb ataladi?	Akt	Antrakt	Uezura	Leytmotiv
53	Leytmotiv nima?	Muayyan obrazni aks ettiruvchi musiqiy mavzu	Muayyan obrazni aks ettiruvchi tembr	Musiqiy cholg‘u	Dirijyorning vazifasi
54	Leyttembr nima?	Muayyan obrazni aks ettiruvchi tembr	Muayyan obrazni aks ettiruvchi musiqiy mavzu	Musiqiy cholg‘u	Dirijyorning vazifasi

55	Operada qatnashadigan musiqiy ifoda vositalari nimalardan iborat?	Simfonik orkestr, xonandalar, xor, balet.	Mis damli cholg'ular, arfa	Xalq cholg'ulari va xonandalar	Yog'och damli cholg'ular va xor
56	Baletda qatnashadigan musiqiy ifoda vositalari nimalardan iborat?	Simfonik orkestr, balet.	Xalq cholg'ulari va xonandalar	Yog'och damli cholg'ular va xor	Mis damli cholg'ular, arfa
57	Libretto nima?	Musiqiy sahnaviy asarning she'riy matni	Muayyan obrazni aks ettiruvchi tembr	Muayyan obrazni aks ettiruvchi musiqiy mavzu	Musiqiy cholg'u
58	Birinchi o'zbek operasini aniqlang	«Bo'ron» operasi	«Xamza» operasi	«Dilorom» operasi	«Gulsara» operasi
59	«Dilorom» operasini qaysi kompozitor yozgan?	M.Ashrafiy	S.Yudakov	T.Sodiqov	G.Mushel
60	«Dilorom» operasining libretto muallifini aniqlang	Komil Yashin va Muzaffar Muxammedov	Sobir Abdulla va Hamid Olimjon	Hamid Olimjon va Zulfiya	Uyg'un va Sobir Abdulla
61	“Xumo” baletining musiqa muallifi kim?	A.Ergashev	R.Abdullaev	H.Rahimov	U.Musaev
62	«Bo'ron» operasining premerasi nechanchi yilda bo'lib o'tgan?	11 iyun 1939 yilda	11 may 1939 yilda	11 iyun 1940 yilda	11 may 1941 yilda
63	«Bo'ron» operasining bosh qahramoni birinchi ijrochisi kim?	Karim Zokirov	Muhitdin Qoriyoqubov	Qori Sidiqov	Sattor Yarashev
64	«Bo'ron» operasining birinchi dirijyori kim?	Muxtor Ashrafiy	Fazliddin Shamsiddinov	Aleksey Kozlovskiy	Tolibjon Sodiqov
65	«Dilorom» operasi qaysi shoir asari asosida yozilgan?	A.Navoiy	Bedil	Mirzo Bobur	Furqat
66	«Dilorom» operasi spektaklining rassomi?	M.Musaev	T.Qo'ziev	R.Ahmedov	B.Jalolov
67	«Dilorom» operasini sahnalashtiruvchi baletmeyster kim?	G.Izmaylova	I.Yusupov	G.Vasilev	M.Turg'unboeva
68	Birinchi o'zbek komik operasini kim yozgan?	S.Yudakov	M.Ashrafiy	M.Burhonov	S.Varelas

69	Birinchi o'zbek komik operaning nomi nima?	«Maysaraning ishi»	«Bo'ron»	«Dilorom»	«Navoiy»
70	“O'tgan kunlar” musiqali dramasi bosh qahramonlari kimlar?	Otabek va Kumush	Anvar va Ra'no	Alpomish va Oybachin	Tohir va Zuxra
71	“Mahallada duv-duv gap” kinofilmining musiqasi qaysi kompozitorga tegishli?	M.Leviyev	S.Yudakov	I.Akbarov	M.Ashrafiy
72	“Suxayl va Mexri” baleti musiqa muallifi kim?	M.Leviyev	D.Zokirov	A.Kozlovskiy	U.Musaev
73	Musiqali drama va komediyalarda qanday orkestr tarkibi qo'llaniladi?	simfonik orkestr	Estrada-simfonik orkestr	xalq cholg'ulari orkestri	damli cholg'ular
74	Musiqiy sahna asarlarida qaysi qism sof cholg'u ifodasida namoyon bo'ladi?	uvertyura	final	ko'rinishlar	aktlar
75	Qaysi kompozitor operalarida jonli va jonsiz predmetlarga leytmotiv ishlatilgan?	R.Vagner	J.Bize	J.Verdi	B.Smetana
76	«Maysaraning ishi» operasi nechchi aktdan iborat?	2 akt	3 akt	4 akt	5 akt
77	«Maysaraning ishi» operasining libretto muallifi kim?	Komil Yashin	Asqad Muxtor	Izzat Sulton	Pirimqul Qodirov
78	«Maysaraning ishi» operasida Oyxon partiyasini birinchi marotaba kim ijro etgan?	Saodat Qobulova	Nazira Ahmedova	Halima Nosirova	Gulgina Zokirova
79	«Maysaraning ishi» operasida Maysara partiyasini birinchi bo'lib kim ijro etgan?	Halima Nosirova	Nazira Ahmedova	Saodat Qobulova	Gulgina Zokirova
80	«Maysaraning ishi» operasi rejissyori kim?	M.Muhammedov va Kandalaki	F.Safarov	Yu.Xilkevich	H.Qosimov
81	«Maysaraning ishi» operasining premerasi qachon bo'lib o'tgan?	9 yanvar 1959 yilda	9 yanvar 1958 yilda	9 yanvar 1960 yilda	9 yanvar 1961 yilda
82	«Maysaraning ishi» operasining birinchi dirijyori?	Fazliddin Shamsiddinov	Muxtor Ashrafiy	Dilbar Abdurahmonova	Tolibjon Sodiqov

83	«Gulsara» operasini kim yozgan?	R.Glier – T.Sodiqov	T.Jalilov – B.Brovstin	I.Hamroev	D.Zokirov
84	«Gulsara» operasining prem'erasi qachon bo'lib o'tgan?	29 dekabr 1949 yil	25 oktyabr 1949 yil	20 noyabr 1949 yil	15 yanvar 1950 yil
85	«Zaynab va Omon» operasining prem'erasi qachon bo'lib o'tgan?	19 oktyabr 1958 yil	10 sentyabr 1958 yil	20 noyabr 1958 yil	25 dekabr 1958 yil
86	«Zaynab va Omon» operasining libretto muallifi kim?	Zulfiya	Po'lat Mo'min	Hamid Olimjon	G'ofur G'ulom
87	«Zaynab va Omon» operasi mualliflari kimlar?	T.Sodiqov, B.Zeydman, Yu.Rajabiy va D.Zokirov	R.Glier, T.Jalilov va Yu.Rajabiy	S.Boboiev, M.Ashrafiy va S.Yudakov	S.Yudakov, S.Varelas va A.Kozlovskiy
88	«Zaynab va Omon» operasi birinchi dirijyorini aniqlang.	Fazliddin Shamsiddinov	Muxtor Ashrafiy	Doni Zokirov	Tolibjon Sodiqov
89	«Zaynab va Omon» operasida Zaynab obrazini kim birinchi ijro etgan?	Halima Nosirova	Salima Xo'jaeva	Kseniya Davidova	Rafaat Kuchlikova
90	«Zaynab va Omon» operasida Omon obrazining birinchi ijrochisi kim?	Asad Azimov	Soson Benyaminov	Karim Zokirov	Mixail Davidov
91	«Zaynab va Omon» operasining rejissyori kim?	Muzaffar Muhamedov	Razzoq Hamroev	Firudin Safarov	Haydarali Qosimov
92	«Zaynab va Omon» operasi necha aktdan iborat?	3 akt	2 akt	4 akt	5 akt
93	A.Navoiy nomidagi opera va balet teatri nechanchi yilda qurilgan?	1947 yil	1945 yil	1946 yil	1948 yil
94	A.Navoiy nomidagi opera va balet teatri binosining arxitektori kim?	A.Shusev	T.Qo'ziev	R.Xudoyberganov	U.Musaev
95	«Umar Xayyom» operasining musiqa muallifi kim?	M.Bafoev	R.Abdullaev	U.Musaev	H.Rahimov
96	«Umar Xayyom» operasi necha aktdan iborat?	3 aktdan	1 aktdan	2 aktdan	4 aktdan

97	«Umar Xayyom» operasining libretto muallifi kim?	Oleg Uzoqov	Jumaniyoz Jabborov	Komil YAshin	Sirojiddin Sayyid
98	«Alisher Navoiy» operasining musiqa muallifi kim?	Mutal Burxonov	Muxtor Ashrafiy	Mustafo Bafoev	Farxod Alimov
99	«Yoriltosh» operasining musiqa muallifi kim?	S.Boboev	A.Mansurov	N.Norxo'jaev	S.Varelas
100	Aranjirovka so'zining ma'nosi nima?	Frantsuzchadan o'g'irganda "Tartibga keltirish".	Elektron instrumentariy yordamida musiqiy kompozitsiyalarni yaratish.	Kuyni garmoniyalashtirish.	Garmoniyala shtirish va cholg'ulashtirish.
101	Aranjirovka qachon mustaqil musiqa fani sifatida ajralib chiqqan?	XX asrning 30- yillari.	XIX asrning 90- yillari.	XX asrning 50- yillari.	XX asrning 70- yillari.
102	Aranjirovka bilan orkestrga moslashtirish orasida qanday farq bor?	Musiqiy matnga erkin ishlov bermoq.	Musiqiy matnni o'z xolicha saqlab qolmoq.	Musiqiy matnni tubdan o'zgartirmoq.	Musiqiy matnda faqat cholg'ular guruhini o'zgartirmoq
103	Windows sistemasida qo'llaniladigan musiqiy programma.	Nuendo.	Logic.	ProTools.	Ableton Live Suite.
104	Nuendo nima?	Musiqiy programma.	Elektron cholg'u asbobi.	Notalashtirish redaktori.	Videoloyixal ar bilan ishlash programmasi
105	Sekvensor tushunchasiga berilgan aniq ta'rifni toping.	Bu-raqamlashtirilgan ishchi audiodstantsiya.	Unga kiritilgan tovushlar ketma-ketligini yodida saqlaydigan programma.	Bu-tovushlarni qayta ishlash, taxrir qilish va yangrash jarayonida turli o'zgartirishlar kiritishga mo'ljallangan programma.	Bu-videoloyixalarga ishlov beruvchi programma.
106	Quyidagi javoblar ichida virtual studiyani toping.	Logic.	Sibelius.	Sound Forge.	WaveLab.
107	Quyidagi javoblar ichida audioredaktor programmasini toping.	Wave Lab.	Ssleaner.	Nero.	Sibelius.
108	Kerakli ma'lumotni SD diskka yozib olish uchun qaysi programmadan foydalaniladi?	Nero.	Sibelius.	Ssleaner.	Nuendo.

Ijodiy topshiriq:

Fleyta uchun 3 ta mavzu yozing.

Tayanch iboralar: diapazon, yog‘och damli cholg‘ular, lirik xarakter.

39-42 DARSLAR: Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish

Endigi darslarda fleyta uchun yaratilgan kuyga fortepiano jo‘rligini yozamiz va ijodiy izlanishlarni davom ettiramiz:

Andantino

The musical score is written in 4/4 time and consists of two systems. The first system includes a flute part and a piano accompaniment. The flute part begins with a rest, followed by a melody starting on a dotted quarter note, marked *mp* and *legato*. The piano accompaniment starts with a rest, followed by a rhythmic pattern of eighth notes in the right hand and chords in the left hand, also marked *mp*. The second system continues the flute melody and piano accompaniment.

Ko‘rib turganingizdek, jo‘rlik uchun gomofon-garmonik faktura tanlandi. Garmonik matoning bir tovush bilan boshlanib, boshqa ohangdoshlar bilan qo‘shilishi hisobiga ko‘p ovozlilik tomon o‘shish kuzatilmoqda. Sakkizinchi taktda esa, frigiyladining namoyon bo‘lishini kuzatishingiz mumkin. Fortepiano partiyasining o‘ng qo‘lida ifodalanayotgan melodik yo‘l esa, fleytaning partiyasiga nisbatan polifonik munosabatda bo‘lyapti. Kuyning umumiy ohang yo‘li lirik va kuychan bo‘lgani bois, asarning ritmik manzarasini ritmik pulsastiya ko‘rinishida bir maromda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Endigi navbatda, musiqiy mavzuni rivojlantiramiz:

(Andantino)

mf

Fleytaning partiyasi kvarta yuqoriga ko‘tarilib, diapazon jihatidan o‘shida davom etadi. Shunga ko‘ra, fortepiano partiyasining diapazoni ham quyi registr tomon kengayadi.

Ushbu rivojlanishda ladning butkul re-frigiy ladiga o‘zgarishini kuzatamiz. Shu bilan birga, garmonik matoda “Iya-bemol” tovushining ham paydo bo‘lishi kuzatiladi.

Fleyta – damli cholg‘u bo‘lgani uchun unga atab yaratilgan asarda muayyan vaqt davom etadigan pauzalar mavjud bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi. Binobarin, asar davomida ijrochi nafasini rostlab, dam olishga ulgurishi - asarning yuqori darajada yangrashini ta‘minlab beradi. Shunga ko‘ra, asarning endigi lavhasida yetakchilikni fortepiano cholg‘usiga berib, fleytaga pauza berish maqsadga muvofiqdir:

(Andantino)

mf

Fortepiano partiyasi uchun yakkanavozlik yaratishda ushbu cholg'uga xos xususiyatlar to'laqonli qo'llanilishi kerak. Kuy yo'lini to'liq ifodalash, shu bilan birga, garmonik va ritmik vositalarning aks etishi shart hisoblanadi. Zero, fleytaning musiqiy matodagi tanaffusini sezdirmaslik va shu yo'l bilan fortepianoning asardagi yetakchi vazifasini ko'rsatish muhim hisoblanadi.

Savollar:

- 1) Fleytaning ijro imkoniyatlari nimalardan iborat?
- 2) Fleyta qaysi cholg'u guruhiga kiradi?
- 3) Frigiy ladi nima?
- 4) O'zbek xalq musiqasiga xos bo'lgan ohang harakatlari nimalardan iborat?
- 5) Nay qanday cholg'u?
- 6) Musiqiy bezak nima?
- 7) Gomofon-garmonik faktura deganda nimani tushunasiz? Fakturaning yana qanday turlarini bilasiz?

Ijodiy topshiriq:

Fleyta va fortepiano uchun asarning ekspozitsion qismini yozing.

Tahlil uchun topshiriq:

D.Shostakovich. "24 prelyudiya". op.34. № 15, 17.

Tayanch iboralar: *musiqiy mato, yakkanavoz, garmonik vosita, ritmik vosita.*

43-44- DARSLAR: Oddiy shaklning o'rta qismini yozish

Navbat asarning o'rta qismini yozishga...

The image shows a musical score for piano and flute. The tempo is marked '(Andantino)' and the dynamic is 'mf'. The score consists of two staves: a treble clef staff for the flute and a bass clef staff for the piano. The piano part features a rhythmic accompaniment with eighth notes and chords. The flute part has a melodic line with some grace notes and slurs. The key signature has one flat (B-flat).

The image displays a musical score for a piece in G minor, 3/4 time. It consists of five systems of music. Each system includes a vocal line (treble clef) and a piano accompaniment (grand staff). The key signature has two flats (Bb and Eb). The first system starts with a vocal line in G minor. The second system is marked '8va' and shows a change in the piano accompaniment. The third system is marked '(8)' and shows a change in the vocal line. The fourth and fifth systems continue the development of the piece.

Yuqoridagi nota matnini chalib, tahlil qilgan bo‘lsangiz, ishonch hosil qilasizki, rivojlanish jarayonida musiqiy mato lad jihatidan bir necha bor o‘zgarayapti. Garmoniyaning avvaliga “sol”, keyinchalik esa, “do”, “re” tayanch nuqtalarida aylanayotganini ko‘rish mumkin. Si-minorda yuz berayotgan rivojlanish ham diqqatga sazovor hisoblanadi. Negaki, ushbu lad asarning garmonik manzarasiga muayyan yangi nafas olib kirgandek bo‘ladi.

Fakturada kuy yo‘lining rivojlanishi ham qiziqarli kechadi. Yuqori registrda, ya’ni fleyta partiyasida ro‘y berayotgan melodik jarayonga nisbatan fortepiano partiyasining quyi registrda bildirilayotgan melodik munosabati diqqatga sazovordir.

Endigi epizodda fleyta va fortepiano o'rtasida o'ziga xos "dialog" yuz beradi:

(Andantino)

The musical score is written for flute and piano. It begins with the tempo marking '(Andantino)'. The first system shows the flute playing a melodic line with dynamics *mp* and the piano accompaniment with dynamics *p* and *mp*. The second system features a piano solo with dynamics *p* and *pp*, while the flute has rests. The third system shows the piano accompaniment with dynamics *mp* and the flute with rests. The fourth system continues the piano accompaniment with dynamics *p* and the flute with rests.

O'ra qismning oxirida fleyta cholg'usiga yana pauza beriladi. Negaki, navbatda turgan reprizaga tayyorgarlik ko'rish maqsadida fleyta nafasini rostlab olishi kerak.

Shu paytning o'zida, fortepiano bir nechta vazifani bajaradi. U, avvalam bor, ikki cholg'u o'rtasida yuz bergan dialogni mantiqan tugallaydi. So'ng, reprizaning

asosiy tonallik bo‘lmish re-minorda yangrashini ta’minlash maqsadida, musiqiy matoni asosiy tonallikka modulyastiya qiladi.

Savollar:

- 1) Dialog nima?
- 2) Damli cholg‘ular partiyasida pauzalarning qo‘llanilishiga sabab nima?
- 3) Asosiy tonallik deganda nimani tushunasiz?
- 4) Modulyatsiya nima? Modulyatsiyaning turlarini aytib bering.
- 5) Oddiy shakllarning o‘rta qismiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

Ijodiy topshiriq:

Fleyta va fortepiano uchun kuyning o‘rta qismini yozing.

Tahlil uchun topshiriq:

P.Chaykovskiy. “Detskiy albom”dan № 3, 5, 6.

Tayanch iboralar: *garmonik manzara, asosiy tonallik, musiqiy mato.*

45-46- DARSLAR: Oddiy shaklning reprizasini yozish

Cholg‘u duetlari uchun yaratiladigan asarlarning repriza qismi juda qiziqarli ravishda namoyon bo‘ladi. Avvalgi darslardan yaxshi ma’lumki, reprizaning aniq, o‘zgargan, qisqargan, variastiyalangan kabi turlari bor. Odatda, asarda reprizaning qay tarzda qaytarilishi asarning umumiy dramaturgiyasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, ikki cholg‘u o‘rtasidagi musiqiy-dramaturgik munosabat reprizaga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur asarning reprizasida fleyta va fortepiano partiyalaridagi melodik yo‘llar o‘zaro almashadi:

(Andantino)

The musical score is for a duet in G major, 3/4 time, marked (Andantino). The flute part (top staff) begins with a whole rest, followed by a melody starting on G4. The piano part (bottom staff) starts with a piano introduction of eighth notes in the right hand and chords in the left hand. The flute melody is: G4 (quarter), A4 (quarter), B4 (quarter), C5 (quarter), B4-A4 (beamed eighth notes), G4 (quarter), F#4 (quarter), E4 (quarter), D4 (quarter), C4 (quarter). The piano accompaniment consists of eighth notes in the right hand and chords in the left hand.

Ko‘rib turganingizdek, asosiy melodik yo‘l fortepiano partiyasiga ko‘chdi. Fleyta esa, fortepiano partiyasiga nisbatan polifonik yo‘lni olib borayapti. Asarning yakunida fortepiano partiyasidagi kuy yo‘li chap qo‘lga o‘tib, quyi registr tomon harakatlanadi va asosiy “re” tovushiga kelib to‘xtaydi. Bu holat asarning musiqiy matosiga yakunlovchi xarakter beradi. Shu paytning o‘zida, fleytaning faolligi susayib, so‘nggi tovushda harakatsiz davom etadi va yakunlanadi.

Fleyta va fortepiano uchun “Lirik p‘yesa”ni yozish shaklan o‘z nihoyasiga yetganidan so‘ng, uni musiqiy tahrir qilish ishlari boshlanadi. Unga shartli belgilar, dinamika va shtrixlar qo‘yish zarur bo‘ladi.

Musiqiy tahrir natijasida “Lirik p‘yesa”⁹ quyidagi ko‘rinishga keladi:

⁹“Lirik pyesa” talaba-bastakor Muxlisa Rahimjonova tomonidan ustoz, bastakor O.Abdullayeva rahbarligida yaratilgan.

Lirik pyesa

fleyta va fortepiano uchun

Andantino

M. Rahimjonova

Musical score for measures 1-7. The piece is in 4/4 time and B-flat major. The flute part begins with a melodic line marked *mp* and *legato*. The piano accompaniment features a steady eighth-note bass line in the left hand and chords in the right hand.

Musical score for measures 8-13. The flute part continues with a melodic line marked *mf*. The piano accompaniment maintains the eighth-note bass line and chordal accompaniment.

Musical score for measures 14-20. The flute part continues with a melodic line. The piano accompaniment features a steady eighth-note bass line and chordal accompaniment.

Musical score for measures 21-25. The flute part has a rest in measure 21, followed by a melodic line marked *mf*. The piano accompaniment continues with the eighth-note bass line and chordal accompaniment.

Musical score for measures 26-30. The flute part has a rest in measure 26, followed by a melodic line marked *mf*. The piano accompaniment continues with the eighth-note bass line and chordal accompaniment, ending with a *mp* marking in measure 30.

31

Musical score for measures 31-35. The system includes a vocal line and a piano accompaniment. The piano part features a steady eighth-note bass line in the left hand and chords in the right hand. The vocal line has a melodic line with some grace notes and slurs.

36

Musical score for measures 36-40. The system includes a vocal line and a piano accompaniment. The piano part continues with the eighth-note bass line and chords. The vocal line has a melodic line with a fermata over measure 39.

41 (8)

Musical score for measures 41-46. The system includes a vocal line and a piano accompaniment. The piano part features a steady eighth-note bass line and chords. The vocal line has a melodic line with grace notes and slurs.

47

Musical score for measures 47-51. The system includes a vocal line and a piano accompaniment. The piano part continues with the eighth-note bass line and chords. The vocal line has a melodic line with grace notes and slurs.

52

Musical score for measures 52-56. The system includes a vocal line and a piano accompaniment. The piano part features a steady eighth-note bass line and chords. The vocal line has a melodic line with grace notes and slurs. Dynamics include *mp* and *p*.

57

Musical score for measures 57-61. The system includes a vocal line and a piano accompaniment. The piano part features a steady eighth-note bass line and chords. The vocal line has a melodic line with grace notes and slurs. Dynamics include *mp*, *p*, and *pp*.

62

mp

68

p

mp dolce

p

75

mp

81

87

p

mp

91

rit.

rit.

p

pp

pp

Savollar:

- 1) Fleytaning ijro imkoniyatlarini aytib bering.
- 2) Frullato nima?
- 3) Damli cholg'ular necha guruhga bo'linadi?
- 4) Damli cholg'ular uchun asar yozishda nimaga e'tibor qaratish kerak?

Ijodiy topshiriq:

Fleyta va fortepiano uchun kuyning repriza qismini yozing.

Tayanch iboralar: *kuy yo'li, musiqiy tahrir, badiiy g'oya.*

47-48- DARSLAR: Asarning ijrosini tayyorlash

Damli cholg'ular uchun asar yaratishning o'ziga xos tomonlari bor. Bu cholg'ular inson organizmining holati va ayni damdagi psixologik kayfiyati bilan bog'liqligi kuchli hisoblanadi. Shu bois, damli cholg'u (yoki cholg'ular) uchun asar yaratishda ijrochi bilan bevosita aloqani yo'lga qo'yish kerak. Ya'ni, musiqiy asarning oxirigacha yaratilib bo'lishini kutmay, aksincha, yozib bo'lingan kichik-kichik lavhalarni ijrochiga ko'rsatish, lavhani chalib ko'rish va ijrochining bu boradagi maslahatlarini muntazam olish muhim hisoblanadi. Shu yo'l bilan asarning damli cholg'u ijrochisi uchun qulay yaratilishini ta'minlagan bo'lasiz. Ijro uchun qulay bo'lgan asarning ijro umri ham uzun bo'ladi.

Tahlil uchun topshiriq:

I.S.Baxning si-minor Syuitasidan "Menuet" va "Hazil".

49-50- DARSLAR: Ovoz va fortepiano uchun romans yaratish.**Musiq va she'riy matn mutanosibligida melodiya yozish**

Vokal musiqa - inson ovozi bilan kuylanadigan musiqiy asarlarni o'z ichiga oladi. Vokal musiqa cholg'u jo'rliqida yoki jo'rliksiz ijro etiladi. Cholg'u jo'rliq qatnashmagan vokal musiqa **a'capella**¹⁰ deb ataladi. Cholg'u jo'rliq qatnashgan vokal musiqa vokal-cholg'u musiqa, deb ham yuritiladi.

Vokal musiqa sintetik san'at turi sifatida muayyan xususiyatga ega. Musiqa shaklining ichki qonuniyatlari vokal asarlarda o'z ahamiyatini saqlagan holda, she'riy matn qonuniyatlari bilan o'zaro aloqaga kirishib, o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi. So'z, vokal kuy va cholg'u jo'rliq – uch tomonlama sintezni tashkil etib, vokal musiqaning ko'p qirrali masalalarini yuzaga keltiradi. Ular o'z o'rnida, bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikni tashkil etadi. Shunga ko'ra, ushbu vositalarning o'zaro munosabatini quyidagicha ko'rish mumkin:

1) So'z va vokal kuy. So'zlar ma'nosidan kelib chiqib, vokal kuy nutq ohanggi bilan munosabatga kirishganda, ritm va ohang balandligi jihatidan ular bir-

¹⁰A'capella – aksariyat hollarda xor musiqasiga tegishli atama hisoblanadi.

biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Nutq ohanggi o‘zining talaffuziga ko‘ra turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan vokal kuy uch turga bo‘linadi – *rechitativ*, *ariyasimon* va *qo‘shiqsimon* (kantilena).

Rechitativ kuy insonning tabiiy nutqiga yaqin bo‘ladi. Kuyning bunday shakli simmetrik ritmga bo‘ysunmaydi. Tabiiy nutqning ritmik va muayyan tovush balandligini aks ettiradi. Shu bilan birga, deklamatsion uslub vokal asarlarda uchrab turadigan shakllardan biridir. Deklamatsion uslub she’riy matnni ifodali o‘qishga asoslanadi.

Ariyasimon kuy musiqiy iboraning she’riy ibora bilan erkin ravishda kuychan bog‘lanishiga asoslanadi.

Qo‘shiqsimon kuy she’riy matn ritmining musiqiy ibora bilan o‘zaro uyg‘unlashuviga asoslanadi.

Musiqi tarixida vokal kuy turlarining sintezlashgan hollari ham uchraydi. Ya’ni, birgina vokal asarda *rechitativ*, *ariyasimon* va *qo‘shiqsimon* kuy turlarining uchrashi tabiiy hol hisoblanadi.

2) So‘z va cholg‘u jo‘rligi. She’rning mazmunini yaratishda jo‘rlikning o‘rni juda katta. Insonning psixologik kayfiyati, she’riy matn ma’nosidan shakllanadigan ohang dramaturgiyasidagi rivojlanish jarayonlari, tasviriy jihatlar aynan cholg‘u jo‘rligining zimmasiga tushadi.

3) Vokal kuy va cholg‘u jo‘rligi aksariyat hollarda butun bir yaxlitlikni tashkil etib, bir-birini o‘zaro to‘ldiradi. Cholg‘u partiyasiga xos bo‘lgan shakl birligini esa vokal partiya o‘ziga xos bo‘lgan xilma-xillik bilan boyitadi.

* * *

She’riy matn tanlash

Vokal asarning asosini tashkil etuvchi ifoda vositalaridan birinchisi – she’riy matndir. Har qanday vokal asar uchun, avvalam bor, mazmunli va professional ravishda yozilgan she’r kerak. She’r tanlashda jahon adabiyoti, o‘zbek adabiyoti durdonalarini varaqlab ko‘rish maqsadga muvofiq.

Romans uchun odatda, shoirlarning ijodiga xos lirik xarakterdagi namuna tanlanadi. Bunday namunalarning mazmun va xarakteri biror-bir xotira, tabiat manzarasi, insoniy tuyg‘ular va kechinmalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Alohida ta’kidlash joizki, vokal asar uchun tanlanayotgan she’rning so‘zlariga o‘zgacha e’tibor qaratish juda muhim. So‘zlarda unli harflarning bir maromda kelishi matnni musiqiy ohang bilan bog‘lash va kuylash qulay bo‘lishi uchun katta imkoniyat beradi. Undosh harflar sonining unli tovushlar soniga nisbatan ko‘p bo‘lishi keyinchalik xonandaning ijrosi uchun noqulayliklar tug‘diradi.

She’riy misraning “a”, “o”, “e” kabi ochiq unli harflar bilan tugashi vokal musiqaning estetik tomondan ijobiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Romans yozish uchun shoir Hamid Olimjon¹¹ (1909-1944) qalamiga mansub “Nihol” nomli she’rni tanladik:

Sen o‘tqazib ketgan nihol
O‘sib bo‘yingday bo‘ldi,
Novdalari barg chiqardi,
Boshi gulga ko‘mildi.

Qachon seni ko‘rgim kelsa,
Tikilaman o‘shanga.
Ko‘p narsalar aytgan kabi
Qarab turadi manga.

Yolg‘izgina nihol emas,
Butun bog‘ izingga zor.
Intizordir senga tamom
Olmazoru oluchazor.

Men gullardan, bog‘lardan ham
Sog‘inganman ortiqroq.
Ertaroq kel, yurak-bag‘rim,
Yolg‘izginam, kel tezroq.

Tanlangan she’rni tahlil qilamiz: matndagi obraz ayol sog‘inchini ifoda etyapti. Ikkinchi Jahon Urushi yillarida minglab o‘zbek yigitlari vatanimiz himoyasi yo‘lida jangga otlanib, harbiy qo‘shinning old saflarida mardonavor kurash olib borganlar. Vatanimiz uchun bo‘lgan bu kurash bir necha yil davom etgan. Shu bois, yigitlar uzoq vaqt uylariga qayta olmaganlar.

“Sen o‘tqazib ketgan nihol o‘sib bo‘yingday bo‘ldi, novdalari barg chiqardi, boshi gulga ko‘mildi” misralari urushga ketgan yigitning ko‘p yillar uydan, Vatandan yiroqda ekanligini bildiradi. “Qachon seni ko‘rgim kelsa, tikilaman o‘shanga, ko‘p narsalar aytgan kabi qarab turadi manga” misralari ayol qahramonning yigit qahramon bilan bo‘lgan g‘oyibona munosabatini va muloqotini ifodalaydi. “Yolg‘izgina nihol emas, butun bog‘ izingga zor, intizordir senga tamom olmazoru oluchazor” misralarida sog‘inch hissi nafaqat vatandoshlar, mahalladoshlar, do‘st-qadrdonlarning bag‘rini, balki urushga ketgan mehnatkash yigitning qo‘li tekkan har bir giyoh, daraxt va gullarning ham qalbini chulg‘ab olgani aks etgan. “Men gullardan, bog‘lardan ham, sog‘inganman ortiqroq, ertaroq

¹¹ Hamid Olimjon – iste’dodli shoir, dramaturg, olim, davlat va jamoat arbobi. O‘zbek she’riyatining rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkor. Uning “Eng gullagan yoshlik chog‘imda”, “Xayolimda bo‘lding uzun tun”, “Vodiylarni yayov kezganda...” nomli she’rlari mashhur qo‘shiqlarga aylanib, bir necha avlod xonandalari tomonidan kuylanadi. Hamid Olimjonning aksariyat asarlari qardosh xalqlar va xorijiy xalqlar tiliga tarjima qilingan.

kel, yurak-bag‘rim, yolg‘izginam, kel tezroq” misralari ayol qahramonning mehru-muhabbatini ifoda etadi.

Savollar:

- 1) Vokal musiqa deganda nimani tushunasiz?
- 2) A’capella nima?
- 3) Vokal kuyning turlari qanday?
- 4) Rechitativ kuyga misol keltiring.
- 5) Ariyasimon kuyga misol keltiring.
- 6) Qo‘shiqsimon kuyga misol keltiring.
- 7) Deklamatsiya nima? Deklamastiyaga misol keltiring.
- 8) She’riy matnning musiqa bilan uyg‘unlashuvida nimalarga e’tibor qaratish zarur?

Ijodiy topshiriq:

Romansga mos she’rlar tanlang.

Tahlil uchun topshiriq:

M.Burhonov. “Alisher Navoiy” operasidan Navoiy ariyasi.

Tayanch iboralar: *vokal musiqa, she’riy matn, musiqiy matn, sintez.*

51–52- DARSLAR: Faktura. Garmoniya. Ritm

She’rning badiiy obraziga ko‘ra, romans ayol ovozi bilan kuylanishi maqsadga muvofiq. Shu bois, uni soprano va fortepiano ijrosida yaratish talab etiladi.

Soprano¹² – eng baland ayol ovozi bo‘lib, uning ovoz hajmi birinchi oktavadagi “do” tovushidan to uchinchi oktavadagi “do” tovushigacha yetib boradi. Soprano ovozi o‘zining yangrash xarakteriga ko‘ra, “lirik-koloraturali soprano”, “lirik soprano”, “dramatik soprano” turlariga bo‘linadi. Biz yaratayotgan romans lirik hamda dramatik soprano ovozlari tomonidan kuylanishi mumkin.

Romans soprano ovozi hamda fortepiano cholg‘usining jo‘rligida yaratilishi kerak, deb olamiz. Forte pianoning soprano ovoz oldidagi vazifasi – obraz dunyosini tasvirlash, vokal ovoz bilan obrazli munosabatda bo‘lish va ovozning “tanaffus” joylarini to‘ldirishdan iboratdir.

Vokal partiya o‘zining tabiatiga ko‘ra, bir ovozlik ijroga mo‘ljallangan ifoda vositasi bo‘lgani sababli, fortepiano asar davomida garmonik vazifani to‘laqonli bajarishi shartdir. Buning uchun fakturaning barcha ko‘rinishlaridan foydalanish, badihago‘ylik tamoyillari ya’ni, variatsionlik prinsiplariga amal qilish kerak bo‘ladi.

¹²Qarang: Шарафиева Н. Хоршунослик. Т., 1987.

Savollar:

- 1) Inson ovozi qanday turlarga bo‘linadi?
- 2) Ayollar ovozi necha turga bo‘linadi?
- 3) Soprano ovozining diapazoni qanday?
- 4) Soprano ovozining turlari qanday?
- 5) Lirik va dramatik soprano orasidagi farqni qanday xarakterlaysiz?

Tahlil uchun topshiriq:

S.Yudakov. “Maysaraning ishi” operasidan Maysara ariyasi.

Tayanch iboralar: *ovoz hajmi, cholg‘u jo‘rligi, vokal partiya.*

53-54- DARSLAR: 2-semestr oraliq nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish

O‘quv yilining 27-haftasi mobaynida Oraliq nazorat (ON) dasturiga kiritilgan fleyta va fortepiano uchun “Lirik p‘yesa” asarini tugal variantda, jonli ijroda sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Asaringizning ijro darajasi unga berilgan bahoga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ijrochi bilan bo‘lgan tayyorgarlik jarayoniga nisbatan katta mas’uliyat bildirishingiz muhim hisoblanadi. Mazkur asarning fortepiano jo‘rligini o‘zingiz ijro etishingiz mumkin. Bu holda, siz ijodiy mahorat bilan bir qatorda, ijrochilik tajribangizni ham namoyish etib, komissiyaning yuqori darajadagi e’tiboriga sazovor bo‘lasiz. Binobarin, bastakor o‘z asarini mohirona ijro eta bilishi katta ahmiyatga ega.


Yaratgan asaringiz ijobiy baholangandagina siz semestrning Yakuniy nazorati (YaN) dasturlarini xotirjamlik bilan o‘rganishga kirishasiz. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

55-56- DARSLAR: Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish

She’riy matni kuy bilan bog‘lashda, avvalam bor she’rni, uning urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlariga e’tibor bergan holda bir necha bor ovoz chiqarib o‘qish kerak. “Sen o‘tqazib ketgan nihol” misrasini o‘qiganda, har bir so‘zdagi urg‘uni inobatga olish bilan birga, misraning “Sen”, “o‘tqazib”, “nihol” so‘zlariga ham urg‘u tushayotganini aniqlash mumkin. Shunga ko‘ra, she’rning ritmi bilan ohang ritmini quyidagicha variantlarda uyg‘unlashtirish mumkin:


Variant №1

(Andante)



Variant №2

(Andante)



Variant №3

(Andante)




Yuqoridagi birinchi va ikkinchi variantlarda misraning soʻzlari orasida sunʼiy ravishda uzilish holati yuz berdi. Yaʼni, “sen oʻtqazib” va “ketgan nihol”. Ushbu misra ifodali oʻqish vaqtida uzilishsiz yangrashi kerakligini hisobga olgan holda, uchinchi variantni tanlab olamiz.

Romansni mi minor tonalligida yaratish maqsadga muvofiq. Ushbu tonallik vokal ovozning ijro imkoniyatlarini toʻlaqonli koʻrsatish uchun qulay hisoblanadi.

Endigi navbatda, uchinchi variantda ritmik taqsimlangan sheʼriy misrani ohangga solamiz:

(Andante)



Vokal asar yaratishda ishlashning ikki yoʻli bor. Birinchi yoʻl – avval vokal partiya yaratiladi, soʻngra unga cholgʻu joʻrligi moslanadi. Ikkinchi yoʻl – vokal partiya va cholgʻu joʻrligi bir vaqtning oʻzida yaratiladi.

Professional taʼlim olayotgan bastakor ijodning ikkinchi yoʻlini tanlagani maʼqul. Negaki, asarning kuy yoʻlini yaratishda uning garmonik asosini nazarda tutish shart. Shu bilan birga, cholgʻu joʻrligi partiyasining fakturasi ham yoʻl-yoʻlakay shakllanib boraveradi.

Xonanda holatini tayyorlash uchun 4 taktli kirish hamda sheʼrning birinchi hamda ikkinchi misralariga yozilgan kuy uchun cholgʻu joʻrligini yozamiz:

Andante

The first system of the musical score consists of three staves. The top staff is a vocal line in treble clef, starting with a whole rest. The middle staff is a vocal line in treble clef with lyrics: "Sen o't-ka-zib ket-gan ni-hol o'-sib bo'-ying day bo'l - di,". The bottom staff is a piano accompaniment in bass clef, featuring a continuous eighth-note pattern in the left hand and a melodic line in the right hand. Dynamics include *mp* and *p*.

E'tibor bersangiz, romansning kirish qismi ayol obraziga xos sog'inch hissi, uning jovdirab turgan nigohi, notinch urayotgan yuragini tasvirlash bilan boshlanmoqda. Notinchlik obrazi esa, musiqada noturg'unlik vositasida aks etishi mumkin. Shuning uchun kirish qismi tonikadan emas, balki subdominantadan boshlanyapti.

Beshinchi taktdan boshlanayotgan cholg'u partiyasidagi ritmik ostinato bedorlik obrazini tasvirlaydi. O'zining farzandlarini, yoru birodarlarini urushga jo'natgan minglab ayollar front ortida tinmay mehnat qilib, askarlarning eson-omon uyga qaytishini kutganlar, tunlarni bedorlikda o'tkazganlar. Cholg'u partiyasidagi ushbu ritmik ostinatoni asarning oxirigacha saqlab qolish mumkin.

Ko'rib turganingizdek, cholg'u partiyasi asosan garmonik va ritmik vazifani bajarib, kuy yo'liga halaqit bermayapti. Bunday fakturada xonanda o'zining vokal imkoniyatlarini bema'lol amalga oshira oladi.

Asarni xuddi shu tahlit davom ettiramiz:

(Andante)

The second system of the musical score consists of three staves. The top staff is a vocal line in treble clef with lyrics: "nov-da-la-ri barg chi-qar - di, bo-shi gul-ga ko'-mil - di." The middle staff is a vocal line in treble clef. The bottom staff is a piano accompaniment in bass clef, featuring a continuous eighth-note pattern in the left hand and a melodic line in the right hand. Dynamics include *p*.

She'ning ikkinchi bandida musiqiy matoni bir oz rivojlantiramiz:

(Andante)

qa-chon se-ni ko'r- gim kel-sa ti-ki - la- man. o'- shan - ga,

ko'p nar - sa - lar ayt - gan ka - bi — qa-rab tu - ra - di man - ga.

Ko'rib turganingizdek, vokal partiya ovoz diapazoni jihatidan o'sdi. Garmonik mato mi minor tonalligidan sol major tonalligiga o'tganini ko'rish mumkin. She'riy matndagi obraz ikkinchi bandda bir oz yorug'lashgandek bo'ladi. Shu bois, musiqiy matoning garmoniyasi ham major tonalligi bo'yoqlari yordamida aks etdi. Fakturada avvaldan mavjud bo'lgan ritmik ostinato saqlanib qoldi.

Savollar:

- 1) So'z va musiqa qanday qonuniyatlar asosida bir-biri bilan bog'lanadi?
- 2) She'riy matn tanlashda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
- 3) O'zbekiston kompozitorlik ijodiyotida qaysi shoirlarning nomlari mashhur?
- 4) Vokaliz nima?
- 5) Soprano ovozi uchun qulay bo'lgan tonalliklar qaysi?

Ijodiy topshiriq:

Soprano va fortepiano uchun romansning ekspozitsion qismini yozing.

Tahlil uchun topshiriq:

S.Raxmaninov. "Ne poy, krasavitsa, pri mne..."

Tayanch iboralar: *urg'u, ohang ritmi, she'r ritmi, ifodali o'qish.*

57-58- DARSLAR: Oddiy shaklning o‘rta qismini yozish

She’ning uchinchi bandi asarning dramaturgik rivojida hal qiluvchi vazifalardan birini bajaradi. Shunga ko‘ra, uchinchi bandni musiqaga bog‘lashda musiqiy dramaturgik rivojni amalga oshirish talab etiladi. Bunday rivojni quyidagicha bajaramiz:

(Andante) *mf*

Yol-g'iz-gi-na ni-hol_ e- mas, Bu- tun_bog' i- zing-ga zor.

In - ti- zor - dir sen-ga ta- mom, in - ti- zor - dir sen-ga ta- mom

Ol - ma-zo - ru o - lu cha- zor...

She’ning uchinchi bandiga bastalangan musiqiy mato avvalgi matodan farq qiladi. Unda ritmik ostinatoning yo‘qolishi, shu bilan birga, yolg‘iz qalbning armon va o‘kinch hissiga to‘lishi bilan bog‘liq obraz yuzaga keladi. Shuning uchun vokal partiyaning she’riy kuylanishida ovozning yolg‘iz qolish hollari, fortepiano va ovoz o‘rtasidagi dialog shaklidagi munosabatlar ikkala musiqiy ifoda vositasi bir-birini to‘ldirgani kabi harakat qiladi. She’riy obrazga xos betoqatlik xarakteri “intizordir senga tamom” misrasining ikki marta ishlatilishi bilan ifodalanadi.

Vokal musiqaning eng yorqin ko‘rinishlaridan biri – vokaliz.¹³ Ushbu vokal shakl jahon musiqa tarixiga oid vokal durdonalarining barchasida uchraydi. Biz yaratayotgan romansda ham ushbu vokal shaklni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababdan, ayni damda vokaliz shaklidan foydalanish badiiy-estetik nuqtai nazardan katta samara beradi. Negaki, shu davrgacha she’riy matnning

¹³ Vokaliz – xonandalar so‘zsiz aytadigan mashq yoki etyudlar. Vokaliz biron unli harfda kuylanib, vokal ovozni yuksaltirish, texnik qiyinchiliklarni o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi.

barcha bandlari navbatma-navbat, muayyan tanaffussiz kuylandi. To‘rtinchi bandda yuzaga keladigan avj pardasiga yetishish oldidan vokalizni qo‘llash va avjga qadar xonandaga bir oz tanaffus berish foydali hisoblanadi.

Vokal partiyadagi tanaffusning o‘rnini cholg‘u partiyasi egallashi shart. Ya’ni, do majorda ifodalanadigan avjning tayyorlanishi aynan cholg‘u partiyasi yordamida yuz beradi:

(Andante)

Keyingi navbatda, asarning to‘rtinchi bandini musiqaga bog‘lash vazifasi turibdi. To‘rtinchi she’riy band romansning avj nuqtasidir. Bunda sog‘inch hissi o‘zining eng yuqori nuqtasiga erishadi. Shunga ko‘ra, musiqiy mato o‘zining dramatik ifodasiga, vokal partiya esa, o‘zining yuqori pardasiga etishi kerak bo‘ladi:

Men gul-lar-dan bog'-lar - dan ham so- g'in - gan-man or - tiq-

roq. Er - ta-roq kel yu- rak - bag' - rim,

Savollar:

- 1) Asarning avj nuqtasi deganda nimani tushunasiz?
- 2) Sopranoning avj pardalari qaysi tovushlarga to'g'ri keladi?
- 3) Soprano yuqori registrda qanday yangraydi?
- 4) Asarning avj nuqtasida fortepiano partiyasi qanday vazifa bajarishi kerak?

Ijodiy topshiriq:

Ovoz va fortepiano uchun romansning o'rta qismini yozing.

Tahlil uchun topshiriq:

F.Shubert. "Prekrasnaya melnichixa" vokal turkumidan № 3, 4.

Tayanch iboralar: *dramaturgik rivoj, ostinato, xarakter, avj parda.*

59-60- DARSLAR: Oddiy shaklning reprizasiini yozish

Keyingi navbatda romansning reprizasi turibdi. Repriza boshlang'ich mi minor tonalligida yangrashi kerak. Yuz bergan dramatik avjdan keyin repriza sokin xarakterda yangrashi uchun musiqiy matoda ushbu sokinlikni tayyorlab berish talab etiladi. Bunday tayyorgarlik cholg'u partiyasi zimmasiga tushadi. Negaki, yuqori pardalarda o'z ifodasini topgan avjdan keyin xonandaga bir oz dam berib, kerakli sokinlik obraziga kirib olishi uchun sharoit yaratib berish zarur. Shu nuqta nazardan, mi minorga modulyastiya qilish maqsadida fortepiano partiyasida to'rt taktlik solo yozamiz. Ushbu solo romansning reprizasini tayyorlaydi:

mp
Sen o't - ka zib_ ket - gan ni-hol o' sib_ bo' ying - day__ bo'l -

p
di, nov - da - la - ri barg chi qar - di,

bo - shi_ gul - ga ko' mil - - di.

pp
o...

p

Asarning repriza qismi aniq repriza emas. Unda cholgʻu partiyasi muayyan oʻzgarishni boshdan kechiradi. Asarning boshida oʻrin egallagan ritmik ostinato garmonik figuratsiya bilan almashgan. Reprizaning bu tahlit oʻzgarishi dramaturgik rivoj taʼsirida yuz berib, asarning mantiqiy tugal boʻlishiga xizmat qiladi.

Asarning soʻnggi nuqtasi vokaliz vositasida shakllanadi. Yaʼni, vokal partiyada “o” harfiga kuylanadigan soʻnggi tovush cholgʻu partiyasidagi garmonik figuratsiya joʻrligida davom etadi va yakunlanadi.

* * *

Romans shakl jihatidan o'z nihoyasiga etdi. Endigi navbatda uni musiqiy tahrir qilish kerak. Avvalam bor, vokal partiyadagi she'riy matnни e'tibor bilan tekshirib chiqish lozim. Undagi unli va undosh tovushlarning to'g'ri almashinuvi, shoir matnining aniq aks etishi va musiqiy ifodaning talaffuzga xalaqit bermasligi talab etiladi.

Keyingi navbatda asarning ritmik va garmonik vositalarini tekshirish kerak. Garmoniya musiqiy matodagi mantiqiy vazifani bajargani bois, ifodaning ravonligiga e'tibor qaratish lozim.

Eng oxirgi navbatda, asarning dinamik belgilari qo'yiladi.

Romansning so'nggi ko'rinishi quyidagicha bo'ladi¹⁴:

"Nihol"

soprano va fortepiano uchun romans

H.Olimjon se'ri
M.Mansurov musiqasi

Andante

5
Sen o't-ka-zib ket-gan ni-hol o'-sib bo'-ying - day bo'l - di,

9
nov-da-la-ri barg chi-qar - di, bo-shi gul-ga ko'-mil - di.

¹⁴Ushbu romans O'zbekiston davlat konservatoriyasi talabasi Mirzajon Mansurov tomonidan ustoz, bastakor Oydin Abdullayeva rahbarligida yaratilgan.

13

qa-chon se-ni ko'r- gim kel-sa ti-ki - la- man o'- shan - ga, ko'p nar-sa-lar ayt-gan ka-bi...

17

qa-rab tu-ra - di man - ga. Yol-g'iz-gi-na ni- hol__ e- mas,

21

Bu- tun_ bog' i- zing - ga zor...

24

In - ti- zor - dir sen-ga ta- mom, in - ti- zor - dir sen-ga ta- mom

27

Ol - ma-zo-ru o - lu cha- zor...

31

34

f

Men gul-lar-dan bog'-lar - dan ham so- g'in - gan-man or - tiq-

37

roq. Er-ta-roq kel yu- rak - bag' - rim, Yol-g'iz-gi- nam kel__ tez

41

roq.

44

mp

Sen o't - ka zib ket-gan ni-hol

p

48

o' sib_ bo' ying - day_ bo'l - di, nov - da - la-ri barg chi qar -

51

- di, bo - shi_ gul - ga ko' mil - -

53

- di, o...

pp

p

Savollar:

- 1) Ritmik ostinato nima?
- 2) Garmonik figuratsiya nima?
- 3) Xonanda ovozni qancha vaqt cho'zib tura oladi?
- 4) Talaffuz nima? Uning ahamiyati nimadan iborat?
- 5) She'riy va musiqiy matn mutanosibligi deganda nimani tushunasiz?
- 6) Sezura nima?

Ijodiy topshiriq:

Ovoz va fortepiano uchun romansning reprizasini yozing.

Tahlil uchun topshiriq:

F.Shubert. "Prekrasnaya melnichixa" vokal turkumidan № 5, 6.

Tayanch iboralar: *garmonik figuratsiya, musiqiy ifoda, talaffuz, ravonlik.*

61-DARS: Asarning ijrosini tayyorlash

Romansni ijro ettirish uchun soprano ovoz sohibi va fortepiano ijrochisini tanlash lozim. Ikkala ijrochi uchun avvaldan tayyorlab qo'yilgan nota nusxalari taqdim etiladi. Ijrochilarda asar xususida kerakli taassurot uyg'otish maqsadida, bastakor tomonidan asarni yuqori darajada ijro etib ko'rsatish tavsiya etiladi. Negaki, ijrochilarda tug'iladigan birinchi taassurot asarning keyingi muvaffaqiyatini belgilaydi (10-darsga qarang).

Savollar:

- 1) Kuylash uslublarining turlari qanday?
- 2) Rechitativ kuylash uslubiga jahon musiqasidan misollar keltiring.
- 3) Ariyasimon kuylash uslubiga jahon musiqasidan misollar keltiring.
- 4) Deklamatsiyaga misollar keltiring.

Tahlil uchun topshiriq:

S.Yudakovning "Kuylama, sohibjamol..." romansini tahlil qiling.

Tayanch iboralar: *ijodiy hamkorlik, badiiy g'oya, musiqiy mato.*

62-DARS: Qashqar rubobi va fortepiano uchun pyesa yaratish

Xalq cholg'ulari uchun asar yozish har qanday ijodkor uchun sharaflilik hisoblanadi. O'z xalqining milliy cholg'usi uchun asar yaratish ekan, ijodkor ushbu cholg'u bilan yaqindan tanishadi, uni har tomonlama kengroq anglaydi. Shu yo'l bilan ijodkor o'z xalqining milliy musiqiy merosi ravnaqi uchun xizmat qilishga qolmay, balki ushbu cholg'uning ijrochilik salohiyati doirasining kengayishini ta'minlagan bo'ladi.

O'zbek musiqasi merosiga tegishli bo'lgan cholg'ular talaygina. Ularning har biri o'zining xarakteri, milliy ma'naviy-musiqiy qiyofasiga ega. Har bir cholg'u o'zining boy ijrochilik imkoniyatlari bilan qimmatlidir.

Qashqar rubobi xalq cholg'ulari orasida keng tarqalgan cholg'udir. Unda milliy kuylar bilan bir qatorda, jahon xalqlari musiqasi ham birdek muvaffaqiyatli yangraydi.

Kichik oktavadagi "si" tovushidan uchinchi oktavadagi "lya" tovushiga qadar davom etadigan ovoz hajmi ijodkor va ijrochi uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Quyi torning ichakdan, yuqori torlarning esa metallardan yasalgani ushbu cholg'uda ikki xil tembr bo'yog'ining mavjud bo'lishiga imkon yaratadi.

Jarangdor, yangroqi bo'lgan qashqar rubobi kontsert ijrochiligi amaliyotida eng mashhur cholg'ulardan biri sanaladi. Mediator, ya'ni mizrob yordamida chalinadigan ushbu cholg'uda xilma-xil melizmlarni qo'llash mumkin. Melizmlarni ifodalashda chap qo'l barmoqlarining chaqqonligi-yu, o'ng qo'lning sezgirliги hamda ikkala qo'lning mutanosiblikda bo'lishi muhim rol o'ynaydi.

Savollar:

- 1) Xalq cholgʻulari deganda nimani tushunasiz?
- 2) Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri tarkibidagi cholgʻular necha guruhga boʻlinadi?
- 3) Qashqar rubobining kelib chiqishini aytib bering.
- 4) Qashqar rubobining ijro imkoniyatlari qanday?
- 5) Qashqar rubobining repertuar doirasiga qanday asarlar kiradi?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Петросянц А. Инструментоведение “Узбекские народные инструменты, 3-е издание. Т., 1990.
2. Abdullaeva O. Ansambl cholgʻularini oʻrganish. Т., 2006.

Tayanch iboralar: *milliy cholgʻu, ijrochilik salohiyati, maʼnaviy-musiqiy qiyofa.*

**63-64-DARSLAR: Melodiya. Faktura. Garmoniya. Ritm.
Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish**

Qashqar rubobining ochiq torlari: notada yozilishi boʻyicha birinchi oktavadagi “lya” (qoʻshaloq tor), birinchi oktavadagi “mi” (qoʻshaloq tor), kichik oktavadagi “si”ga sozlanadi. Qashqar rubobi uchun notalar eshitilishiga nisbatan bir oktava baland yoziladi.

Har bir cholgʻu uchun asar yaratayotganda, maʼlum bir cholgʻu uchun muayyan tonalliklar qulay boʻlishini nazarda tutish muhim hisoblanadi. Masalan, qashqar rubobi uchun lya-minor, lya-major, si-minor, mi-minor, re-minor kabilar juda qulay hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan tonalliklardan birini tanlab, qashqar rubobi uchun kuy yozamiz:

Allegretto

Ushbu kuy fortepiano cholgʻusining garmonik joʻrligida yangrashini taqozo etadi. Shunga koʻra, unga fortepiano joʻrligini yozamiz. Joʻrluk partiyasi gomofon-garmonik fakturada aks etadi:

Allegretto

The musical score consists of three systems. The first system shows a piano accompaniment with a forte (f) dynamic in the right hand and mezzo-forte (mf) in the left hand, and a vocal line. The second system continues the piano accompaniment and vocal line. The third system concludes the piano accompaniment and vocal line.

Ko‘rib turganingizdek, fortepiano partiyasi mustaqil bo‘lib, qashqar rubobining kuy yo‘liga xalaqit bermaydi. Unga garmonik ravishda hamroh bo‘lib, boshqa ladlar bilan munosabat qilishini qo‘llaydi.

Keyingi navbatda, kuyni rivojlantirish fortepiano cholg‘usiga havola etiladi. Odatda, fortepiano jo‘rligidagi duetlarda ushbu cholg‘uning asardagi yetakchilik vazifasini yanada ko‘rsatish uchun unga yakkanavozlik qilish imkoniyati ham beriladi.

(Allegretto)

The musical score consists of two systems. The first system shows a piano accompaniment with a forte (f) dynamic and a vocal line. The second system continues the piano accompaniment and vocal line.

Fortepiano partiyasining bu yerdagi yana bir vazifasi oddiy uch qisimli shaklning birinchi qismini tugallab, ikkinchi qismi boshlanishidan oldin kerakli bo‘lgan tonallikni tayyorlab berishdan iborat bo‘ldi.

Savollar:

- 1) Qashqar rubobi qanday cholg'u?
- 2) O'zbek xalq cholg'ulari qanday guruhlanadi?
- 3) Qashqar rubobining ijro imkoniyatlari nimalardan iborat?
- 4) Mediator nima?
- 5) Melizm nima?
- 6) Qashqar rubobi uchun qulay bo'lgan tonalliklar qaysi?

Ijodiy topshiriqlar:

- 1) Qashqar rubobi uchun 3 ta mavzu yozing.
- 2) Qashqar rubobi va fortepiano ijrosi uchun mo'ljallangan kuyning ekspozitsion qismini yozing.

Tayanch iboralar: *duet, kuy yo'li, yakkanavozlik.*

65-66- DARSLAR: Oddiy shaklning o'rta qismini yozish

P'yesaning o'rta qismini yozishga kirishamiz...

Oddiy shaklning birinchi qismi si-minor tonalligidan sol-major tonalligiga modulyastiya jarayonini boshdan kechirdi va yangi tonallikda tugadi. Demak, o'rta qismdagi yangi mavzu sol-major tonalligida yangrashi kerak. Ikkinchi mavzu avvalgisiga nisbatan lirik xarakterda namoyon bo'ladi:

(Allegretto)

mf cantabile

The musical score consists of three staves. The top staff is a vocal line in D major, starting with a quarter note G4, followed by eighth notes A4, B4, and A4, then a quarter note G4. The second measure contains a quarter note F#4, followed by eighth notes G4, A4, and B4, then a quarter note A4. The third measure has a half note G4, and the fourth measure has a half note F#4. The piano accompaniment starts with a quarter rest, followed by a quarter note G2, then a quarter rest. The second measure has a quarter rest, followed by a quarter note G2, then a quarter rest. The third measure has a quarter rest, followed by a quarter note G2, then a quarter rest. The fourth measure has a quarter note G2, followed by eighth notes A2, B2, and A2, then a quarter note G2.

Ikkinchi mavzu o‘zbek xalq kuylari xarakterida bo‘lib, lirik-jozibador qiyofada shakllandi. Shunga ko‘ra, fortepiano partiyasi ham doira usulini eslatuvchi ritmik shaklga o‘zgardi. Ushbu ritmik shakl o‘ng qo‘ldagi akkordlar bilan garmonik mustahkamlangan.

Ikkinchi mavzu o‘zining keyingi rivojlanishida turli tonal munosabatlarni boshdan kechiradi. Forteplano partiyasining o‘ng qo‘lida esa melodik-garmonik yo‘l paydo bo‘lib, qashqar rubobining mavzusi bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.

Ushbu bo‘limda asarning o‘ziga xos avjini ham kuzatamiz:

The musical score consists of three systems, each with three staves. The top staff is a vocal line in D major. The first system starts with a quarter note G4, followed by eighth notes A4, B4, and A4, then a quarter note G4. The second system starts with a quarter note G4, followed by eighth notes A4, B4, and A4, then a quarter note G4. The piano accompaniment starts with a quarter note G2, followed by eighth notes A2, B2, and A2, then a quarter note G2. The second system has a quarter note G2, followed by eighth notes A2, B2, and A2, then a quarter note G2. The third system has a quarter note G2, followed by eighth notes A2, B2, and A2, then a quarter note G2. The piano accompaniment starts with a quarter note G2, followed by eighth notes A2, B2, and A2, then a quarter note G2. The second system has a quarter note G2, followed by eighth notes A2, B2, and A2, then a quarter note G2. The third system has a quarter note G2, followed by eighth notes A2, B2, and A2, then a quarter note G2.

Savollar:

- 1) Modulyatsiya nima?
- 2) Doira usuli deganda nimani tushunasiz?
- 3) Avj deganda nimani tushunasiz?
- 4) **Cantabile** atamasi nimani anglatadi?

Ijodiy topshiriq:

Qashqar rubobi va fortepiano uchun asarning oʻrta qismini yozing.

Tahlil uchun topshiriq:

M.Bafojev. “Poema”, qashqar rubobi va fortepiano uchun.

Tayanch iboralar: *doira usuli, akkord, mavzu.*

67-68 DARSLAR: Oddiy shaklning repriza qismini yozish

Asarning repriza qismini yozishga kirishamiz...

Repriza aniq boʻladi. Unga oʻzgartirish kiritmaymiz. Qashqar rubobi partiyasidagi kuy yoʻli, fortepiano joʻrligi oʻzgarishsiz qoladi:

(Allegretto)

The musical score is written for a single instrument, likely a piano, in 6/8 time and D major. It consists of two systems. The first system has a treble clef with a melody starting on G4, marked 'f' (forte). The piano accompaniment has a right hand with chords marked 'mf' (mezzo-forte) and a left hand with a bass line. The second system continues the melody and accompaniment.

The first system of the musical score consists of three staves. The top staff is a single melodic line in treble clef. The bottom two staves are a grand staff (treble and bass clefs) providing harmonic accompaniment. The key signature has two sharps (F# and C#), and the time signature is 6/8. The music features a steady eighth-note melody in the upper voice and a more complex accompaniment in the lower voices.

Qashqar rubobi va fortepiano uchun bu pyesani “Bolalik kemasi” deb nomlaymiz. Asar shaklan o‘z nihoyasiga yetganidan so‘ng, uni musiqiy tahrir qilish ishlari boshlanadi. Unga shartli belgilar, dinamika va shtrixlar qo‘yish zarur bo‘ladi.

Musiqiy tahrir natijasida pyesa quyidagi ko‘rinishga keladi:

Bolalik kemasi

qashqar rubobi va fortepiano uchun p'esa

Oydin Abdullayeva

Allegretto

The second system of the musical score continues the composition. It features a treble clef staff with a melody and a grand staff accompaniment. The tempo marking *Allegretto* is present. Dynamic markings include *f* (forte) for the upper voice and *mf* (mezzo-forte) for the accompaniment. The key signature and time signature remain consistent with the first system.

The third system of the musical score continues the composition. It features a treble clef staff with a melody and a grand staff accompaniment. The key signature and time signature remain consistent with the previous systems.

The fourth system of the musical score continues the composition. It features a treble clef staff with a melody and a grand staff accompaniment. The key signature and time signature remain consistent with the previous systems.

22

mf cantabile

p

29

36

43

50

56

63

70

Savollar:

- 1) Qashqar rubobining ovoz hajmi qanday?
- 2) Qashqar rubobining ochiq torlarini aytib bering.
- 3) Qashqar rubobining ijro imkoniyatlari nimalardan iborat?

Ijodiy topshiriq:

Qashqar rubobi va fortepiano uchun pyesaning repriza qismini yozing.

Tahlil uchun topshiriq:

O.Abdullayeva. Kontsert, qashqar rubobi va fortepiano uchun.

Tayanch iboralar: *dinamika, shtrix, badiiy obraz.*

69-70 DARSLAR: Asarning ijrosini tayyorlash

Qashqar rubobi va fortepiano uchun yaratilgan asarni ijro ettirish uchun qashqar rubobi va fortepiano ijrochilarini tanlash lozim. Ikkala ijrochi uchun avvaldan tayyorlab qo'yilgan nota nusxalari taqdim etiladi. Ijrochilarda asar xususida kerakli taassurot uyg'otish maqsadida, asar haqida batafsil ma'lumot berish tavsiya etiladi. Negaki, ijrochilarda hosil bo'ladigan birinchi taassurot asarning keyingi muvaffaqiyatini belgilaydi (10-darsga qarang).

Savollar:

- 1) Qashqar rubobining ovoz diapazoni qanday?
- 2) Qashqar rubobi qulay bo'lgan tonalliklar qaysi?
- 3) Qashqar rubobiga xos xususiyatlarni tushuntiring.
- 4) Applikatura nima?

Tahlil uchun topshiriq:

A. Boboxonovning "Hurram" asarini tahlil qiling.

Tayanch iboralar: *ijodiy hamkorlik, ovoz diapazoni, musiqiy mato.*

71-72- DARSLAR: 2-semestr Yakuniy nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish

O'quv yilining 36-haftasi mobaynida Yakuniy nazorat (YaN) dasturiga kiritilgan – ovoz va fortepiano uchun Romans hamda qashqar rubobi va fortepiano uchun "Bolalik kemasi" nomli pyesani belgilangan muddatlarda sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Asar har doimgidek tugal variantda, jonli ijroda yangrashi shart. Asarning ijro sifati unga berilgan bahoga katta ta'sir ko'rsatishini unutmang. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

O'quv rejadagi semestr fanlarini ham topshirib, keyingi semestrda o'qishingizni davom ettirishingiz mumkinligi hech qachon yodingizdan chiqmasin!

**2-semestrda o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun
TESTLAR**

№	Test topshirig‘i	“A”	“B”	“C”	“D”
1	Aranjirovka qilishda ish jarayonining ketma-ketligi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.	Kuy. Garmoniya. Ritm. Bas.	Bas. Ritm. Garmoniya. Kuy.	Garmoniya. Ritm. Bas. Kuy.	Ritm. Bas. Garmoniya. Kuy.
2	Aranjirovkaning ritmik asosiga nimalar kiradi?	Zarbli cholg‘ular va bas.	Kuy va akkompanement.	Kuy va zarbli cholg‘ular.	Kuy va garmoniya.
3	Quyidagi javoblar ichida virtual Drum mashinani toping.	Battery.	Halion One.	Hypersonic.	Absynth.
4	Bas gitarada qo‘llaniladigan shtrix va ijro usullariga aloqasi bo‘lmagan javobni toping.	Sordino.	Slap.	Fretless.	Finger.
5	Cubase va Nuendo musiqiy program-malarining farqi nimada?	Cubase da midi fayllar bilan ishlash qulayligi; Nuendo da audio fayllar bilan ishlash qulayligi.	Farq “Cubase”da midi fayllar bilan ishlash, “Nuendo”da audio fayllar bilan ishlash qulayligida.	Farqi yo‘q.	Cubase da videolavxalar bilan ishlash qulayligi; Nuendo da videolavxalar bilan ishlash noqulayligi
6	Tovushga dinamik ishlov berishda qaysi plagindan foydalanilmaydi?	Rever.	Maksimayzer.	Lemiter.	Kompressor.
7	Studiya monitorlarining turlari	Yaqin, o‘rta va uzoq.	Markaziy va yon.	O‘rta, uzoq va markaziy.	Markaziy.
8	Aktiv va passiv monitorlarning o‘zaro farqi nimada?	Aktiv monitorlar ga kuchaytirgich o‘rnatilgan, passiv monitorlarga esa yo‘q.	Aktiv monitorlar ga kuchaytirgich o‘rnatilmagan, passiv monitorlarga esa o‘rnatilgan.	Aktiv monitorlarga ekvalayzer o‘rnatilgan, passiv monitorlarga esa yo‘q.	Bu ikki monitoring farqi yo‘q.
9	Audio kartalarning qanday turlari mavjud?	Disstantsion.	Ichiga joylashtiriladigan.	Tashqi.	Ichki.
10	Qaysi programmada semplar yordamida musiqa yaratish mumkin?	Cubase.	Nero.	Ssleaner.	Windowsplayer.
11	Sempl bu -	Tovushning nisbatan katta bo‘lmagan lavxasi.	Midi tovush.	Doiraning zarbi.	Plagin.

12	Sempler nima?	Sempler bu elektron musiqiy asbob bo'lib, yozib olish, taxrir qilish va eshittirish xususiyatlariga ega.	Sempler bu elektron musiqiy asbob bo'lib, midi tovushlarni eshittirish xususiyatlariga ega.	Sempler bu doira zarbini eshittira oladigan elektron musiqiy asbob.	Sempler bu turli plaginlar yig'indisi.
13	VST plagin nima?	Bu -tovushga ishlov beruvchi programma-lashtirilgan audio effektlar.	Bu- tovushni shakllantiruvchi elektron musiqiy asbob, programmali sintezator yoki sempler.	Bu- virtual studiya.	Bu- etno-sempllar to'plami.
14	Mac osx sistemasida qo'llaniladigan musiqiy programmani toping.	Cubase.	Nuendo.	Sound Forge.	Frutte Loops.
15	Quyida keltirilgan misollar ichida VSTi plaginni toping.	Halion One.	Delay.	Chorus.	Flanger.
16	VSTi plagin bu:	Tovushni shakllantiruvchi elektron musiqiy asbob, programmali sintezator yoki sempler.	Virtual studiya.	Tovushga ishlov beruvchi programma-lashtirilgan audio effektlar.	Etno-sempllar to'plami.
17	Quyida keltirilgan misollar ichida VST plaginni toping.	Modulation.	Albino.	RMX.	Kontakt.
18	Estrada-simfonik orkestr cholg'ulari necha guruhga bo'linadi?	5	4	10	3
19	Estrada-simfonik orkestrga qaysi guruhlar kiradi?	yog'och damli cholg'ular va saksofonlar, mis damli cholg'ular, sintezatorlar, torli-kamonli cholg'ular, elektr va usul beruvchi zarbli cholg'ular.	Xalq cholg'ulari, urma zarbli cholg'ular.	Torli cholg'ular, xalq cholg'ulari.	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular.
20	Partitura nima?	estrada-simfonik orkestri cholg'ularining partiyalarini aks ettiruvchi nota kitobi.	nasriy yoki she'riy asarning yozuvi.	rang-tasvir asari.	fortepiano uchun yozilgan asar.

21	Partiturada cholg'ular guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	yog'och damli cholg'ular va saksafonlar, mis damli cholg'ular, sintezatorlar, torli-kamonli cholg'ular, elektr va usul beruvchi zarbli cholg'ular.	mis damli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, torli cholg'ular.	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, torli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular.	urma zarbli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, torli cholg'ular.
22	Transpozitsiya qilinadigan cholg'ular qaysilar?	klarnet, saksafonlar, truba, valtorna, kontrabas, bas-gitara.	gitara, fortepiano, skripka, goboy.	alt, tuba, klarnet, arfa.	violonchel, skripka, tuba.
23	Simfonik orkestrda cholg'ular guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	torli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular.	mis damli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, torli cholg'ular.	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, torli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular.	urma zarbli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, torli cholg'ular.
24	Torli cholg'ulardan qaysi biri transpozitsiya qilinadi?	kontrabas.	Skripka.	Alt.	Violonchel.
25	Transpozitsiya nima?	boshqa tovush balandligiga ko'chirish.	Qisqartirish.	qaytarib chalish.	sur'atni o'zgartirish.
26	Duet nima?	ikki kishilik ansambl.	besht kishilik ansambl.	uch kishilik ansambl.	to'qqiz kishilik ansambl.
27	Trio nima?	uch kishilik ansambl.	etti kishilik ansambl.	sakkiz kishilik ansambl.	ikki kishilik ansambl.
28	Kvartet nima?	to'rt kishilik ansambl.	bir kishilik ansambl.	uch kishilik ansambl.	to'qqiz kishilik ansambl.
29	Fortepiano triosida qaysi cholg'ular qatnashadi?	skripka, violonchel, fortepiano.	fleyta, truba, kontrabas.	Alt, truba litavra.	fagot, trombon, baraban.
30	Torli kvartetda qaysi cholg'ular qatnashadi?	ikkita skripka, alt, violonchel.	fleyta, goboy, alt, violonchel.	skripka, fleyta, goboy, alt.	valtorna, truba, trombon, tuba.
31	Fortepiano kvintetida qaysi cholg'ular qatnashadi?	2 ta skripka, alt, violonchel, fortepiano.	2 ta violonchel, fleyta, tuba, litavra.	2 ta valtorna, truba, trombon, tuba.	2 ta skripka, alt, violonchel, kontrabas.
32	Trel nima?	ijro usuli.	uch kishidan tuzilgan ansambl.	urma zarbli cholg'u.	uch notadan tuzilgan ritmik shakl.
33	Unison nima?	ansamblda bir ovoqli chalish.	to'rt ovoqli tuzilma.	kamer ansambl.	uch ovoqli ansambl.

34	Tremolo nima?	ijro usuli	uch kishidan tuzilgan ansambl	urma zarbli cholg' u	uch notadan tuzilgan ritmik shakl.
35	“Arco” atamasi nimani anglatadi?	kamon bilan chalish	puf lab chalish	urib chalish	tirnab chalish.
36	“Pizzicato” atamasi nimani anglatadi?	tirnab chalish	urib chalish	puf lab chalish	kamon bilan chalish.
37	Kamerton nima?	musiqiy tonni belgilaydigan moslama	garmonik ohangdosh tovushlar	sur'atni belgilaydigan moslama	cholg' u asbob.
38	Manual nima?	klaviatura	applikatura	cholg' u asbobi	ijro uslubi.
39	“Divisi” atamasi nimani anglatadi?	bo' linib chalish	qisqartirib chalish	transport qilib chalish	takrorlash.
40	Diapazon nima?	eng past va eng baland tovush oralig' i	garmonik ohangdosh tovushlar	sozlaydigan moslama	cholg' u asbob
41	Detashe nima?	torli cholg' ularning ijro usuli	urma zarbli cholg' ularning ijro usuli	yog' och damli cholg' ularning ijro usuli	mis damli cholg' ularning ijro usuli
42	“Cholg' ushunoslik” fani nimani o' rganadi?	cholg' ular haqidagi bilimlarni o' rgatadi	Musiqqa tarixi asoslarini o' rgatadi	Musiqqa nazariyasiga taalluqli fandır	Cholg' ular yasashni o' rgatadi
43	“Cholg' ushunoslik” fanini quyidagi fanning nazariy qismi, deb belgilash mumkin?	Cholg' ulashtirish	Polifoniya	Solfedjio	Garmoniya
44	O'zbek xalq cholg' ularidan tashkil topgan orkestrlar qachon shakllana boshlagan?	XX asrning 1-yarmida	XXI asrning boshida	XX asrning 2-yarmida	Miloddan avval
45	O'zXChO necha ovozli musiqalarni ijro eta oladi?	Ko' p ovozli	1 ovozli	2 ovozli	3 ovozli
46	O'zXChO nechta cholg' ular guruhidan iborat?	5 ta	2 ta	3 ta	10 ta
47	Partitura bo' yicha nay, kichik nay nechanchi cholg' ular guruhi tarkibiga kiradi?	1-guruhga	2-guruhga	4-guruhga	5-guruhga
48	Partitura bo' yicha changlar nechanchi cholg' ular guruhi tarkibiga kiradi?	2-guruhga	1-guruhga	3-guruhga	4-guruhga
49	Partitura bo' yicha qashqar ruboblari nechanchi cholg' ular guruhi tarkibiga kiradi?	3-guruhga	2-guruhga	1-guruhga	5-guruhga
50	Partitura bo' yicha nog' oralari nechanchi cholg' ular guruhi tarkibiga kiradi?	4-guruhga	1-guruhga	2-guruhga	3-guruhga

51	O'zXChOning to'rtinchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradigan cholg'ularni belgilang	Litavralar, nog'ora, doyra, qayroq, safoyl, kichik va katta barabanlar, buben, zil (tarelkalar) va b.	G'ijjak-alt, g'ijjak-qobuz bas	Nay, qo'shnay	Qashqar rubobi, dutor-kontrabas
52	O'zXChOning uchinchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradigan cholg'ularni belgilang	Rubob prima, qashqar rubobi, Afg'on rubobi, dutor, dutor-bas, dutor kontrabas	Nay, surnay	G'ijjak-qobuz bas, g'ijjak-qobuz kontrabas	Changlar
53	O'zXChOning ikkinchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradigan cholg'ularni belgilang	Changlar	G'ijjak, g'ijjak-qobuz bas	Surnay, karnay	Dutor, dutor-bas Nog'oralar va boshqa zarbli cholg'ular
54	O'zXChOning birinchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradigan cholg'ularni belgilang	Kichik nay, nay, qo'shnay, surnay (karnay ham ishlatilishi mumkin)	G'ijjak, g'ijjak-alt, g'ijjak-qobuz bas, g'ijjak-qobuz kontrabas	Dutor-bas, dutor kontrabas	Shiqqildoq, qo'ng'iroqchalar
55	Partiturada O'zXChOning 1-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Damli cholg'ular guruhi	Torli-urma cholg'ular guruhi	Torli-chertma (mizrobli) cholg'ular guruhi	Zarbli, torli-kamonli cholg'ular guruhi
56	Partiturada O'zXChOning 2-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Torli-urma cholg'ular guruhi	Damli cholg'ular guruhi	Torli-chertma (mizrobli) cholg'ular guruhi	Zarbli cholg'ular guruhi
57	Partiturada O'zXChOning 3-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Torli-chertma (mizrobli) cholg'ular guruhi	Damli cholg'ular guruhi	Torli-urma cholg'ular guruhi	Torli-kamonli cholg'ular guruhi
58	Partiturada O'zXChOning 4-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Zarbli cholg'ular guruhi	Torli-urma cholg'ular guruhi	Torli-chertma (mizrobli) cholg'ular guruhi	Torli-kamonli cholg'ular guruhi
59	Partiturada O'zXChOning 5-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Torli-kamonli cholg'ular guruhi	Damli cholg'ular guruhi	Torli-chertma (mizrobli) cholg'ular guruhi	Zarbli cholg'ular guruhi
60	Transpozitsiya qilinadigan cholg'ularni belgilang	Kichik nay, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor kontrabas, qo'ng'iroqchalar, g'ijjak kontrabas	Baraban, chang, nay	Litavralar, doyra va boshqa zarbli cholg'ular	Barcha torli-chertma (mizrobli) cholg'ular
61	Kichik nay qanday nomlanadi?	Nay-pikkolo	Surnay	Karnay	Qo'shnay

62	Nay pikkoloning yozilishi bo'yicha diapazonini belgilang	“Re” birinchi oktavadan – “Sol” uchinchi oktavagacha	“Lya” birinchi oktavadan – “Re” to‘rtinchi oktavagacha	“Si” kichik oktavadan – “Sol” uchinchi oktavagacha	“Re” birinchi oktavadan – “Sol” ikkinchi oktavagacha
63	Nay pikkoloning eshitalishi bo'yicha diapazonini belgilang	“Re” ikkinchi oktavadan – “Sol” to‘rtinchi oktavagacha	Yozilganidek eshitaladi	“Si” kichik oktavadan – “Sol” uchinchi oktavagacha	“Lya” birinchi oktavadan – “Re” to‘rtinchi oktavagacha
64	Nayning diapazonini belgilang	“Lya” birinchi oktavadan – “Re” to‘rtinchi oktavagacha	“Re” birinchi oktavadan – “Sol” uchinchi oktavagacha	“Si” kichik oktavadan – “Sol” uchinchi oktavagacha	“Re” birinchi oktavadan – “Sol” ikkinchi oktavagacha
65	Surnayning diapazonini belgilang	“Si” kichik oktavadan – “Sol” uchinchi oktavagacha	“Re” birinchi oktavadan – “Sol” uchinchi oktavagacha	“Lya” birinchi oktavadan – “Re” to‘rtinchi oktavagacha	“Re” birinchi oktavadan – “Sol” ikkinchi oktavagacha
66	Qo‘shnayning diapazonini belgilang	“Re” birinchi oktavadan – “Sol” ikkinchi oktavagacha	“Re” birinchi oktavadan – “Sol” uchinchi oktavagacha	“Lya” birinchi oktavadan – “Re” to‘rtinchi oktavagacha	“Si” kichik oktavadan – “Sol” uchinchi oktavagacha
67	Changning diapazonini belgilang	“Sol” kichik oktavadan – “Fa diyez” uchinchi oktavagacha	“Sol” kichik oktavadan – “Mi bemol” to‘rtinchi oktavagacha	“Do” birinchi oktavadan – “Do” to‘rtinchi oktavagacha	“Re” kichik oktavadan – “Re” uchinchi oktavagacha
68	Rubob-prima cholg‘usining sozlanishi qanday?	«Mi» ikkinchi oktava, «Lya» birinchi oktava, «Re» birinchi oktava, «Sol» kichik oktava	«Mi» uchinchi oktava, «Lya» ikkinchi oktava, «Re» ikkinchi oktava, «Sol» birinchi oktava	«Re» ikkinchi oktava, «Sol» birinchi oktava, «Do» birinchi oktava, «Fa» kichik oktava	«Do» ikkinchi oktava, «Fa» birinchi oktava, «Si bemol» kichik, «Mi bemol» kichik oktava
69	Rubob-prima cholg‘usining diapazoni qanday?	«Sol» kichik oktavadan – «Mi» 4-oktavagacha	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan – «Lya» 3-oktavagacha	«Mi» yoki «Re» kichik oktavadan – «Si» 2-oktavagacha	«Do» katta oktavadan – «Lya» 1-oktavagacha
70	Qashqar rubobining yozilishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan – «Lya» 3-oktavagacha	«Do» katta oktavadan – «Lya» 1-oktavagacha	«Mi» katta oktavadan – «Sol» 1-oktavagacha	«Mi» yoki «Re» kichik oktavadan – «Si» 2-oktavagacha
71	Qashqar rubobining eshitalishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha	«Fa» yoki «Mi bemol» katta oktavadan – «Si» 1-oktavagacha	«Yozilganidek eshitaladi	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha

72	Afg'on rubobining yozilishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan – «Lya» 3-oktavagacha	«Do» katta oktavadan – «Lya» 1-oktavagacha	«Mi» katta oktavadan – «Sol» 1-oktavagacha	«Mi» yoki «Re» kichik oktavadan – «Si» 2-oktavagacha
73	Afg'on rubobining eshinish bo'yicha diapazoni qanday?	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha	«Fa» yoki «Mi bemol» katta oktavadan – «Si» 1-oktavagacha	«Mi» yoki «Re» katta oktavadan – «Si» 1-oktavagacha	Yozilganidek eshinish
74	Dutor cholg'usining yozilishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Mi» yoki «Re» kichik oktavadan – «Si» 2-oktavagacha	«Do» katta oktavadan – «Lya» 1-oktavagacha	«Mi» katta oktavadan – «Sol» 1-oktavagacha	«Sol» kichik oktavadan – «Mi» 4-oktavagacha
75	Dutor cholg'usining eshinish bo'yicha diapazoni qanday?	«Mi» yoki «Re» katta oktavadan – «Si» 1-oktavagacha	«Sol» kichik oktavadan – «Mi» 4-oktavagacha	«Mi» kontr oktavadan – «Sol» kichik oktavagacha	Yozilganidek eshinish
76	Dutor basning diapazoni qanday?	«Do» katta oktavadan – «Lya» 1-oktavagacha	«Mi» yoki «Re» kichik oktavadan – «Si» 2-oktavagacha	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan – «Lya» 3-oktavagacha	Hamma javoblar to'g'ri
77	Dirijorning vazifasi nimalardan iborat?	Orkestrni boshqarish, ijroni ta'minlash	Ijrochilarni tartibga solish.	Ijrochilarni tarbiyalash.	Ijro etishni o'rgatish.
78	G'ijjakning nechta tori bor?	4 ta	3 ta	2 ta	1 ta
79	G'ijjakning qanday torlari bor?	Mi, lya, re, sol	Lya, re, sol, do	Sol, re, lya, mi	Do, sol, re, lya
80	G'ijjak altning qanday torlari bor?	Lya, re, sol, do	Mi, lya, re, sol	Sol, re, lya, mi	Do, sol, re, lya
81	G'ijjak basning qanday torlari bor?	Lya, re, sol, do	Mi, lya, re, sol	Sol, re, lya, mi	Do, sol, re, lya
82	G'ijjak kontrabasning qanday torlari bor?	Sol, re, lya, mi	Do, sol, re, lya	Lya, re, sol, do	Mi, lya, re, sol
83	G'ijjaklar qaysi guruhga mansub?	Torli-kamonli guruh	Damli guruh	Mezrobli guruh	Urama-zarbli guruh
84	Partitura nima?	simfonik orkestr cholg'ularining partiyalarini aks ettiruvchi nota kitobi	musiqiy asar	she'riy asarning yozuvi	fortepiano uchun yozilgan asar
85	Simfonik orkestr cholg'ulari necha guruhga bo'linadi?	4	5	10	3
86	Simfonik orkestrga qaysi guruhlar kiradi?	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, torli cholg'ular	xalq cholg'ulari, urma zarbli cholg'ular	torli cholg'ular, xalq cholg'ulari;	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular

87	Partiturada cholg'ular guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, torli cholg'ular	mis damli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, torli cholg'ular	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, torli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular	urma zarbli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, torli cholg'ular
88	Simfonik orkestrda cholg'ular guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	torli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular	mis damli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, torli cholg'ular	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, torli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular	urma zarbli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, torli cholg'ular
89	Transpozitsiya qilinadigan cholg'ular qaysilar?	klarnet, truba, valtorna, kontrabas	fortepiano, skripka, goboy	alt, tuba, klarnet, arfa	violonchel, skripka, tuba
90	Torli cholg'ulardan qaysi biri transpozitsiya qilinadi?	kontrabas	skripka	alt	violonchel
91	Transpozitsiya nima?	boshqa tovush balandligiga ko'chirish	qisqartirish	qaytarib chalish	sur'atni o'zgartirish
92	Duet nima?	*ikki kishilik ansambl	besh kishilik ansambl	uch kishilik ansambl;	to'qqiz kishilik ansambl
93	Erkaklar ovozi necha turga bo'ligadi?	3	5	6	4
94	Erkaklar ovozi qaysi javobda to'g'ri berilgan?	Tenor, bariton, bas	Tenor, soprano, alt	Bariton, meststo soprano	Bas, koloraturali soprano
95	She'riy va musiqiy matn mutanosibligi deganda nimani tushunasiz?	She'riy hamda musiqiy matndagi urg'ularning to'g'ri kelishi	She'riy matnning kuylanishi darajasi	Avval musiqa yozib, so'ngra she'r tanlash	Musiqani mustaqil yozish
96	S.Yudakovning "Maysaraning ishi" operasida Oyxon qaysi ovozda kuylaydi?	soprano	tenor	Bariton	Meststo soprano
97	S.Yudakovning "Maysaraning ishi" operasida Maysara qaysi ovozda kuylaydi?	Meststo soprano	soprano	tenor	Bariton
98	Cantabile atamasi nimani anglatadi?	kuychan	dramatik	lirik	fojiali
99	Frullato tushunchasi qaysi guruh cholg'ulariga tegishli?	Damli cholg'ular	Inson ovozi	Torli cholg'ular	Zarbli cholg'ular
100	Piststikato tushunchasi qaysi guruh cholg'ulariga tegishli?	Torli cholg'ular	Zarbli cholg'ular	Damli cholg'ular	Inson ovozi

101	Sopranoning avj pardalari qaysi tovushlarga to'g'ri keladi?	2-oktavada "lya, si"	1-oktavada "lya, si"	2-oktavada "re, mi	2-oktavada "do, fa"
102	Soprano yuqori registrda qanday yangraydi?	Kuchli va yangroq	sokin	baxmalsimon	xushtaksimon
103	Soprano quyi registrda qanday yangraydi?	sokin	Kuchli va yangroq	baxmalsimon	xushtaksimon
104	Doira usuli deganda nimani tushunasiz?	Ritmik tasvir	Melodik tasvir	Garmonik tasvir	Melodik-garmonik tasvir
105	Rechitativ kuy nima?	Tabiiy nutqning ritmik va muayyan tovush balandligini aks ettiradi	musiqiy iboraning she'riy ibora bilan erkin ravishda kuychan bog'lanishi	Mashqsimon kuy	she'riy matn ritmining musiqiy ibora bilan o'zaro uyg'unlashuvi
106	Ariyasimon kuy nima?	musiqiy iboraning she'riy ibora bilan erkin ravishda kuychan bog'lanishi	Tabiiy nutqning ritmik va muayyan tovush balandligini aks ettiradi	Mashqsimon kuy	she'riy matn ritmining musiqiy ibora bilan o'zaro uyg'unlashuvi
107	Qo'shiqsimon kuy nima?	she'riy matn ritmining musiqiy ibora bilan o'zaro uyg'unlashuvi	musiqiy iboraning she'riy ibora bilan erkin ravishda kuychan bog'lanishi	Tabiiy nutqning ritmik va muayyan tovush balandligini aks ettiradi	Mashqsimon kuy
108	Xonanda ovozni qancha vaqt cho'zib tura oladi?	1 daqiqa atrofida	30 sekund	20 sekund	1 soat

XULOSA

Ijodkorni tarbiyalash masalasi barcha davrlarda jiddiy va muhim masala bo'lib kelgan. Ijodkorga alohida shaxs sifatida yondashish, uning layoqatiga qarab ish tutish, xarakteriga xos xususiyatlarni inobatga olish va ta'limning uzoq jarayonida muntazam tarbiyaviy ta'sir o'tkazish masalasi hali ham oxirigacha o'rganilmagan sohalardan biridir.

Bastakorning ijodiy shaxsini tashkil etadigan unsurlar uchta tarkibiy qismdan iborat: **iqtidor**, **mahorat** va **dunyoqarash**. Oxirida nomi zikr etilgan tarkibiy qism, musiqiy qobiliyat bilan bir qatorda, ichki tinglash va tasavvur etish qobiliyatining yuksak darajasi, musiqiy shakl va dramaturgiyani his etish, boy tasavvur, o'xshatma tafakkur, kuchli aqliy tafakkur, va ayniqsa, unga xos tuzilmaviy xususiyatlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Ruhiiy xususiyatlar bilan bir qatorda, ijodkor shaxsiga iroda, ijodga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni yashirin fiziologik ustunlik zarurdir.

Ijodiy layoqatning paydo bo'lishi, rivojlanishiga ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha jabhalari ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy rivojlanish kompozitor faoliyatining xarakteri va tuzilishiga ham bog'liqdir.

Biologik irsiyat ham bunda katta o'rin tutadi (I.S.Bax, V.A.Motsart, F.Listga xos ijodiy qirralar ushbu masala bilan bog'liq). Bu fikrni butkul rad etuvchi misollar ham talaygina (P.I.Chaykovskiy, M.I.Glinka, S.V.Raxmaninov, A.N.Skryabin).

Ijodiy layoqatning yoshlik chog'larda yorqin namoyon bo'lishi va hayotning yetuklik pallasida natija bo'yicha mutanosib bo'lmagan ijodiy holatlarni Mendelson, Chaykovskiy, Vagner va boshqa ijodkorlarning misolida ko'rishimiz mumkin. Sabab nimada? Yaxshi shart-sharoit bilan bog'liq jo'shqin ilk rivojlanish o'zining "tugal ko'rinishi"da namoyon bo'lib, keyingi evolyutsiyaga o'rin qoldirmadimikan? Bunga kompozitor Mendelsonning ijodiy taqdiri misol bo'la oladi. O'z o'rnida, F.Mendelson yoshlik davrida o'zining ulkan yutuqlari bilan hammani zabt etdiyu, ammo uning iqtidori keyinchalik taraqqiy etmadi. Shuman va Chaykovskiyning ijodiy taqdiri esa aksincha kechgan. Bolalik va yoshlik chog'larida ijodiy shart-sharoitga ega bo'lmagan ushbu ijodkorlar yetuklik davrida ulkan rivojlanishni boshdan kechirgan. Keyinchalik yuzaga kelgan faol iroda, qat'iyatlilik, kuchli iste'dod barcha to'siqlarni yengib o'tib, iqtidorni rivojlantirishga yordam bergan. Har holda, genezis bo'yicha ijodiy layoqat va yakuniy natijaning bir-biriga mos kelmaslik hodisasi tarixiy shaxslar misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchidan, iqtidorning ko'lami, uning sekin yoki tez sur'atda o'sishi ulkan qobiliyat majmuasida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, ijobiy yoki salbiy xarakterdagi shart-sharoit ijodkorning samaradorlik darajasiga sababchi bo'ladi. Uchinchidan, xarakterning o'ziga xos qirralari katta ahamiyatga ega bo'ladi. To'rtinchidan, jismoniy holat va kayfiyatni ham rad etib bo'lmaydi. Har bir muayyan ijodiy taqdir misolida ijodiy layoqat va yakuniy natija hodisasini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Yosh bastakorni tarbiyalash jarayonida tarbiyachi-o'qituvchining o'rni juda kichik, degan nuqtai nazar ham bor. Hamma narsa shaxsning o'ziga bog'liq. O'zining hayotida jiddiy tizimli ta'lim ko'rmagan yoki aqlli, mehribon ustozni uchratmagan ko'plab ijodkorlar yashaganligi tarixdan ma'lum.

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, to'g'ri yo'naltirilgan ta'lim - tarbiya iqtidorning namoyon bo'lishi va o'sishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksincha, ta'lim-tarbiyaning yo'qligi esa, iqtidor rivojlanishini sekinlashtirishi yoki umuman rivojlanmaslikka olib kelishi mumkin. Pedagogika bilan yaqindan shug'ullangan kompozitorlarning bu boradagi fikr-mulohazalari alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, kompozitorlar pedagogika sohasiga ijobiy tomondan qarab, mashg'ulotlarga faqat iqtisodiy foyda manbai emas balki, ijodiy turtki, yangi g'oyalar uchun maydon sifatida yondashganlar. I.S.Bax, L.Betxoven, N.Rimskiy-Korsakov, D.Shostakovich va boshqalarning pedagogika bilan shug'ullangani tarixdan yaxshi ma'lum. N.Rimskiy-Korsakov, P.Xindemit, A.Shyonberg singari kompozitor-pedagoglar kompozitsiya va boshqa musiqiy fanlar bo'yicha darsliklar ham yozishgan. Buyuk kompozitorlarning hayoti e'tibor bilan o'rganilsa, bu insonlar o'zlarini o'qitgan ustozlarga nisbatan qay tariqa munosabatda ekani va o'zlari uchun foydali bo'lgan ustozlarga ega bo'lish niyatida yashaganliklarini ham ko'rish mumkin bo'ladi. L.Betxoven garmoniya fanini I.Gaydndan o'rganib, mashg'ulotlardan qoniqmagani, P.Chaykovskiy esa A.Rubinshteyn sinfida o'qishni istagani kabi boshqa ko'plab ijodiy taqdirnlarni ko'rish mumkin.

Darhaqiqat, pedagog-tarbiyachilar iqtidorning ko'lamiga ta'sir ko'rsata olmaydi, ammo iqtidorning rivojlanishi va uning qimmatli qirralarini ochishga yordam berishi mumkin. Pedagogika irsiyatga ta'sir etolmaydi, biroq tug'ma nuqsonlarni to'g'irlashga yordam berishi, ko'zga ko'ringan ijobiy sifatni yuzaga chiqarishi mumkin. Texnik mahoratni charxlash, dunyoqarash, xarakter, umumiy madaniyat darajasini tarbiyalash butkul pedagogikaning qo'lidadir.

Shunga ko'ra, bastakorni tarbiyalashning pedagogik jarayonida ikki yo'l bir-biriga ta'sir ko'rsatadi:

1. Musiqiy layoqat, kasbiy mahoratning rivoji;
2. Xarakter, shaxsni tarbiyalash.

Ijodiy g'oyani xayolan muayyan shaklda ifodalamoq va musiqiy tasavvur qobiliyatini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqaga nisbatan mehr-muhabbat, san'atga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash zarur hisoblanadi. Hissiy tajriba ham juda muhimdir.

Ta'lim sohasi yosh ijodkor uchun alohida o'rin tutadi. Bunday asosiy mezonlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim olish;
- mustaqil ta'limga bo'lgan doimiy ehtiyojni shakllantirish.

Zero, V.Motsart zamondoshlarining yozishicha, hamisha o'qish va izlanishda bo'lgan, uning cho'ntagida doimo biron-bir kitobcha bor bo'lar ekan.

Bastakorlik san'atini o'rganishda musiqiy-tarixiy, musiqiy-nazariy turkum fanlarni egallash, fortepiano cholg'usida ijro eta bilish ko'nikmalari bastakor tarbiyasi uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Yosh kompozitor musiqa tarixiga oid fanlarda o'zlashtirilgan musiqiy asarlarni bilish bilan bir qatorda, o'zi yashab turgan zamonda yaratilayotgan yangidan-yangi asarlar bilan yaqindan tanishishi, ularning yangilik darajasini to'g'ri anglashi katta ahamiyat kasb etadi. Yangi asarlarda shakl, garmoniya masalalari, cholg'ularning tarkibi, musiqiy ifoda vositalarining qo'llanilishi, ijro xususiyatlari doimiy ravishda yosh kompozitorning izlanishlari doirasida bo'lishi shart.

Yosh kompozitorni mehnat va dam olish tartibiga ham o'rgatish kerak. Zotan, kompozitor o'zining mehnati chog'ida, boshqa ijodiy kasb vakillaridan farqli o'laroq, ulkan jismoniy va ruhiy kuch sarflaydi.

Umumiy eruditsiya, yuksak axloqiy tarbiya ham kompozitorning ijodiy qiyofasi va ijodiy taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Zero, ijodkor aytadigan so'z va bajargan amal hammaning e'tibor markazida bo'ladi. Ijodkordan atrofdagilar o'rnak oladi...

GLOSSARIY

Akkord (it. *Accordo*, fr. *Accord* - birdamlik) – turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo‘shilib, yaxlit holda yangrashi. Akkord odatda tertsiya intervali bo‘yicha taqsimlanadigan tovushlardan hosil bo‘ladi. To‘rt tovushli akkord – septakkord, besh tovushli akkord – nonakkord, olti tovushli akkord – undetsimakkord deyiladi.

Ansambl (fr. *Ensemble* - birgalikda) - 1. Vokal yoki cholg‘u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. 2. Bir to‘da san’atkorlarning bir butun badiiy jamoa holda chiqishi. 3. U qadar katta bo‘lmagan xonanda yoki sozandalar jamoasi uchun yaratilgan musiqa asari. Ijrochilar soniga qarab bu ansambllar turlicha ataladi. Ikki ijrochi – *duet*, uch ijrochi – *trio* yoki *tertset*, to‘rt ijrochi – *kvartet*, besh ijrochi – *kvintet*, olti ijrochi – *sektet*, etti ijrochi – *septet*, sakkiz ijrochi – *oktet* va h.k. Ba’zan ansambl so‘zini orkestr yoki xor jamoasining kichraytirilgan turiga ham aytiladi.

Applikatura (nem. *Applicatur* - qo‘ymoq, bosmoq) – musiqa cholg‘u asboblarini ijro qilganda barmoqlarni to‘g‘ri qo‘yish va almashtirish tartibi. Bu tartibning notalarda ko‘rsatilishi ham applikatura deyiladi. Applikatura arab raqamlari bilan notalarning osti yoki ustiga qo‘yiladi.

Diapazon (yun. *Diapason* – barcha (torlar) orqali)– xonandaning ovozi, cholg‘u asbobining tovush hajmi. Musiqiy matodagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig‘i.

Diatonika (yun. *Diatonikos* – bir tondan ikkinchi tonga o‘tish) – ladning asosiy bosqichlari izchilligidan vujudga keladigan musiqiy tovushlar tizimi. Tabiiy major, minor va o‘rta asr lادلari uchun asos bo‘lgan asosiy etti pog‘onadagi ton va yarim tonlar diatonikaga kiradi.

Diatonik gamma – laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi. To‘liq diatonik gammada ettita tovush bo‘ladi.

Dinamika (yun. *Dinamikos* - kuchli) – musiqiy tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi. Dinamika tovushni turlicha ifodalash, ya’ni bir yo‘la qattiq yoki sekin, asta-sekin kuchaytirish yoki sekinlashtirish, ayrim tovushlarni alohida ta’kidlab eshittirish v.b. bildiradi. Dinamikaning asosiy turlari: forte - qattiq, kuchli; piano – sekin; crescendo – tovushni asta-sekin kuchaytirish; diminuendo – tovushni asta-sekin pasaytirish.

Interval (lot. *Intervallum* – oraliq, masofa) – ikki musiqiy tovush o‘rtasidagi oraliq. Bunda tovushlar bir vaqtda yangrasa *garmonik interval*, birin-ketin yangrasa – *melodik interval* deb ataladi. Asosiy intervallar – *prima*, *sekunda*, *tertsiya*, *kvarta*, *kvinta*, *seksta*, *septima*, *oktava*.

Lad – turg‘un va noturg‘un musiqiy tovush pog‘onalarining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada etti pog‘onali major va minor lادلari asosiy ladlar hisoblanadi.

Orkestr (yun. *Orchestra* - qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) - turli cholg‘u asboblarda cholib, ijrochilarning ushbu guruhi uchun yozilgan

musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi. Cholgʻu asboblarning tarkibiga koʻra orkestrlarning turlari: *simfonik* – toʻliq tarkibdan iborat, *torli* – kamonli cholgʻular, *damli* - yogʻoch va mis damli cholgʻular, *shovqinli* - urma-zarbli cholgʻular.

Partitura (it. partitura – boʻlingan, taqsimlangan) – ansambl, xor, orkestr uchun yozilgan koʻp ovozli musiqiy asarning nota yozuvi. Unda barcha ovozlarning partiyalari jamlangan. Partiturada partiyalarning taqsimlanib kelishi yuqoridan quyi tomon turdosh cholgʻu asboblari boʻyicha keladi. Oʻz navbatida, bir turdagi cholgʻularning eng yuqori registrga mansubi yuqorida, qolganlari registri boʻyicha pastki satrlarda yoziladi.

Partiya (musiqada)– 1. Ansambl qatnashchilaridan biri yoki unison holda ijro etuvchilarning nota yozuvlari. 2. Sonata shaklining ekspozitsiyasida asosiy mavzu (tema)lar bosh partiya, yordamchi partiya, yakunlovchi partiya sifatida keladi.

Registr (lot. Registrum – roʻyxat, yozib, qoʻyish) – musiqiy matoning ohangini yuqori, oʻrta va pastki qismlarga mansubligi boʻyicha ajratish.

Rekonstruksiya (lot. Re – «yangilanish» maʼnosini bildiruvchi soʻz yasovchi qoʻshimcha va constructio - tuzilma) - qadimiy musiqiy cholgʻularni qayta tiklash. Ushbu atama zamonaviy musiqiy cholgʻushunoslikda xalq cholgʻu asboblari tiklash va orkestrga mansub turlari (pikkolo, alt, bas va b.)ni yaratish maʼnosida qoʻllaniladi.

Soz– 1. Tovushlarning balandlik holati va munosabati. Cholgʻu asboblardagi soz ularning tovushqatori tuzilishi va baland-pastligini aniqlaydi. Orkestr va ansambllar sozi shu jamoadagi cholgʻu asboblarning bir-biriga boʻlgan balandlik munosabatlariga koʻra sozlanadi. 2. Torli cholgʻu asbob.

Tembr (fr. tembre - qoʻngʻiroq, ajratish belgisi) – tovush tusi, har bir musiqiy cholgʻu yoki xonanda ovozining oʻziga xos tovush xarakteri. Cholgʻu asbobining tuzilishi va shakliga koʻra uning tembri turlicha boʻladi.

Temperatsiya (lot. Temperatio – toʻgʻri munosabatda, bir oʻlchamda) – musiqiy pogʻonalar oraligʻidagi intervallar munosabatining tengligi. Oktava oraligʻining 12ta teng yarim tonga boʻlinishi bir tekis temperatsiya boʻladi.

Tovushqator – cholgʻu asbobida chalinishi yoki kishi ovozida aytilishi mumkin boʻlgan tovushqator. U yuqori koʻtarilayotgan yoki quyi tushayotgan qator tovushlar tizmasida tuziladi.

Transpozitsiya (lot. Transponere – joyini oʻzgartmoq) – tovushlarni boshqa balandlikka koʻchirish. Transpozitsiya turli sharoitda qilinadi: yozilgan musiqa asari xonanda ovoziga noqulay boʻlsa; bir cholgʻu asbobdan ikkinchisiga koʻchirish zarurati boʻlsa; yozilgan notalar oʻqish uchun noqulay boʻlsa. Mazkur hollarda musiqa asarini bir tonallikdan ikkinchi tonallikka transpozitsiya qilinadi; bunda uning xarakteri, ritmi va boshqa unsurlari oʻzgarmaydi.


Unison (it. unisono – bir xil sado) – bir xil balandlikdagi ikki (yoki bir necha) tovushning bir vaqtda yangrashi.

Xromatizm (yun. Chroma -rang) – diatonik laddagi pogʻonalarning yarim tondan oʻzgarishi. Ular alteratsiya belgilari – diez yoki bemol bilan koʻrsatiladi.

Xromatik yarim ton bir pog'onadagi ikki turli tovushdan tuziladi. Masalan, «do» va «do-diez».

Xromatik gamma – kuyning yarim tonlar bo'yicha baland-pastga izchil harakati. To'liq xromatik gamma 12 tovush (yarim ton)dan iborat. Gammadagi xromatik va diatonik yarim tonlarni tartibli almashinib kelishi lad tuzilishi (major va minor) va harakat yo'nalishi (yuqorilanishi yoki pasayishi)ga bog'liq. Xromatik gamma diatonik gammadagi butun ton pog'onalarini ko'tarish yoki pasaytirish yo'li bilan to'ldiriladi.

Prima (lot. "Prima" - birinchi) – Bir pog'ona oralig'idagi interval kengligi, ya'ni bir nomdagi ikki tovushning qaytarilishi. Masalan, do-do, re-re.



Sekunda (lot. "Secunda" - ikkinchi) – ikki qo'shni pog'ona kengligida bo'lgan interval. Masalan, do-re, fa-diez – sol, si-bemol – do-diez. Sekunda intervalining katta, kichik, orttirilgan turlari bo'ladi.




Terstiya (lot. "Terstia" - uchinchi) – Uch pog'ona kengligidagi interval. Masalan, do-mi, mi-sol. Terstiya intervalining katta, kichik, orttirilgan turlari bo'ladi.



Kvarta (lot. "quarta" - to'rtinchi) – to'rt pog'ona oralig'idagi interval. Kvarta intervalining sof, kamaytirilgan, orttirilgan turlari bo'ladi.



Kvinta (lot. "quinta" - beshinchi) – besh pog'ona oralig'idagi interval. Kvinta intervalining sof, orttirilgan va kamaytirilgan turlari bor.



Seksta (lot. "sexta" - oltinchi) – kengligi olti pog'ona oralig'ida bo'lgan interval. Seksta intervalining katta, kichik, orttirilgan va kamaytirilgan turlari bo'ladi.



Septima (lot. “septima” - ettinchi) – kengligi etti pog‘ona oralig‘ida bo‘lgan interval. Septima intervalining katta, kichik, orttirilgan va kamaytirilgan turlari bo‘ladi.



Oktava (lot. “octava” - sakkizinchi) – kengligi sakkiz pog‘ona oralig‘ida bo‘lgan interval. Sakkiz intervalining sof, orttirilgan va kamaytirilgan turlari bo‘ladi.



Duet (nem. “Duett” - ikki) – 1. Ikki ijrochidan tuzilgan ansambl. 2. Ikki ijrochiga mo‘ljallangan musiqa asari. Bunda ijrochilarning har biri alohida partiyaga ega bo‘ladi. 3. Opera, oratoriya, musiqali dramalarda qo‘llaniladigan vokal ansambli. Duet asarning musiqa dramaturgiyasida muhim o‘rin tutadi.

Trio (it. “Trio” - uch) – 1. Uch ijrochidan tuzilgan ansambl. 2. Uch ijrochiga mo‘ljallab yaratilgan musiqa asari. Cholg‘u ansambli musiqasida fortepiano triosi keng tarqalgan; uning tarkibiga skripka, violonchel va fortepiano kiradi.

Ansambl (fr. “Ensemble” - birgalikda) – 1. Vokal yoki cholg‘u musiqa asarini bir necha ijrochi tomonidan iero etilishi. 2. Bir guruh san’atkorlarning bir butun badiiy jamoa sifatida chiqishi.

Xor (yunoncha “Choros”) – Vokal, xor musiqasini ijro etadigan jamoa. Xorning turlari: erkaklar xori, ayollar xori, bolalar xori, aralash xor. Odatda, aralash xor to‘rtta xor partiyasi – soprano, alt, tenor, baslardan tuziladi.

Soprano (it. “Sopra” - yuqorida) – Ayollarning yuqori ovozi; ovoz hajmi birinchi oktavadani do tovushidan uchinchi oktavadagi do tovushiga qadar. Soprano ovozi tembriga ko‘ra koloraturali, lirik va dramatik turlarga bo‘linadi.

Metstso-soprano (it. “Mezzo” - o‘rtadagi) soprano va kontralto oralig‘idagi o‘rta registri ifodalovchi ayollar ovozi. Ovoz hajmi kichik oktavadagi lya tovushidan ikkinchi oktavadagi lya tovushiga qadar. Notalar skripka kalitida yoziladi.

Alt ovozi – ko‘povozli musiqada (xor asarlarida) balandligi bo‘yicha sopranodan keyingi ovoz.

Tenor (it. “Tenor” – ushlab turaman) – Erkaklarning yuqori ovozi. Ovoz hajmi kichik oktavadagi do tovushidan ikkinchi oktavadagi do tovushigacha. Tenor ovozi o‘z tembriga ko‘ra dramatik va lirik turlarga bo‘linadi.

Bas (it. “Basso” - pastki) – Erkaklarning past tovushi. Ovoz hajmi katta oktavadagi fa tovushidan birinchi oktavadagi fa tovushigacha.

Ad libitum – xoxishga ko‘ra, istalganicha

A2, A3 – ikkala, uchchala (cholg‘u)

Archi – torli cholg‘ular guruhining belgilanishi

Arco – kamon
Arpa – arfa
Attacca – keyingi asarni tanaffussiz chalish
Bachetta – tayoqcha (zarbli cholgʻularda chalish uchun)
Bassklarinette (nemischa) – bas-klarnet
Basso, bassi – bas, baslar; kontrabas
Batterie (franstuzcha) – zarbli cholgʻular guruhining belgilanishi
Becken (nemischa) – tarelkalar
Bratsche (nemischa) – alt
Campana – qoʻngʻiroq
Campanelli – qoʻngʻiroqchalar
Cassa – katta baraban
Castagnetti – kastanettalar
Celesta – chelesta
Cello – violonchel
Cembalo – klavesin
Chitarra – gitara
Corno inglese – ingliz surnayi
Clarinetto – klarnet
Clavicembalo – klavesin
Cloche (franstuzcha) – qoʻngʻiroq
Col – bilan
Col legno – kamoning taxta tomoni bilan chalish
Con – bilan
Con sordini – surdina bilan
Contrafagotto – kontrafagot
Coro – xor
Cornet – kornet
Corno – valtorna
Cymbales (franstuzcha) – tarelkalar
Dämpfer – surdina
Divisi – boʻlingan
Englishhorn – ingliz surnayi
Energico – kuchli, shahdam
Fagotto – fagot
Flauto – fleyta
Frullato – damli cholgʻulardagi ijro usuli
Glissando – sirgʻanib
Glockenspiel (nemischa) – qoʻngʻiroqchalar
Grand (franstuzcha) – katta
Gran cassa – katta baraban
Grosso – katta
Guitare (franstuzcha) – gitara
Legni – yogʻoch damli cholgʻularning belgilanishi

M.M. – “Melstel Metronomi” soʻzlarining qisqartirilgan shakli
Muta, mutare – almashtirish, oʻzgartirish
Non – yoʻq
Non divisi – boʻlinmagan
Oboe – goboy
Orchestra – orkestr
Ossia – yoki, yaʼni
Ostinato – oʻzgarmas, takrorlanuvchi
Ottavino – kichik fleyta
Otoni – mis damli cholgʻular guruhining belgilanishi
Partitura – partitura
Pauken (nemischa) – litavrular
Piatti – tarelkalar
Piccolo – kichik (kichik fleyta)
Pizzicato – chertib
Ponticello – xarrak
Posaune (nemischa) – trombon
Raganella – treshotka (zarbli cholgʻu)
Rubato – ritmik erkin ijro usuli
Rullio, rullo – zarbli cholgʻulardagi rez
Saxsofono, sassofono – saksofon
Segno – belgi
Secondo – ikkinchi
Sempre – doimo, hamisha
Senza – ishlatmasdan
Simile – shunga oʻxshash, avvalgidek
Solo – yakka
Sordino – surdina
Sotto voce – yarim ovozda
Spiccato – kamon bilan sakratib chalish
Staccato – sakratib
Sul ponticello – xarrak oldida
Sul tasto – grif oldida
Sul G, Sul D, Sul A – Sol torida, Re torida, Lya torida
Tamburino – buben
Tamburo – kichik baraban
Tam-tam – Tam-tam
Timbales (franstuzcha) – litavrular
Timpani – litavrular
Tremolo – rez
Triangolo – uchburchak
Trillo – trel
Tromba – truba
Trombone – trombon

Tuba – tuba
Tutti – hamma
Un, Uno – yakka
Unisono – bir ovozda, birga
Vibrato – titratib
Viola – alt
Violino – skripka
Violoncello – violonchel
Volto subito – tezda varaqlash
Voce – ovoz
Xylophono – ksilofon

**1-semestrda o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun
berilgan test savollarining
JAVOBLARI**

№	Savollar	To‘g‘ri javoblar
1	“Bastakorlik san’ati” fani nimani o‘rganadi?	Turli janrlarda zamonaviy musiqa yaratishni o‘rgatadi
2	“Opera” atamasi qaysi asrda paydo bo‘lgan?	XVII asr
3	Xor ijrosida fal‘tsetdan qachon foydalaniladi?	Yuqori notalarni kuylashni o‘rganayotganda, <i>pp</i> dinamikasida, ton berishda
4	Nafas olishning qaysi turi faqat xorda ishlatiladi?	Zanjir (nafas uzilmasligini ta‘minlovchi “zanjir” nafasi)
5	Opera asarlarida xor jamoasini sahnada ishlatish tamoyillari	Ommaviy sahnalar, parda orti, xor rechitativlari, xor replikalari
6	“Legato” termini ital‘yan tilidan qanday tarjima qilinadi?	Bog‘langan, uzviy
7	Aleatorika tushunchasi nimani anglatadi?	“Tasodif” degan ma‘noni
8	Qachon O‘zbekistonda birinchi fortepiano ansambli tashkil etilgan?	XX asrning 40-yillarida
9	Ornamentikaning qanday turlarini bilasiz?	Forshlag, grupetto, mordent, trel‘
10	Bastakor ijodining mahsuli?	Turli janrlarda yaratilgan musiqiy asarlar
11	Zamonaviy partitura nima?	simfonik orkestr cholg‘ularining partiyalarini notalar va boshqa shartli belgilar yordamida aks ettiruvchi kitob
12	Fortepiano kvintetida qaysi cholg‘ular qatnashadi?	2 ta skripka, alt, violonchel, fortepiano
13	Torli kvartetda qaysi cholg‘ular qatnashadi?	ikkita skripka, alt, violonchel
14	Fortepiano triosida qaysi cholg‘ular qatnashadi?	skripka, violonchel, fortepiano
15	“Flajolet” nima?	torli cholg‘ularga xos ijro usuli
16	Surkina nima uchun kerak?	Ovozni pasaytirish uchun
17	Torli cholg‘ulardan qaysi biri transpozitsiya qilinadi?	kontrabas
18	Vibratsiyaning maqsadi nima?	Tovushning yangrashiga sifat berish
19	Skripkaning qanday torlari bor?	Mi, lya, re, sol
20	Al‘tning qanday torlari bor?	Lya, re, sol, do
21	Violonchelning qanday torlari bor?	Lya, re, sol, do
22	Kontrabasning qanday torlari bor?	Sol, re, lya, mi
23	Ayollar ovozini belgilang.	alt
24	Erkaklar ovozini belgilang.	bas
25	Ayollar ovozini belgilang.	Mezzo-soprano
26	Ayollar ovozini belgilang.	kontralto
27	Erkaklar ovozini belgilang.	tenor
28	Ayollar ovozini belgilang.	soprano
29	Bolalar ovozini belgilang.	diskant
30	Erkaklar ovozini belgilang.	bariton
31	Bolalar xorining ovozlari qaysi?	Soprano va al‘t
32	“A‘capella” nima?	Jo‘rsiz xor uchun asar

33	Partitura bo'yicha aralash xor ovozlari...	Soprano, al't, tenor va bas
34	Xoral - bu...	Jo'rsiz xor uchun so'zsiz kuylanadigan kichik janrdagi asar
35	Xor va orkestr uchun yirik shakldagi janrlarni aniqlang.	Oratoriya, cantata, poema
36	Xor simfoniyasi – bu...	Jo'rsiz xor yoki ayrim xarakterli cholg'ular ishtirokidagi yirik asar
37	“Divisi” atamasi nimani anglatadi?	bo'linib chalish
38	Akkolada nima?	nota yo'llarini bog'laydigan qavs
39	Vibratsiya nima?	tovushni titratish
40	Transpozitsiya qilinadigan cholg'ular qaysilar?	klarnet, truba, valtorna, kontrabas
41	Partiturada cholg'u guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, torli cholg'ular
42	“Arco” atamasi nimani anglatadi?	kamon bilan chalish
43	“Pizzicato” atamasi nimani anglatadi?	tirnab chalish
44	Zamonaviy musiqada tonalligi bo'lmagan asarlar qanday musiqqa hisoblanadi?	Atonal musiqqa
45	Dodekofoniya, ya'ni 12 tonli musiqqa yoki seriya, deb nomlanadigan kompozitsiya uslubining klassik namunasi yaratgan kompozitor kim?	Arnol'd Shyonberg
46	Dastlab zamonaviy musiqqa yaratishni boshlagan kompozitorlar o'zlarini qanday nomlashgan?	Avangardchilar
47	Pol'sha avangard musiqasining yorqin vakili kim?	Kshishtof Penderetskiy
48	“O'zgaralar so'zi”, ya'ni tsitata, kollaj yoki namud kabi kompozitsiya yozuv uslubini o'z asarlarida mohirona ishlatgan kompozitorni aniqlang.	Al'fred Shnitke
49	Zamonaviy musiqqa yo'nalishi paydo bo'lishiga turtki bo'lgan kompozitsiya texnikasini aniqlang.	Dodekofoniya
50	Opera nima?	Janrlar sintezi aks etgan yirik musiqiy-sahnaviy asar
51	Operaning kirish qismi nima deb ataladi?	Uvertyura
52	Operaning qismlari nima deb ataladi?	Akt
53	Leytmotiv nima?	Muayyan obrazni aks ettiruvchi musiqiy mavzu
54	Leyttembr nima?	Muayyan obrazni aks ettiruvchi tembr
55	Operada qatnashadigan musiqiy ifoda vositalari nimalardan iborat?	Simfonik orkestr, xonandalar, xor, balet.
56	Baletda qatnashadigan musiqiy ifoda vositalari nimalardan iborat?	Simfonik orkestr, balet.
57	Libretto nima?	Musiqiy sahnaviy asarning she'riy matni
58	Birinchi o'zbek operasini aniqlang	«Bo'ron» operasi
59	«Dilorom» operasini qaysi kompozitor yozgan?	M.Ashrafiy

60	«Dilorom» operasining libretto muallifini aniqlang	Komil Yashin va Muzaffar Muxammedov
61	“Xumo” baletining musiqa muallifi kim?	A.Ergashev
62	«Bo‘ron» operasining premerasi nechanchi yilda bo‘lib o‘tgan?	11 iyun 1939 yilda
63	«Bo‘ron» operasining bosh qahramoni birinchi ijrochisi kim?	Karim Zokirov
64	«Bo‘ron» operasining birinchi dirijyori kim?	Muxtor Ashrafiy
65	«Dilorom» operasi qaysi shoir asari asosida yozilgan?	A.Navoiy
66	«Dilorom» operasi spektaklining rassomi?	M.Musaev
67	«Dilorom» operasini sahnalashtiruvchi baletmeyster kim?	G.Izmaylova
68	Birinchi o‘zbek komik operasini kim yozgan?	S.Yudakov
69	Birinchi o‘zbek komik operaning nomi nima?	«Maysaraning ishi»
70	“O‘tgan kunlar” musiqali dramasining bosh qahramonlari kimlar?	Otabek va Kumush
71	“Mahallada duv-duv gap” kinofilmining musiqasi qaysi kompozitorga tegishli?	M.Leviyev
72	“Suxayl va Mexri” baleti musiqa muallifi kim?	M.Leviyev
73	Musiqali drama va komediyalarda qanday orkestr tarkibi qo‘llaniladi?	simfonik orkestr
74	Musiqiy sahna asarlarida qaysi qism sof cholg‘u ifodasida namoyon bo‘ladi?	uvertyura
75	Qaysi kompozitor operalarida jonli va jonsiz predmetlarga leytmotiv ishlatilgan?	R.Vagner
76	«Maysaraning ishi» operasi nechchi aktdan iborat?	2 akt
77	«Maysaraning ishi» operasining libretto muallifi kim?	Komil Yashin
78	«Maysaraning ishi» operasida Oyxon partiyasini birinchi marotaba kim ijro etgan?	Saodat Qobulova
79	«Maysaraning ishi» operasida Maysara partiyasini birinchi bo‘lib kim ijro etgan?	Halima Nosirova
80	«Maysaraning ishi» operasi rejissyori kim?	M.Muhammedov va Kandalaki
81	«Maysaraning ishi» operasining prem’erasi qachon bo‘lib o‘tgan?	9 yanvar 1959 yilda
82	«Maysaraning ishi» operasining birinchi dirijyori?	Fazliddin Shamsiddinov
83	«Gulsara» operasini kim yozgan?	R.Glier – T.Sodiqov
84	«Gulsara» operasining prem’erasi qachon bo‘lib o‘tgan?	29 dekabr 1949 yil
85	«Zaynab va Omon» operasining prem’erasi qachon bo‘lib o‘tgan?	19 oktyabr 1958 yil
86	«Zaynab va Omon» operasining libretto muallifi kim?	Zulfiya

87	«Zaynab va Omon» operasi mualliflari kimlar?	T.Sodiqov, B.Zeydman, Yu.Rajabiy va D.Zokirov
88	«Zaynab va Omon» operasi birinchi dirijyorini aniqlang.	Fazliddin Shamsiddinov
89	«Zaynab va Omon» operasida Zaynab obrazini kim birinchi ijro etgan?	Xalima Nosirova
90	«Zaynab va Omon» operasida Omon obrazining birinchi ijrochisi kim?	Asad Azimov
91	«Zaynab va Omon» operasining rejissyori kim?	Muzaffar Muhamedov
92	«Zaynab va Omon» operasi necha aktdan iborat?	3 akt
93	A.Navoiy nomidagi opera va balet teatri nechanchi yilda qurilgan?	1947 yil
94	A.Navoiy nomidagi opera va balet teatri binosining arxitektori kim?	A.Shusev
95	«Umar Xayyom» operasining musiqa muallifi kim?	M.Bafoev
96	«Umar Xayyom» operasi necha aktdan iborat?	3 aktdan
97	«Umar Xayyom» operasining libretto muallifi kim?	Oleg Uzoqov
98	«Alisher Navoiy» operasining musiqa muallifi kim?	Mutal Burxonov
99	«Yoriltosh» operasining musiqa muallifi kim?	S.Boboev
100	Aranjirovka soʻzining maʼnosi nima?	Frantsuzchadan oʻgʻirganda “Tartibga keltirish”.
101	Aranjirovka qachon mustaqil musiqa fani sifatida ajralib chiqqan?	XX asrning 30- yillari.
102	Aranjirovka bilan orkestrga moslashtirish orasida qanday farq bor?	Musiqiy matnga erkin ishlov bermoq.
103	Windows sistemasida qoʻllaniladigan musiqiy programma.	Nuendo.
104	Nuendo nima?	Musiqiy programma.
105	Sekvensor tushunchasiga berilgan aniq taʼrifni toping.	Bu- raqamlashtirilgan ishchi audiostantsiya.
106	Quyidagi javoblar ichida virtual studiyani toping.	Logic.
107	Quyidagi javoblar ichida audiodredaktor programmasini toping.	WaveLab.
108	Kerakli maʼlumotni SD diskka yozib olish uchun qaysi programmadan foydalaniladi?	Nero.

**2-semestrda o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun berilgan
testlar savollarining
JAVOBLARI**

№	Savollar	To‘g‘ri javoblar
1	Aranjirovka qilishda ish jarayonining ketma-ketligi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.	Kuy. Garmoniya. Ritm. Bas.
2	Aranjirovkaning ritmik asosiga nimalar kiradi?	Zarbli cholg‘ular va bas.
3	Quyidagi javoblar ichida virtual Drum mashinani toping.	Battery.
4	Bas gitarada qo‘llaniladigan shtrix va ijro usullariga aloqasi bo‘lmagan javobni toping.	Sordino.
5	Cubase va Nuendo musiqiy program-malarining farqi nimada?	Cubase da midi fayllar bilan ishlash qulayligi; Nuendo da audio fayllar bilan ishlash qulayligi.
6	Tovushga dinamik ishlov berishda qaysi plagindan foydalanilmaydi?	Rever.
7	Studiya monitorlarining turlari	Yaqin, o‘rta va uzoq.
8	Aktiv va passiv monitorlarning o‘zaro farqi nimada?	Aktiv monitorlar ga kuchaytirgich o‘rnatilgan, passiv monitorlarga esa yo‘q.
9	Audio kartalarning qanday turlari mavjud?	Disstantsion.
10	Qaysi programmada sempillar yordamida musiqa yaratish mumkin?	Cubase.
11	Sempl bu -	Tovushning nisbatan kata bo‘lmagan lavxasi.
12	Sempler nima?	Sempler bu elektron musiqiy asbob bo‘lib, yozib olish, taxrir qilish va eshittirish xususiyatlariga ega.
13	VST plagin nima?	Bu -tovushga ishlov beruvchi programma lashtirilgan audio effektlar.
14	Mac osx sistemasida qo‘llaniladigan musiqiy programmani toping.	Cubase.
15	Quyida keltirilgan misollar ichida VSTi plaginni toping.	Halion One.
16	VSTi plaginbu:	Ttovushni shakllantiruvchi elektron musiqiy asbob, programmali sintezator yoki sempler.
17	Quyida keltirilgan misollar ichida VST plaginni toping.	Modulation.
18	Estrada-simfonik orkestr cholg‘ulari necha guruhga bo‘linadi?	5
19	Estrada-simfonik orkestrga qaysi guruhlar kiradi?	yog‘och damli cholg‘ular va saksofonlar, mis damli cholg‘ular, sintezatorlar, torli-kamonli cholg‘ular, elektr va usul beruvchi zarbli cholg‘ular.
20	Partitura nima?	estrada-simfonik orkestri cholg‘ularining partiyalarini aks ettiruvchi nota kitobi.

21	Partiturada cholg' u guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	yog'och damli cholg'ular va saksafonlar, mis damli cholg'ular, sintezatorlar, torli-kamonli cholg'ular, elektr va usul beruvchi zarbli cholg'ular.
22	Transpozitsiya qilinadigan cholg'ular qaysilar?	klarnet, saksafonlar, truba, valtorna, kontrabas, bas-gitara.
23	Simfonik orkestrda cholg' u guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	torli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular.
24	Torli cholg'ulardan qaysi biri transpozitsiya qilinadi?	kontrabas.
25	Transpozitsiya nima?	boshqa tovush balandligiga ko'chirish.
26	Duet nima?	ikki kishilik ansambl.
27	Trio nima?	uch kishilik ansambl.
28	Kvartet nima?	to'rt kishilik ansambl.
29	Fortepiano triosida qaysi cholg'ular qatnashadi?	skripka, violonchel, fortepiano.
30	Torli kvartetda qaysi cholg'ular qatnashadi?	ikkita skripka, alt, violonchel.
31	Fortepiano kvintetida qaysi cholg'ular qatnashadi?	2 ta skripka, alt, violonchel, fortepiano.
32	Trel nima?	ijro usuli.
33	Unison nima?	ansamblda bir ovozli chalish.
34	Tremolo nima?	ijro usuli
35	"Arco" atamasi nimani anglatadi?	kamon bilan chalish
36	"Pizzicato" atamasi nimani anglatadi?	tirnab chalish
37	Kamerton nima?	musiqiy tonni belgilaydigan moslama
38	Manual nima?	klaviatura
39	"Divisi" atamasi nimani anglatadi?	bo'linib chalish
40	Diapazon nima?	eng past va eng baland tovush oralig'i
41	Detashe nima?	torli cholg'ularning ijro usuli
42	"Cholg'ushunoslik" fani nimani o'rganadi?	cholg'ular haqidagi bilimlarni o'rgatadi
43	"Cholg'ushunoslik" fanini quyidagi fanning nazariy qismi, deb belgilash mumkin?	Cholg'ulashtirish
44	O'zbek xalq cholg'ularidan tashkil topgan orkestrlar qachon shakllana boshlagan?	XX asrning 1-yarmida
45	O'zXChO necha ovozli musiqalarni ijro eta oladi?	Ko'p ovozli
46	O'zXChO nechta cholg'ular guruhidan iborat?	5 ta
47	Partitura bo'yicha nay, kichik nay nechanchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradi?	1-guruhga
48	Partitura bo'yicha changlar nechanchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradi?	2-guruhga
49	Partitura bo'yicha qashqar ruboblari nechanchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradi?	3-guruhga
50	Partitura bo'yicha nog'oralar nechanchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradi?	4-guruhga
51	O'zXChOning to'rtinchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradigan cholg'ularni belgilang	Litavralar, nog'ora, doyra, qayroq, safoyil, kichik va katta barabanlar, buben, zil (tarelkalar) va b.

52	O'zXChOning uchinchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradigan cholg'ularni belgilang	Rubob prima, qashqar rubobi, Afg'on rubobi, dutor, dutor-bas, dutor kontrabas
53	O'zXChOning ikkinchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradigan cholg'ularni belgilang	Changlar
54	O'zXChOning birinchi cholg'ular guruhi tarkibiga kiradigan cholg'ularni belgilang	Kichik nay, nay, qo'shnay, surnay (karnay ham ishlatilishi mumkin)
55	Partiturada O'zXChOning 1-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Damli cholg'ular guruhi
56	Partiturada O'zXChOning 2-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Torli-urma cholg'ular guruhi
57	Partiturada O'zXChOning 3-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Torli-chertma (mizrobli) cholg'ular guruhi
58	Partiturada O'zXChOning 4-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Zarbli cholg'ular guruhi
59	Partiturada O'zXChOning 5-cholg'ular guruhi qanday nomlanadi?	Torli-kamonli cholg'ular guruhi
60	Transpozitsiya qilinadigan cholg'ularni belgilang	Kichik nay, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor kontrabas, qo'ng'iroqchalar, g'ijjak kontrabas
61	Kichik nay qanday nomlanadi?	Nay-pikkolo
62	Nay pikkolonning yozilishi bo'yicha diapazonini belgilang	«Re» birinchi oktavadan – «Sol» uchinchi oktavagacha
63	Nay pikkolonning eshitalishi bo'yicha diapazonini belgilang	«Re» ikkinchi oktavadan – «Sol» to'rtinchi oktavagacha
64	Nayning diapazonini belgilang	«Lya» birinchi oktavadan – «Re» to'rtinchi oktavagacha
65	Surnayning diapazonini belgilang	«Si» kichik oktavadan – «Sol» uchinchi oktavagacha
66	Qo'shnayning diapazonini belgilang	«Re» birinchi oktavadan – «Sol» ikkinchi oktavagacha
67	Changning diapazonini belgilang	«Sol» kichik oktavadan – «Fa diyez» uchinchi oktavagacha
68	Rubob-prima cholg'usining sozlanishi qanday?	«Mi» ikkinchi oktava, «Lya» birinchi oktava, «Re» birinchi oktava, «Sol» kichik oktava
69	Rubob-prima cholg'usining diapazoni qanday?	«Sol» kichik oktavadan – «Mi» 4-oktavagacha
70	Qashqar rubobining yozilishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan – «Lya» 3-oktavagacha
71	Qashqar rubobining eshitalishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha
72	Afg'on rubobining yozilishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan – «Lya» 3-oktavagacha
73	Afg'on rubobining eshitalishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha
74	Dutor cholg'usining yozilishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Mi» yoki «Re» kichik oktavadan – «Si» 2-oktavagacha
75	Dutor cholg'usining eshitalishi bo'yicha diapazoni qanday?	«Mi» yoki «Re» katta oktavadan – «Si» 1-oktavagacha

76	Dutor basning diapazoni qanday?	«Do» katta oktavadan – «Lya» 1-oktavagacha
77	Dirijyorning vazifasini nimalardan iborat?	Orkestrni boshqarish, ijroni ta'minlash
78	G'ijjakning nechta simi bor?	4 ta
79	G'ijjakning qanday torlari bor?	Mi, lya, re, sol
80	G'ijjak altning qanday torlari bor?	Lya, re, sol, do
81	G'ijjak basning qanday torlari bor?	Lya, re, sol, do
82	G'ijjak kontrabasning qanday torlari bor?	Sol, re, lya, mi
83	G'ijjaklar qaysi guruhga mansub?	Torli-kamonli guruh
84	Partitura nima?	simfonik orkestr cholg'ularining partiyalarini aks ettiruvchi nota kitobi
85	Simfonik orkestr cholg'ulari necha guruhga bo'linadi?	4
86	Simfonik orkestrga qaysi guruhlar kiradi?	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, torli cholg'ular
87	Partiturada cholg'u guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular, torli cholg'ular
88	Simfonik orkestrda cholg'u guruhlarining joylashuv tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	torli cholg'ular, yog'och damli cholg'ular, mis damli cholg'ular, urma zarbli cholg'ular
89	Transpozitsiya qilinadigan cholg'ular qaysilar?	klarnet, truba, valturna, kontrabas
90	Torli cholg'ulardan qaysi biri transpozitsiya qilinadi?	kontrabas
91	Transpozitsiya nima?	boshqa tovush balandligiga ko'chirish
92	Duet nima?	*ikki kishilik ansambl
93	Erkaklar ovozi necha turga bo'ligadi?	3
94	Erkaklar ovozi qaysi javobda to'g'ri berilgan?	Tenor, bariton, bas
95	She'riy va musiqiy matn mutanosibligi deganda nimani tushunasiz?	She'riy hamda musiqiy matndagi urg'ularning to'g'ri kelishi
96	S.Yudakovning "Maysaraning ishi" operasida Oyxon qaysi ovozda kuylaydi?	soprano
97	S.Yudakovning "Maysaraning ishi" operasida Maysara qaysi ovozda kuylaydi?	Metsso soprano
98	Cantabile atamasi nimani anglatadi?	kuychan
99	Frullato tushunchasi qaysi guruh cholg'ulariga tegishli?	Damli cholg'ular
100	Piststikato tushunchasi qaysi guruh cholg'ulariga tegishli?	Torli cholg'ular
101	Sopranoning avj pardalari qaysi tovushlarga to'g'ri keladi?	2-oktavada "lya, si"
102	Soprano yuqori registrda qanday yangraydi?	Kuchli va yangroq
103	Soprano yuqori registrda qanday yangraydi?	sokin
104	Doira usuli deganda nimani tushunasiz?	Ritmik tasvir
105	Rechitativ kuy nima?	Tabiiy nutqning ritmik va muayyan tovush balandligini aks ettiradi
106	Ariyasimon kuy nima?	musiqiy iboraning she'riy ibora bilan erkin ravishda kuychan bog'lanishi
107	Qo'shiqsimon kuy nima?	she'riy matn ritmining musiqiy ibora bilan o'zaro uyg'unlashuvi
108	Xonanda ovozni qancha vaqt cho'zib tura oladi?	1 daqiqa atrofida

ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч.”Ўзбекистон”, 2008.
2. Евлахов О. Проблемы воспитания композитора. Л., 1984
2. Римский-Корсаков Н. Общий курс инструментовки. I, Пч.
3. Месснер Е. Основы композиции. М., 1981.
4. Когоутек Ц. Техника композиции в музыке XX века. М., 1978.
5. Петрусёва Н. Пер Булез. Эстетика и техника композиции. М.-СПб. 2002
6. Лаврентева И. Вокальные формы в курсе анализа музыкальных произведений. М., 1978.
7. Способин И. Музыкальная форма. М., 1980.
8. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. Ma’lumotnoma, T., 2004.
9. Абдуллаева Э. Феликс Янов-Яновский. Монография, Т., 2015.
10. Малмберг И. Восточная поэтическая миниатюра в творчестве композиторов XX века. Т., 2012.
11. Малмберг И., Хасанов А. Модалност в курсе преподавания гармонии и её претворение на основе узбекской монодии. Т., 2007.
12. Шарафиева Н. Хоршунослик. Т., 1987.
13. Mansurov A. “Cholg‘ulashtirish bo‘yicha amaliy namunalar va mashqlar (O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri)”. Т., 2006.; Т., 2008. (www.conservatory.uz.)
14. Mansurov A. “Cholg‘ulashtirish (aranjirovka asoslari) bo‘yicha amaliy namunalar va mashq-topshiriqlar (Estrada-simfonik orkestri)”, o‘quv-uslubiy qo‘llanma. -Т., 2015.(www.conservatory.uz.)
15. Денисов Э. Ударные инструменты в современном оркестре. М., 1998.
16. Yanov-Yanovskiy F. Cholg‘ulashtirish bo‘yicha mashq-topshiriqlar (Simfonik orkestr)”. Т., 2015.
17. Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.
18. Назайкинский Е.В. Логика музыкальной композиции. М., «Музыка», 1982.
19. Янов-Яновская Н. Узбекская симфоническая музыка. Т., 1980.
20. Зряковский Н. Общий курс инструментоведения. М., 1978.
21. Петросянц А. Инструментоведение “Узбекские народны инструменты, 3-е издание. Т., 1990.
22. Свечков Д. Духовой оркестр. М., МузГиз, 1977.
23. Киянов Б., Воскресенский С. Руководство по инструментовке для эстрадных оркестров и ансамблей. М., 1981.
24. Браславский Д. Инструментовка для эстрадного оркестра. М., 1979.
25. Abdullayeva O. Ansambl cholg‘ularini o‘rganish. Т., 2006.

MUNDARIJA

1-semestr

Soʻz boshi		3
1-DARS:	Kirish.	6
2-8-DARSLAR:	Melodik va garmonik mashqlar	19
9-15-DARSLAR:	Fortepiano uchun “2 ta Preljudyia” yaratish	29
	§ 1. Melodiya (kuy) yozish.	30
	§ 2. Faktura. Garmoniya. Ritm	33
	§ 3. Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish	35
	§ 4. Oddiy shaklning oʻrta qismini yozish	37
	§ 5. Oddiy shaklning reprizasini yozish	38
16-DARS:	Asarning ijrosini tayyorlash	47
17-18 DARSLAR:	1-semestr oraliq nazorati uchun ijodiy dasturni sahnada tayyorlash va topshirish	48
19-22-DARSLAR:	Violonchel (yakka cholgʻu) uchun solo yaratish. Melodiya. Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish	49
23-30-DARSLAR:	Oddiy shaklning oʻrta qismini yozish	52
31-32-DARSLAR:	Oddiy shaklning reprizasini yozish	55
33-34-DARSLAR:	Asarning ijrosini tayyorlash	59
35-36-DARSLAR:	1-semestr Yakuniy nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish	60
	1-semestrda oʻzlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar	61

2-semestr

37-38-DARSLAR:	Fleyta va fortepiano uchun Pyesa yaratish. Melodiya. Faktura. Garmoniya. Ritm	69
39-42-DARSLAR:	Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish	70
43-44-DARSLAR:	Oddiy shaklning oʻrta qismini yozish	72
45-46-DARSLAR:	Oddiy shaklning reprizasini yozish	75
47-48-DARSLAR:	Asarning ijrosini tayyorlash	80
49-50-DARSLAR:	Ovoz va fortepiano uchun Romans yaratish. Musiqa va sheʼriy matn mutanosibligida melodiya yozish	80
51-52-DARSLAR:	Faktura. Garmoniya. Ritm	83
53-54-DARSLAR:	2-semestr oraliq nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish	84
55-56-DARSLAR:	Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish	84
57-58-DARSLAR:	Oddiy shaklning oʻrta qismini yozish	88
59-60-DARSLAR:	Oddiy shaklning reprizasini yozish	90
61-DARS:	Asarning ijrosini tayyorlash	96

62-DARS:	Qashqar rubobi va fortepiano uchun pyesa yaratish	96
63-64-DARS:	Melodiya. Faktura. Garmoniya. Ritm. Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish	97
65-66-DARSLAR:	Oddiy shaklning oʻrta qismini yozish	99
67-68-DARSLAR:	Oddiy shaklning reprizasini yozish	101
69-70-DARSLAR:	Asarning ijrosini tayyorlash.	105
71-72-DARSLAR:	2-semestr Yakuniy nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish	105
	2-semestrda oʻzlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar	106
	Xulosa	115
	Glossariy	118
	1-semestrda oʻzlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun berilgan test savollarining javoblari	125
	2-semestrda oʻzlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun berilgan test savollarining javoblari	129
	Adabiyotlar	133

ABDULLAYEVA OYDIN O‘TAMURODOVNA

BASTAKORLIK SAN’ATI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi bakalavriati
1-kurs talabalari uchun darslik
(o‘zbek tilida)

Muharrir	<i>X.Yusupova</i>
Badiiy muharrir	<i>N.Umurov</i>
Texnik muharrir	<i>N.Ismoilova</i>
Musahhih	<i>Sh.Gafurova</i>
Nota muharriri	<i>N.Erkayev</i>
Kompyuterda tayyorlovchi	<i>B.Ashurov</i>

Nashriyot litsenziya raqami: AI № 126.2008.12-noyabr.

“Musiqa” nashriyoti. Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 1.

Bosishga 5.03.2018 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60 x 84 1/8. “Tayms” garnitura.
Shartli b.t. 17,0. Nashr b.t. 16,75. Adadi 350 nusxa (1-zavod 50 nusxa).
Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma №

“Complex Print” MChJ da chop etildi. Toshkent sh. Navoiy ko‘chasi, 24.
Tel.: 244-40-89, e-mail: complex.print@mail.ru.
Litsenziya № 10-3606. 10.02.2016.